

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**F.A.Axmedjanova, Sh.Karimova, D.Mirzaaxmadov**

**“Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya xizmati”  
fanidan**

**O‘quv qo‘llanma**

**5610100 – Xizmatlar sohasi (tovar ekspertizasi xizmatlarini tashkil  
etish) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun**

**Samarqand – 2019**

**F.A.Axmedjanova, Sh.Karimova, D.Mirzaaxmadov. “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya xizmati”. – O‘quv qo‘llanma. Toshkent, nashriyoti, 2019 yil. - 177 bet.**

---

### **Taqrizchilar:**

F.G.SHakirova - Samarqand sinov va sertifikatlashtirish davlat korxonasi sifati menejmenti tizimlarining sertifikatlashtirish idorasi rahbari

M.K.Karimov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Servis” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

### **Annotatsiya**

Ushbu o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish, sertifikatlashtirish, metrologiya va texnik jihatdan tartibga solish xizmati, ularning maqsadi va vazifalari, vakolatlari, davlat tizimi, tovarlar va xizmatlar sifatiga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy o‘quv yurtlarida 5610100-“Xizmatlar sohasi (tovar ekspertizasi xizmatlarini tashkil etish)”, “Xizmatlar sohasi” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

### **Аннотация**

В учебном пособии отражаются вопросы касающиеся деятельности стандартизации, метрологии, сертификации и технического регулирования в республике Узбекистан, их цели и задачи и влияние на формирования качества товаров и услуг.

Учебное пособие рекомендовано для студентов обучающихся по направлению 5610100-“Сфера услуг (организация услуг товарной экспертизы)” и “Сфера услуг”.

### **Annotation**

The textbook reflects the formation of the assortment and consumer properties of non-food products in the process of their production, the rules of packaging, labeling, transportation and storage, as well as the classification of the range and consumer properties of non-food items.

The textbook is recommended for students studying in the field of 5610100- "Organization of commodity examination services", "Service industry".

## KIRISH

Malumki, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Mamlakatimizda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ahamiyati va hissasini oshirish, xizmatlar sifatini diversifikatsiya qilish va takomillashtirish hamda uning infratuzilmasini kengaytirishga eksport faoliyatini liberallashtirish, eksport tuzilishi va geografiyasini kengaytirish, iqtisodiyot sohalari va xududlarning eksport imkoniyatlarini kengaytirish va safarbar qilish kabi masalalar belgilab berilgan<sup>1</sup>.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitidagi asosiy vazifalardan biri xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, uning xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining xizmatlarga bo‘lgan talablarini to‘laroq qondirish hisoblanadi. Shuning uchun ham bu vazifani hal etishda respublikamizda amalga oshirilayotgan standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlari muhim rol o‘ynaydi. Chunki, xizmatlar sifati asosan ularni standartlashtirish va sertifikatlashtirish orqali ta‘minlanadi. Xizmatlar sifatini ta‘minlashga esa, ularning sifat ko‘rsatkichlarini me‘yorlashtirish orqali erishiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda sifatli xizmat kursatish, shu sohada foyda olishning asosiy manbai hisoblanadi. SHu narsani alohida ta‘kidlash joizki, xizmatlar sifatiga qo‘yiladigan talablar ham standartlar orqali belgilanadi. Standartda fan, texnika va xalqaro tajribaning ilg‘or yutuqlari shakllanadi, chunki standartlarni tuzishda mahsulot va xizmatlar sifatiga inson hayoti, mol – mulki va atrof muhit uchun xavfsizlik talablari belgilanadi. Hozirgi kunda amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan turli xil xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Bunday chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup>2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 7 fevral.

inson hayoti, uning mol-mulki va atrof muhit uchun xavfsiz va jamiyat talablariga muvofiq keladigan xizmat ko'rsatishda muhim omillardan hisoblanadi.

Turli xil xizmatlar o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lishi bilan birga, xizmatlar turlari iste'molchilarning talablariga qarab kundan-kunga o'zgarib boradi va to'xtovsiz rivojlanadi. Shu sababdan xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribasishuni ko'rsatadiki, xizmatlarini standartlashtirish va sertifikatlashtirish ko'p hollarda majburiy bo'lmagan, ya'ni ixtiyoriy shaklda olib borilgan, chunki bozor va unda mavjud bo'lgan jiddiy raqobat ushbu sohada aholiga ko'rsatayotgan xizmatlarni o'z-o'zidan bir qolipga solib qo'yadi.

Raqobat kuchli bo'lganligi sababli standartlarni ishlab chiqish va ularni tadbqiq etishga bo'lgan talablar ham kundan-kunga o'sib bormoqda. Ishlab chiqishi mo'ljallangan standartlarning asosiy buyurtmachilari - soha tadbirkorlari, xususiy sektor va iste'molchilardir. Me'yoriy hujjatlarda iste'molchilar xavfsizligiga daxldor bo'lgan ko'rsatkichlar majburiy va sifat ko'rsatkichlariga mansub bo'lgan talablari ixtiyoriydir. Shuning uchun, ko'p chet el soha mutaxassislari ikki xil sertifikat, ya'ni majburiy, me'yoriy hujjat talablariga mos kelishini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikatiga hamda tashkil etilgan sifat tizimining xalqaro ISO 9000 seriyali standart talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatga egadirlar. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan davlatlarda esa, aksincha holatni kuzatish mumkin. Hukumat o'z zimmasiga javobgarlikni olib huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda xizmatlarni strategik quvvatga ega bo'lgani sababli ularni tartibga solib boshqarib turadi. Bunda standartlashtirish va sertifikatlashtirish majburiy tarzda olib boriladi.

Demak, mahsulot sifatini ta'minlashda standartlashtirish metrologiya va sertifikatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda inson faoliyatini standartlashtirishsiz tasavvur etish qiyin, chunki inson o'zining faoliyat doirasida doimo standartlashtirish bilan uzviy bog'langan. Standartlashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vazifasini bajaradi, chunki uning qat'iy texnik va texnologik talablari, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchilarni barcha turdagi mahsulotlarning eng yaxshi namunalarini tayyorlashga undaydi.

Shuning bilan birgalikda standartlarga rioya qilish tovar hayotiy davrining barcha bosqichlaridagi o'tishini engillashtiradi. Bu hol esa o'z navbatida, butun ishlab chiqarish maromini ta'minlaydi va natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot qancha sifatli bo'lsa, u shuncha jahon bozorida o'z o'rnini topadi va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham tashqi bozorga chiqariladigan mahsulotning hajmi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bog'liq bo'ladi.

Mahsulot sifatini ta'minlashdagi yana bir omillardan biri sertifikatlashtirish hisoblanadi, chunki sertifikatlashtirish mahsulotning iste'molchi va ishlab chiqaruvchi sog'ligi hamda atrof - muhit uchun xavfsizligini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni standart va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlaydi va nazorat qiladi.

Demak, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifalari bir maqsadga, ya'ni ichki va tashqi bozor raqobatida qatnasha oladigan sifatli va inson hayoti hamda atrof muhit uchun bezarar mahsulot ishlab chiqarishni va sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashdan iborat.

## I-BOB. STANDARTLASHTIRISH XIZMATI

### 1.1. O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi

Mamlakatimizda standartlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar milliy standartlashtirish tizimi talablari asosida amalga oshiriladi. Milliy standartlashtirish davlat tizimi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari va rivojlangan xorijiy davlatlarning standartlashtirish bo‘yicha milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilgan va dunyo ilmiy – texnik rivojiga asoslangan.

Standartlashtirish davlat tizimi deb, respublikamizda standartlashtirish ishlarini tashkillashtirish, standartlashtirish bo‘yicha idora va xizmatlarni tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi standartlari va texnik shartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash, rasmiylashtirish, ularga o‘zgartirishlar kiritish, bekor qilish va amaldagi standartlar talablari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ustidan nazorat o‘tkazish qonun-qoidalarini o‘z ichiga olgan me‘yoriy hujjatlar majmuiga aytiladi.



O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimining mazmuni va uning me‘yoriy hujjatlari majmui O‘zDst 1.0: 1998 (O‘zbekiston respublikasini standartlashtirish Davlat tizimi. Asosiy qoidalar) da to‘liq ask ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish davlat tizimining standartlarining qoidalari barcha davlat, jamoa, ijarachi, aksionerlik, qo‘shma va boshqa korxonalar hamda tashkilotlar, konsermlar, uyushmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa birlashmalar tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat boshqaruvining boshqa idoralari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish idoralari, shuningdek tashabbuskorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar tomonidan butun O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish - davlat tizimi quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: standartlashtirish bo‘yicha asosiy atama va tushunchalar, standartlashtirishning maqsadi va vazifalari, tamoyillari, standartlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish doiralari va standartlashtirish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar nomlari va vazifalari, standartlashtirish ob‘ektlari, standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni qo‘llash, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni chop etish, ma‘lumotlar bilan ta‘minlash, me‘yoriy hujjatlar ustidan davlat nazoratini o‘tkazish, davlat standartlashtirish va nazorati bo‘yicha ishlarni mablag‘ bilan ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish bo‘yicha ishlarida xalqaro hamkorlik qilish qoida va tartiblarini.

## **1.2. Standartlashtirishning asosiy maqsadi va vazifalari**

Har bir sohaning aniq maqsadi va vazifalari bo‘lganligi kabi, standartlashtirish bo‘yicha faoliyat ham o‘ziga xos maqsad, vazifalar va tamoyillarga ega. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- mahsulot, xizmat va jarayonlar sifat bo‘yicha aholi hayoti, sog‘ligi va mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfsizlikni ta‘minlash va resurslarni tejash masalalarida iste‘molchilar hamda davlat manfaatlarini himoya qilish;

- mahsulotning o‘zaro bir-biriga mos kelishi va o‘zaro almashuvini ta‘minlash; fan, texnika va texnologiya rivoji darajasiga javob bera oladigan hamda aholi va xalq

xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

- resurslarning barcha turlarini tejashga va ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik to'siqlarni bartaraf etish va jahon bozorida milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashish;

- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;

- tabiiy va texnogen fojialar va boshqa favqulotda holatlarni yuzaga kelishini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash;

- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nomenklaturasi va sifati to'g'risidagi to'liq va ishonarli axborotlar bilan ta'minlash;

- mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash va uning safarbarlik tayyorgarligiga ko'maklashish;

- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijro etuvchi) ma'lum qilgan mahsulot sifati to'g'risidagi ko'rsatkichlarni ta'minlash.

Standartlashtirish faoliyatining vazifalari uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va unga quyidagilar kiradi:

- iste'molchilar va davlat manfaati maqsadida mahsulot sifati va nomenklaturasiga nisbatan eng maqbul talablarni belgilash;

- aholi, davlat va eksport ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimi va ularning ishlab chiqish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish, qo'llash hamda me'yoriy hujjatlardan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat o'rnatish;

- milliy standart talablarini xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy va sanoati rivojlangan davlatlar standartlarining talablari bilan uyg'unlashtirish;

- parametrik va o'lchash turlari hamda tayanch konstruksiyalarini belgilash va qo'llash asosida buyumlarning konstruktiv jihatdan bir-biriga moslashtirilgan va blok – modullashtirilgan qismlarini birxillashtirish (unifikatsiyalash);

- mahsulot, uning tarkibiy qismlari va butlash buyumlarining ko'rsatkich va tavsiflarini bir-biriga moslashtirish hamda muvofiqlashtirish;

- mahsulotning ergonomik xususiyatlariga talablar belgilash;



- metrologik me'yorlar, qoida va talablarni belgilash;
- xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro tajribalardan foydalanish, davlatlararo va mintaqaviy standartlashtirish ishlarida qatnashishni faollashtirish;
- xalqaro va davlatlararo standartlarini qo'llash tajribasini kengaytirish;
- texnika-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlash tizimini yaratish va olib borish;
- texnologik jarayonlarga talablar belgilash;
- sinov va sertifikatlashtirish jarayonlari va mahsulot sifatini baholash hamda nazorat qilishni me'yoriy-texnik tomondan ta'minlash.

### **1.3. O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonunining mazmuni va mohiyati**

O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan va u 1994 yilning 28 fevral oyidan boshlab kuchga kiritildi. Ushbu qonun 4 bo'lim va 12 moddani o'z ichiga oladi.<sup>2</sup>

- 1- bo'lim. Umumiy qoidalar.
- 2- bo'lim. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar .
- 3- bo'lim. Standartlar ustidan davlat nazorati
- 4- bo'lim. Davlat standartlashtirish va nazorati bo'yicha ishlarni moliyaviy ta'minoti. Standartlarni qo'llashni rag'batlantirish.

Qonunning «Umumiy qoidalar» bo'limida standartlashtirishning asosiy maqsadi, standartlashtirishning davlat tizimi, standartlashtirish bo'yicha ishlarni bajarish tartibi, standartlashtirish bo'yicha qonunlar va xalqaro shartnomalar hamda bitimlar (1-5 moddalar) to'g'risidagi masalalar ko'rsatilgan.

Qonunning «Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar» bo'limi (6-7 moddalar) O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlarning toifalari, ularga qo'yiladigan asosiy talablar va standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni sertifikatlashtirishda qo'llanishiga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni (28.12.1993 y.)

Qonunning «Standartlar ustidan davlat nazorati» bo‘limida (8-10 moddalar) davlat nazorati organlari (idoralari) va ob’ektlari, davlat inspektorlarining huquqlari va ma’suliyatlari, standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarni buzganligi uchun javobgarliklari to‘g‘risidagi ma’lumot ko‘rsatilgan.

Qonunning «Davlat standartlashtirish va nazorati bo‘yicha ishlarni moliyaviy ta’minoti. Standartlarni qo‘llashni rag‘batlantirish» bo‘limi davlat standartlashtirish va nazorati bo‘yicha ishlarni moliyaviy ta’minoti va standartlarni qo‘llashni rag‘batlantirish masalalarini o‘z ichiga olgan (11-12 moddalar).

#### **1.4. Standartlashtirish ob’ektlari va sub’ektlari**

**Standartlashtirish ob’ektlari** deyilganda, fan va texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, madaniyat sog‘likni saqlash, xalqaro savdo va boshqa sohalarda ko‘p martalab ishlatiladigan aniq mahsulot, me’yor, qoida, talab, uslublar, atamalar va boshqalar tushuniladi.

Standartlashtirish bo‘yicha har bir me’yoriy hujjat o‘ziga tegishli ob’ektga ega. Masalan, xalqaro standartlarning standartlashtirish ob’ektlari GOST 1.0 -92 (Pravila provedeniya rabot po mejgosudarstvennoy standartizatsii. Obshie polojeniya) va O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish ob’ektlari O‘zDSt 1.0: 1998 (O‘zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar)da ko‘rsatilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlararo standartlarining ob’ektiga barcha hamdo‘stlik mamlakatlarda iste’mol uchun ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar kiradi.

O‘zDSt 1.0:1998 ga asosan O‘zbekiston davlat standartlarining ob’ekti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me’yorlar va talablar;
- mahsulotga qo‘yiladigan talablar, umumtexnik me’yorlar va qoidalar;
- tarmoqlararo qo‘llanishga mo‘ljallangan mahsulot;
- davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan xo‘jalik ob’ektlarining elementlari, shu jumladan, bank tizimlari, foydalaniladigan tabiat resurslari, mudofaa, transport, aloqa,

energosistema va shunga o'xshashlarga qo'yiladigan talablar;

- davlat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarining ob'ektlari.

Tashkiliy-uslubiy va umumtexnik me'yorlar va talablarning asosiy qismi quyidagilardan iborat:

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish va o'tkazish tartiblari;
- ma'rifat (bilim) va faoliyatning turli sohalaridagi terminologik tizimlar;
- mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda hamda qo'llashda ishlatiladigan

yagona til, bir-biriga mos keladigan dasturlash, ma'lumotlar texnologiyasining texnik vositalari va texnik hujjatlar;

- texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni tasniflash va kodlash;
- texnika xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat gigienasi,

ergonomika va texnik estetik talablar;

- tipik o'lchamlar qatorlari va umum mashinasozlikda qo'llaniladigan buyumlarning o'ziga xos konstruksiyalari (sharik-podshipniklar, birkitish boltlari, asbob-uskunalar, detallar va boshqalar);

- mahsulot sifati va uni nazorat qilishni ta'minlash tizimlari va uslublari;
- o'lchash birligini ta'minlaydigan va metrologiya ta'minoti bilan bog'liq

me'yorlar, qoidalar, talablar va tashkiliy ishlar tartibi;

- xom ashyo va materialarning konstantalari hamda asoslari to'g'risidagi axborotnoma ma'lumotlari.

Tarmoq standartlari davlatlararo va O'zbekiston davlat standartlariga kirmaydigan mahsulot (xizmat)lar va jarayonlar uchun ishlab chiqiladi. SHuning uchun ham tarmoq standartlashtirish ob'ektlariga davlatlararo va O'zbekiston davlat stanadartlari ob'ektlari bo'lmagan ishlab chiqarishni tashkil qilish, boshqarish va sifatni ta'minlash sohalaridagi me'yorlar, qoidalar hamda mahsulotlar kiradi.

**Korxonalar standartlashtirish ob'ektlariga** quyidagilar kiradi:

- boshqa iste'molchilarga sotiladigan mahsulot;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni va mahsulot sifatini boshqarish qoidalari va me'yorlar;
- faqat ushbu korxonada yaratiladigan, qo'llaniladigan va ishlab chiqariladigan

buyumlarning tarkibiy qismi bo'lgan detallar va qismlar;

- texnologik asbob-uskunalar va instrumentlar, texnologik me'yorlar, talablar va tipik-texnologik jarayonlar;

- korxonaning iste'molchilarga ko'rsatadigan xizmatlari.

**Standartlashtirish sub'ektlari.** Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish" to'g'risida 1992 yil 2 martdagi 93-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Vazirlar maxkamasi xuzuridagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O'zbekiston davlat markazi (O'zdavstandart) - standartlashtirish bo'yicha milliy idora hisoblanadi va standartlashtirish sub'ektlaridan biridir.

Respublikada standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishini, mustaxkamlashtirilishini va ishlarning maqbul darajada olib borilishini quyidagi idoralar ta'min kiladilar:

1. Tarmoqlararo qo'llanishga belgilangan mahsulot bo'yicha O'zdavstandart.

2. Qurilish va qurilish sanoati bo'yicha, shu jumladan loyixalash va konstruksiyalashni ham qo'shgan holda-O'zbekiston Respublikasi Qurilish davlat qo'mitasi.

3. Tabiiy resurslardan foydalanishni yo'lga qo'yish, atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'siridan muhofaza qilish sohasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

4. Tibbiyot yo'nalishidagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dorivor moddalar va respublika sanoati ishlab chiqaradigan mahsulot tarkibida inson uchun zararli moddalar bo'lishi sohasida - O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash vazirligi.

O'zbekiston Rspublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlari O'zdavstandart tomonidan standartlashtirish bo'yicha texnika qo'mitalari (TK), korxonalar, birlashmalar va boshqa manfaatdor tashkilotlarning bo'lajak rejalari (dasturlari) tuziladigan yillik rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Respublika standartlashtirish rejasiga birinchi navbatda milliy standartlar talablari bilan uyg'unlashishni, kishilarning xayoti va sog'ligi uchun xavfsizlikni,

atrof-muhitning muhofaza qilinishini, iste'molchilar huquqining himoya qilinishini, milliy sotsial-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlaydigan milliy standartlarni ishlab chiqish kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish sub'ektiga O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish sohasidagi tadqiqot va mutaxassislar tayyorlash oliygohini va viloyatlardagi hududiy markazlarni ham kiritish mumkin.

### **1.5. Standartlashtirish tamoyillari (prinsiplari) va ularning ahamiyati**

Standartlashtirish qadim zamonlardan boshlangan. Qadimgi Misr podsholaridan biri firavn Tutmos 1 eramizdan avvalgi 15 asrda saroy qurilishida bir xil hajmdagi g'ishtdan foydalangan ekan. Rim va Afrosiyobda vodoprovodlar qurilishida standartlangan trubalar ishlatilgan. Amir Temur lashkarlari ishlatgan nayza va kamonlar, Ivan Grozniy qo'shinlari otgan tup o'qlari standart razmerda bulgan.

Standartlashtirish fanning bir qismi sifatida o'z nazariyasiga va shu jumladan umumiy va o'ziga xos prinsiplarga ega. Barcha ijtimoiy jarayonlarga xos bo'lgan planlilik, sistemalilik va iqtisodiy samaradorlik standartlashga ham taalluqlidir. Bulardan tashqari, standartlashning quyidagi o'ziga xos prinsiplari bor<sup>3</sup>

**Unifikatsiyalash.** Unifikatsiyalash standartlashning eng faol va shuning uchun ham eng kam tarqalgan uslubi hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish maqsadida MDX mamalakatlarida har yili mashina va uskunalarning mingga yaqin namunalari yaratiladi. Ko'p hollarda yangi mahsulotlar anchain yiroq, ko'pincha bexuda konstruktiv qarorlarga xos bir - biriga o'xshash yoki juda yakin keladigan foydalanish tavsiyanomalariga ega bo'lib, bu hol ularning turkumlab ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilishini va texnologik liniyaga ulanishini qiyinlashtiradi.

Bir xil maqsadda foydalaniladigan buyumlar nomenklaturasini oqilona

---

<sup>3</sup> Архипов А.В. "Метрология, стандартизация, сертификация": Учебник для студентов вузов- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.

qisqartirish uchun ularni unifikatsiyalash amalga oshiriladi hamda buyumlarning parametrik qatoriga standartlar ishlab chiqiladi, bu ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va sifatni yaxshilashga yordam beradi.

Unifikatsiyalash standartlashning muxim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning vazifasi fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari asosida mahsulotlarni yaratish yoki zamonaviylashtirish orqali bir xil maqsadga mo‘ljallangan ob‘ektlarning eng maqbul miqdorini belgilash hisoblanadi.

Mashinasozlikda va ishlab chiqarishning boshqa sohalarida foydalaniladigan boltlarni, detallarni unifikatsiyalash bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Boltlar shakllari va o‘lchamlarini unifikatsiyalash ular turlarining xilma-xilligini unlab marta qisqartiradi, ularni yuqori samarali ixtisoslashgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish imkonini berdi, bu esa mashinalarni loyixalash, ularga xizmat ko‘rsatishni va ularni ta‘mirlashni soddalashtirishga olib keldi.

Boshqa mahsulot turlaridan tashqari, hujjatlar, sinovlar va nazorat uslublari, jarayonlar, talablar me‘yorlari belgilashlar va boshqalar ham unifikatsiya qilinishi lozim.

ISO/STAKO qo‘mitasi “Unifikatsiya” atamasiga quyidagi ta‘rifni tavsiya etadi: bu standartlashtirishning shunday shakli, unda ikkita yoki bir necha xujjatlar (standartlash ob‘ektlari) bitta shunday yo‘sinda birlashadi, buning natijasida esa hosil bo‘lingan ob‘ektlar foydalanish chog‘ida hzaro almashinadigan bo‘lishi lozim.

**Tipiklashtirish.** Tipiklashtirish – bu namunali konstruktiv, texnologik, tashkiliy va boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda belgilash jarayoni bo‘lib, ularda qator buyumlar yoki jarayonlar uchun umumiy texnik xususiyatlar me‘riy mustahkamlangan bo‘ladi.

YAngi mashina va buyumlarni loyixalash chog‘ida konstruktor zimmasida oldin ishlab chiqilgan, unifikatsiya qilingan yig‘uv qismlari va detallaridan mumkin qadar foydalanish vazifasi turadi. Aks holda xech qanday iqtisodiy yoki texnik afzalliklari bo‘lmagan ishlab chiqarishning bir muncha zamonaviy darajasi texnologik uzilishni ta‘minlashga imkon bermaydigan qator yangi loyixalar vujudga keladi. Samarasiz xilma- xillikka, ya‘ni unifikatsiya kilingan yig‘uv qismlari va

detallar chiqarilishidan oldin namunali konstruksiyalarni yaratishga tiplashtrish yordamida loyixalash vaqtidaek barham berish mumkin buladi.

Tiplashtrish – bajaradigan ish o‘xshash, ammo o‘lchami va loyixa echimlari bo‘yicha bir-biridan uncha farq qilmaydigan ko‘plab buyumlar, mashinalar, uskunalarning xalq xo‘jaligida ishlab chiqilishi va paydo bo‘lishiga yo‘l quymaslik imkonini beradi.

**Dinamiklik.** Bu standartlarda mahsulot sifati va assortimentiga quyilgan talablarni vaqti - vaqti bilan qayta ko‘rib chiqish prinsipidir. Endilikda standartlar har besh yilda qayta ko‘rib chiqilmoqda va kiritilgan o‘zgarishlar informatsion ko‘rsatkichlarda e‘lon qilinadi.

**Ilg‘orlik prinsipi.** Bu mahsulot sifati va assortimentiga amalda qo‘llanilib kelinayotgan standart talabidan yuqori talablar qo‘yishi va fan- texnika yutuqlari bilan hamohang yurish prinsipidir. Bu prinsipning asosiy mohiyati xalk iste‘mol tovarlari va ularning assortimentiga shunday talablar qo‘yishidan iboratki, natijada ular uzoq vaqt mobaynida ham iste‘molchilar talabini qondirish darajasida bo‘lsin.

SHunday qilib, standartlashning bu prinsipi 5-6 yildan keyin tovarlar sifati va assortimenti qanday darajada yaxshilanishini haridorlarga oldindan bildirib turishni talab qiladi. SHu sababli bu prinsip standartlashning ilgarilab ketish prinsipi deb ham ataladi.

**Kompleks standartlash.** Standartlashning bu prinsipini qishloq xo‘jalik mahsulotlariga ishlanayotgan standartlar misolida tushuntirishga harakat qilamiz.

Ma‘lumki, maqbul sifatdagi qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqarishning rejalashtirilgan hajmlariga erishishda xozirgi kunda fakat qishloq xujaligi xodimlarigini emas, balki mamlakat agrosanoati majmuiga kiruvchi Ko‘pgina sanoat korxonalarining xodimlari ham ishtirok etmoqda.

Xujaliklar uz imkoniyatlarini jiddiy ravishda oshiradigan va qishloq xo‘jaligi mahsulotining belgilangan sifat darajasiga erishishini ta‘minlashi lozim bo‘lgan ko‘plab eng zarur miqdordagi texnika, material, o‘g‘it, pestitsidlar, ozuqa vositalari, takror ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirilmoqda. SHu sababli agrosanoat majmuining ko‘pchilik bug‘inlari bir vaqtning o‘zida mahsulot etkazib beruvchilar va

iste'molchilar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi kompleks standartlash tarqoq ob'ektlarni standartlashdan tayyor mahsulotni vujudga keltirishning barcha elementlariga muvofiqlashtirilgan talablar asosida birgalikda harakatlanuvchi standartlarni ishlab chiqishga o'tishni nazarda tutadi. Bular o'g'itlar me'rlari, materiallar, asboblari, nazorat uslublari ishlab chiqarish texnologiyasi uchun standartlarni ishlab chiqish hamda joriy qilishni o'z ichiga oladi.

Kompleks standartlash dasturlarini ishlab chiqish- standartlashga yangi, prinsipial yondashuvdir. Bu ta'sirchan usul tarmokda yagona texnologik siasatni olib borishni ta'minlaydi.

Kompleks standartlash dasturlari qishloq xo'jaligi tarmoqlarida hamda sanoatning muvofiq keluvchi tarmoqlarida joriy va istiqbol standartlash bo'yicha rejali topshiriqlarni belgilaydigan, shuningdek, pirovard mahsulot sifatini oshirishni ta'minlaydigan ilmiy- tadqiqot ishlarini o'tkazishni va o'zaro moslashgan standartlarni ishlab chiqishni muvofiqlashtiradigan hujjat hisoblanadi.

Kompleks standartlashdagi asosiy bug'in pirovard mahsulot standartidir. U mahsulot xususiyatlarini asosiy standartda shakllantirishning barcha bosqichlarini o'z ichiga oluvchi standartlar majmuasi demakdir.

Dexkonchilik mahsulotini standartlashda bu majmuaga qishloq xujaligi mashinalari, urug' va ekish materiali, pestitsidlar, texnologik jarayonlar va ekinni o'stirish ishlari, hosilni yig'ishtirish, hamda unga tovar ishlovini berish, saqlash va tashish shartlari, idish, mehnat hamda mahsulot sifatini aniqlash uslublari, o'lchov vositalari standartlari kiritiladi.

Bu komplekslarda an'anaviy standartlardan tashqari, sanoat texnologiyasi uchun mo'ljallangan navga talablarni belgilovchi standartlar muhim hisoblanadi. Masalan, kombayn bilan yig'ishtiriladigan pomidor uchun tuproqdagi pomidorlarning askariyat qismining bir vaqtda etilishi, hosilni yig'ishtirish va tashishda pomidorning ezilmasligini ta'minlovchi pomidor po'stining qalinligi, meva bandining oson uzilishi va boshqalar kat'iy talablar hisoblanadi.

Standartlashtirish kompleksliligini , masalan, meva - sabzavot, go'sht, sut va



baliq mahsulotlariga standartlarni qo'llashda ko'rish mumkin. YOki bu prinsipni boshqacha ta'riflasak, yuqorida aytilgan mahsulotlar sifati ularning xom ashyosiga, texnologik jarayonlarning borishiga, tayyor mahsulot joylanadigan bankalarning, o'rash uchun ishlatiladigan materiallarning sifatiga, tayyor mahsulotlarni saqlash va tashish sharoitlariga o'zaro bog'liqligi prinsipidir.

**Direktivlik.** Bu prinsip standartlar barcha tashkilotlar va korxonalar uchun qonun kuchiga egaligini bildiradi. Bizda standartga bo'ysunmaslik qonun bo'yicha ta'qib etiladi. Muboxasa ishlarida standartlarning faqat asl nusxasi, ya'ni bosmaxona usulida nashr etilgan nusxasi dastak bo'la oladi. Davlat standartlarini mashinkada qayta ko'chirish taqiqlanadi, chunki bunda xatoliklar o'tib ketishi mumkin. Tarmoq va respublika standartlari hamda texnik shartlarni ichki ishlarda qo'llanilishi uchun mashinkada yoki boshqa usulda ko'paytirish mumkin.


### **1.6. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning toifalari.**

**Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning toifasi va shartli belgilari.** O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining O'z DSt 1.0: 1998 (O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar) standartiga asosan standartlashtirish bo'yicha quyidagi me'yoriy hujjatlar qo'llaniladi:

- davlatlararo standartlar – GOST;
- O'zbekiston davlat standartlari – O'z Dst ;
- tarmoq standartlari - TS;
- texnik shartlar – TSH;
- korxonalar standartlari – KS.

Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar guruhiga standartlashtirish bo'yicha rahbariy hujjatlar (RH), turli xildagi me'yorlar va qoidalar, yo'riqnomalar, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar tasniflagichi kiradi.

## 1.2.- rasm. O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirishga oid me‘yoriy hujjatlar toifalari



Standartlashtirish bo‘yicha har bir toifali me‘yoriy hujjatning o‘ziga xos obekti (talablar, qoidalar, tavsiflar) va qo‘llanish doirasi bo‘ladi.

**Davlat standartlari**, milliy standart sifatida qabul qilingan xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo standartlar O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida va korxonalarida qo‘llaniladi.

**Tarmoq standartlari (TS)** shu tarmoqda ishlab chiqariladigan va qo‘llaniladigan mahsulot (xizmat)ga agar shu mahsulotga davlatlararo va davlat standartlari bo‘lmasa ishlab chiqiladi. Ular shu mahsulotni ishlab chiqaradigan tarmoq korxonalarini va uni iste‘mol qiladigan boshqa soha iste‘molchilari uchun qonun kuchiga ega bo‘ladi.

**Texnik shartlar (TSH)** aniq mahsulot uchun ishlab chiqiladi: texnik shartlarda belgilanadigan talablar bir turli mahsulotlar guruhiga mo‘ljallangan standartlarda belgilanadigan talablarga muvofiq yoki ulardan yuqori bo‘lishi kerak.

**Korxonalar standartlari (KSt)** faqat shu korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot uchun ishlab chiqiladi va amalga kiritiladi. Korxonalar standartlari faqat shu korxonada va uning mahsulotini iste‘mol qiladigan iste‘molchilar uchun qonun kuchiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining O‘z DSt 1.0: 1998 standartning 3 bo‘limida

ko'rsatilganidek, davlat toifasidagi me'yoriy hujjatlarining indeksleri quyidagicha ifodalanadi:

- GOST - davlatlararo standart;
- O'z DSt - O'zbekiston davlat standarti;
- O'z DT - Umumdavlat tasniflagichi;
- O'z RN - O'zbekiston rahbariy hujjati;
- TSt - tarmoq standarti;
- Tsh - texnik shartlar

### **1.7. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning turlari**

Davlat standartlash tizimi standartlashtirish ob'ektlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularga qo'yiladigan talablarning mazmuniga ko'ra standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar quyidagi turlarga ajratiladi:


- asos bo'luvchi sanadartlar; mahsulot (xizmat)ga qo'yiladigan standartlar;
- jarayonlarga qo'yiladigan standartlar;
- nazorat (sinash, o'lchash, tahlil qilish) uslublariga qo'yiladigan standartlar.

**Asos bo'luvchi standartlar** faoliyatning ma'lum bir sohasi bo'yicha umumiy, tashkiliy-uslubiy qoidalar, fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro tushunilishi, texnik birligi va mahsulotni yaratish, qo'llash, atrof-muhitni himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish jarayonlarida har xil ilm-fan sohalarining, texnika va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan va boshqa umumtexnik talablarni belgilaydi.

**Mahsulot (xizmat)ga qo'yiladigan me'yoriy hujjatlar** bir turdagi mahsulot (xizmat) guruhlariga yoki aniq bir mahsulot (xizmat)ga talablar belgilaydi.

**Jarayonlarga qo'yiladigan me'yoriy hujjatlar** mahsulot ishlab chiqarish, saqlash, tashish, iste'mol qilish, ta'mirlash, utilizatsiya qilish va texnologik jarayonlarda turli ishlarni bajarish uslublariga talablar qo'yadi.

### 1.3. – rasm. Standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning turlari



**Nazorat usullari (sinovlar, tahlil qilish, o'lchashlar, tavsiflar)** standartlari mahsulotning bitta yoki bir necha turdosh guruhlariga ishlab chiqiladi va ularni sinash uchun namunalarni tanlash tartiblari hamda mahsulot sifat ko'rsatkichlarini baholash birligini ta'minlash maqsadida foydalanish, tavsiflarni nazorat qilish (sinash, tahlil qilish, ta'riflash, o'lchash) usullarini, shuningdek mahsulotni yaratish, nazorat qilish, sertifikatlashtirish va iste'mol qilish davrida sinab ko'rish usullarini belgilaydi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning quyidagi turlari ham mavjud:

- umumtexnik shartlar standarti;
- texnik shartlar standarti;
- atamalar va ta'riflar standarti;
- tamg'alash (markirovka) standarti;
- belgilar standarti;
- nomenklatura standarti.

**Umumtexnik shartlar standarti** yagona (umumiy) talablar, shu jumladan, mahsulot ishlab chiqarishning butun rejali davri mobaynida eng maqbul texnik darajani mahsulot sifati va tejamkorligini ta'minlaydigan ishlatish ta'riflari, butligi, qabul qilish uslublari, tamg'alash, o'rab-bog'lash, tashish va saqlash, ishlatish va ta'mirlashga oid ko'rsatmalar, kafolatlar va boshqa talablar belgilaydi.

**Texnik shartlar standarti** muayyan mahsulot uchun har tomonlama talablarni, shu jumladan, ishlatish, butlash, qabul qilish, nazorat uslublari, tamg'alash, tashish, saqlash talablari, ishlatish va ta'mirlash, ishlab chiqaruvchi kafolatlariga ko'rsatmalar ishlab chiqish, etkazib berish, ishlatish va ta'mirlashga oid talablar belgilaydi.

**Atamalar va ta'riflar standarti** fan, texnika, sanoat va qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, madaniyat, sog'likni saqlash va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ko'p qo'llaniladigan atamalar va ularning ta'riflarini belgilaydi.

**Tamg'alash standarti** iste'molchilarni mahsulotning asosiy xususiyatlaridan xabardor qilish uchun tamg'alashning yagona (umumiy) talablarini belgilaydi.

*Belgilar standarti* standartlashning turli ob'ektlari uchun shartli, raqamli, harf-raqamli belgilashni; o'lchov birligi va ularning hajmi, yozuv o'rnini bosuvchi ramzlar va boshqalarni belgilaydi.

**Nomenklatura standarti** standartlashtirish ob'ektlarining tizimlashtirilgan ro'yxatini, ularning xususiyatlari va ko'rsatkichlarini belgilaydi.

## **1.8. O'zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartiblari**

**Davlat standartlarini ishlab chiqish tartiblari va bosqichlari.** Standartlarni ishlab chiqish to'rt bosqichdan iborat bo'ladi:<sup>4</sup>

**1 - bosqich** - zarurat tug'ilganda standartni ishlab chiqishda texnikaviy topshiriq ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

---

<sup>4</sup>RST Uz. 1.1-92 Standartlashtirish milliy tizimi. Ўзбекистон давлат стандартларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва жорий этиш тартиблари.

**2 - bosqich** - standart loyixasini ishlab chiqish ( birinchi taxriri) va uni fikr-muloxazalar olish uchun yuborish.

**3 - bosqich** - fikr-muloxazalar ustida ishlash, standart loyixasini (oxirgi taxririni) ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish;

**4 - bosqich** - standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Standart uchun texnik topshiriq faqat zarurat tug'ilganda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Qolgan hollarda birdaniga standart loyihasining birinchi tahriri ishlab chiqiladi.

**Standart loyihasini ishlab chiqish va uni fikr mulohazalar olish uchun yuborish.** *Standart loyihasi* texnik qo'mita ish rejasi, tasdiqlangan standartlashtirish jadvali, yangi mahsulot turlarini yaratish rejasi, manfaatdor tashkilotlar taklifi va boshqa ishlab chiqaruvchi korxonalarining tashabbusiga asosan ishlab chiqiladi.. Agar standart loyihasini ishlab chiqish jarayonida muomaladagi o'zaro bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish lozim topilsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlanadi va ular asosiy tadbirlar rejasiga kiritiladi.

Standart loyihasini ishlab chiqishda uning toifasi, turi va bo'lishi zarur bo'lgan elementlari e'tiborga olinadi va ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- titul varag'i;
- so'z boshi;
- kirish qismi;
- mundarija;
- standartning nomi;
- qo'llanish doirasi;
- me'yoriy havolalar;
- umumiy qoidalar;
- belgilanish va qisqartirishlar;
- talablar (me'yorlar);
- ilovalar va biografik ma'lumotlar.

Standart loyihasini ishlab chiqish bilan bir vaqtda standart loyihasiga tushuntirish xati ham tuziladi va ma'qullansa standartni joriy qilish bo'yicha asosiy tashkiliy-texnik tadbirlar rejasining loyihasi ishlab chiqiladi.

Agar ishlab chiqarilayotgan standart loyihasi standartlashtirish rejasiga kiritilmagan bo'lsa, u holda yuqori idoraning ushbu standartni ishlab chiqish uchun asos qilib olingan hujjati asos bo'ladi. SHuning bilan birgalikda standart loyihasi kelishishni talab etmasa, u holda tushuntirish xatida standartning kelishilishi shart emasligi ko'rsatiladi va asoslab beriladi.

Standart loyihasi korxon va tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng, o'z fikr-mulohazalarini standart loyihasini ishlab chiquvchi tashkilotga 15 kun ichida (qabul qilgan kundan boshlab) kechikmasdan yuboradilar va fikr-mulohazalar oxirida korxon va tashkilotlar o'zlariga kerakli standart sonini ko'rsatadilar.

**Fikr-mulohazalar ustida ishlash, standart loyihasining so'ng tahririni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashga taqdim etish.** Korxon va tashkilotlar tomonidan yuborilgan standart loyihasi bo'yicha fikr-mulohazalar bilan etakchi tashkilot tanishib chiqqandan so'ng, ularga asosan fikr-mulohazalar majmuini tuzadi. Belgilangan vaqtdan so'ng yuborilgan fikr-mulohazalar etakchi tashkilotning ixtiyoriga ko'ra ko'rib chiqiladi va ma'qul bo'lsa fikr-mulohazalar majmuiga qo'shiladi. Fikr-mulohazalar majmuiga asosan standart loyihasining so'ngi tahriri ishlab chiqiladi va asosiy tadbirlar rejasini hamda tushuntirish xatiga aniqliklar kiritiladi.

Agar ishlab chiqaruvchi tashkilot bilan boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasida standart loyihasi yoki asosiy tadbirlar rejasini loyihasi bo'yicha nizolar paydo bo'lsa, u holda etakchi ishlab chiquvchi tashkilot nizolarni muhokama qilish maqsadida kengash chaqiradi va manfaatdor tashkilotlar hamda iste'molchilarning vakillari ishtirokida uning majlisi o'tkaziladi. Etakchi tashkilot kengash qatnashchilariga kengash boshlangunga qadar 10 kun oldin oladigan muddatda fikr-mulohazalar majmuidan ko'chirma va kengash taklifnomalarini yuboradi. Kengash qarori uning barcha qatnashchilari imzo chekkan bayonnoma bo'yicha rasmiylashtiriladi. Kengashda qabul qilingan qaror asosida standart loyihasi, tushuntirish xati va asosiy tadbirlar rejasining oxirgi tahriri tuziladi va u birinchi tahrirdek iste'molchilar va manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib olinadi.

Kelishilgan standart yoki kelishilganlik to'g'risidagi xat etakchi ishlab chiquvchi tashkilotga yuborilishi shart.

**Standartni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish.** Standart loyihasini oxirgi tahririni tasdiqlashga yuborishdan oldin tayanch tashkilot yoki standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita standartni ilmiy-texnik va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi.

Ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan standart loyihasi tasdiqlash uchun quyidagi to'plam shaklida beriladi:

- ilova xati;
- standart loyihasining oxirgi tahririga tushuntirish xati;
- asosiy tadbirlar rejasining loyihasi;
- standart loyihasining 4 ta nusxasi;
- standart loyihasi to'g'risida fikr-mulohazalar majmui;

Respublika standartini davlat ro'yxatiga olish O'zstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada (2 nusxa asli va 2 nusxa ko'chirma) topshiriladi.

Standartni ro'yxatga olgan idora uning asl nusxasi va ikkinchi nusxasini standartni ishlab chiqqan tashkilotga qaytaradi, ikkinchi nusxasi O'zstandart («O'zstandart» agentligi)da qoladi. Standart O'zstandart («O'zstandart» agentligi) ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng 15 kun ichida uning bir nusxasi Respublika ilmiy-texnik kutubxonasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Qurilish davlat Qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi nomenklatura bo'yicha o'zlariga tegishli standartlarning loyixalari va xujjatlarini ko'pi bilan 15 kun mobaynida ko'rib chiqilishini, shuningdek davlat ekspertizasidan o'tkazilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi davlat standarti, Qurilish davlat qo'mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi standart loyihalarini ko'rib chiqadi va uni tasdiqlash yoki kam-ko'stini to'ldirib, qayta ishlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Standart uni tasdiqlagan tashkilotning qarori bilan tasdiqlanadi va joriy



qilinadi.

Standart muddati cheklanmagan yoki muddati cheklangan tarzda tasdiqlanadi.

Standartni tasdiqlash chog'ida asosiy tadbirlar rejasi loyihasiga binoan ishlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda standartni joriy qilish sanasi yoki standartning amal qilish muddati, shuningdek birinchi tekshiruv muddati va keyingi tekshiruvlarning qachon bo'lishi belgilab ko'yiladi.

Qullanish muddati tugashi bilan standart huquqiy kuchini yo'qotadi.

Respublika standartini davlat ro'yxatiga olishni O'zstandart agentligi amalga oshiradi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun standart 4 nusxada topshirilishi lozim; asl nusxasi, ikkinchi nusxasi va 2 ta ko'chirma.

Standart 5 kundan oshmagan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Standartning qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanishidan kat'iy nazar, standartga rakamli belgini O'zstandart agentligi beradi.

Ro'yxatga oluvchi asl nusxa, ikkinchi nusxasi va ikkita ko'chirmaning birinchi betiga o'zining nomi ko'rsatilgan to'rt burchak muxrini bosadi, sana va davlat ro'yxatining nomerini yozib qo'yadi.

Ikkinchi nusxa va ko'chirmaning bitta nusxasi O'zstandartda qoladi.

Asl nusxa va ko'chirmaning ikkinchi nusxasi ishlab chiquvchiga qaytariladi.

O'zstandart agentligi standartni davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin 15 kun davomida ko'chirmaning bitta nusxasini Respublika ilmiy-texnikaviy kutubxonasiga yuborishi kerak.

## **1.9. Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari va ularning vazifalari**

### **1.9.1. ISO tashkiloti va uning asosiy vazifalari.**

Hozirgi kunda jahonda standartlashtirish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro tashkilotlaridan ISO xalqaro tashkiloti yirik tashkilotlardan biri bo'lib hisoblanadi va 100 ga yaqin mamlakat uning a'zosi hisoblanadi. SHu jumladan, O'zbekiston ham 1994 yilning 1 yanvaridan boshlab ISO xalqaro tashkilotining teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda ISO xalqaro tashkiloti o'zining faoliyatida 400dan ortiq har xil sohadagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va aloqa bog'lab turadi. Uning qo'mitalari, ya'ni a'zolari standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlar hisoblanadi. SHu narsani alohida qayd etish joizki, ISO tashkilotiga har bir mamlakatdan faqat bitta standartlashtirish milliy tashkiloti a'zo qilib qabul qilinadi, chunki ba'zi mamlakatlarda standartlashtirish bo'yicha bir necha milliy tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.

1964 yilda ISO kengashi ayrim davlatlarda milliy standartlashtirish tashkilotlari hali tashkil etilmaganligini e'tiborga olgan holda, bu mamlakatlardan ISOga a'zolikka muhbir a'zo qilish haqida qaror qabul qildi. Muhbir a'zolarining huquqiy holati (statusi) bo'yicha ular ISO byudjetiga a'zolik badallarini to'lab turgan holdagina ISOning xalqaro standartlari va axborotlaridan foydalanishga haqlidir. SHuning bilan birgalikda muhbir a'zo bo'lgan davlatlar ISOning texnik qo'mitalari yig'ilishlariga o'zlarining vakillarini faqat kuzatuvchi sifatida qatnashish uchun yuborishlari mumkin.

ISOning organlariga quyidagilar kiradi:

- Bosh assambleya;
- Kengash;
- Kengash qo'mitalari;

Kengash (sovet) prezidenti, vitse-prezident, xazinachi va 18 ta a'zolardan iborat bo'ladi va har 3 yilda qaytadan saylanadi. Kengash ISO faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ko'rib chiqadi va tegishli qarorlar qabul qiladi. Kengash yig'ilishiga a'zolar har yili kamida bir marta to'planishadilar.

ISO va uning Markaziy kotibiati tashkilotning tashkil topgan vaqtdan hozirgi kunga qadar o'z faoliyatini Jeneva shahrida olib bormoqda. Tashkilot tili ingliz, fransuz va rus tillari hisoblanadi va texnik qo'mitalar ishlari hamda tashkilot yozishmalari ushbu tillarning birida olib boriladi.

ISOning kengashi qoshida standartlarning ayrim jihatlarini malakali tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlovchi bir necha maslahatchi qo'mitalar mavjud, inson salomatligini saqlash va tabiatni muhofaza qilish masalalariga qaratilgan.

Keyingi vaqtlarda barcha mamlakatlarda xalqaro standartlar talablari asosida

standartlashtirish ishlarini olib borish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday e'tibor ko'plab rivojlangan mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi mavjud 9600 standartning 2647 tasi ISO tashkiloti bilan hamkordir. Fransiyadagi 1099 ta standartdan 428 tasi belgilangan talablar bo'yicha ISO xalqaro standartlashtirish tashkilotining talablariga javob beradi.

Xalqaro standartlar quyidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi:

- xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha texnik qo'mitaning takliflarini ko'rib chiqish va ularni dasturga kiritish;

- ishchi loyihani maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan ishlash; kotibiat tomonidan loyihani texnik qo'mitalar, kichik texnik qo'mitalar va faol a'zolarga yuborish hamda texnik qo'mitaning xalqaro yig'ilishini o'tkazish;

- loyiha to'g'risidagi fikrlarni rasmiylashtirilgandan so'ng ularni ISOning Markaziy kotibiatiga (sekretariatiga) berish va loyihani TQ va KQlarga ovoz berish uchun yuborish;

- ovoz berilgandan so'ng loyihani qabul qilish;

Markaziy kotibiat tomonidan xalqaro standartni chop etish.

Birinchi bosqichda xalqaro standartlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kotibiat tomonidan barcha texnik qo'mitalarga standartni ishlab chiqish maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqligini bilish maqsadida yuboriladi. Agar texnik qo'mitalar va kichik qo'mitalar ushbu takliflar bo'yicha ijobiy fikrlar bildirishsa, u holda hujjatning ishchi loyihasini ishlashga kirishiladi

Ikkinchi bosqichda hujjatning ishchi loyihasi ko'p hollarda maxsus tashkil etilgan ishchi guruhlar tomonidan qayta ishlanadi. Ishchi loyihalar ma'lum bir davlat tomonidan ham texnik qo'mitalar, ham kichik qo'mitalarga ko'rib chiqish uchun yuborilishi mumkin. Ushbu ishchi loyiha umum kelishuvdan so'ng texnik qo'mita yig'ilishida yoki xatlar orqali ISOning Markaziy kotibiatiga xalqaro standartning loyihasi sifatida qayd etish uchun topshiriladi, unga maxsus tartib raqami (nomer) beriladi va bu tartib raqami xalqaro standart chop etilganga qadar o'zgartirilmaydi.

Uchinchi bosqichda loyiha kotibiat tomonidan texnik qo'mitalar, kichik qo'mitalar va faol a'zolarga yuboriladi hamda texnik qo'mitaning xalqaro yig'ilishi o'tkaziladi.

Albatta bir martadagi yig'ilishda loyiha bo'yicha yaxlit bir qarorga kelishish qiyin. SHuning uchun qo'mitaning bir necha yig'ilishlarini o'tkazishga to'g'ri keladi. Har bir yig'ilishdan so'ng hosil bo'lgan hujjat 1-, 2- va 3- loyiha deb nomlanadi. SHuning uchun ham xalqaro standartlarni ishlab chiqish muddatini qisqartirish maqsadida loyihalarning soni uchtdan ortiq bo'lmasligi belgilanib qo'yilgan.

To'rtinchi bosqichda loyiha to'g'risidagi fikrlarning ijobiyligiga eri shilgandan so'ng, ISO talabi bo'yicha rasmiylashtirilgan loyiha ISOning Markaziy kotibiatiga xalqaro standartning loyihasi sifatida qayd etilishi uchun topshiriladi va loyiha TQ va KQ a'zolariga ovoz berish uchun yuboriladi. Ushbu loyiha texnik qo'mita a'zolari ijobiy ovoz berganliklari to'g'risidagi hujjat bilan birgalikda Qo'mitalarga – ISO a'zolariga, ya'ni standartlashtirish bo'yicha milliy idoralar (organlar)ga jo'natiladi. Ishni tezlatish uchun ikkala jarayonni birgalikda qo'shib, bir vaqtning o'zida ovoz berish uchun yuborish ham mumkin.

Xalqaro standartlarni ishlab chiqish juda murakkab jarayon, shuning uchun ham ularni ishlab chiqish muddati o'rtacha 5-6 yilga teng, ayrim hollarda ularni ishlab chiqish hatto 10 yil va undan ortiq vaqt ham talab etadi.

ISO xalqaro standartlarni ishlab chiqishga doir butun asosiy faoliyatini uzining texnik qo'mitalari (ISO/TK) va kichik qo'mitalari (ISO TK/PK) orqali amalga oshiradi, ularning har biri muayyan soha bo'yicha ixtisoslashgan. Har bir texnik qo'mita uning ishini va ixtisoslashuvini aks ettiradigan tartib rakami va nom beradi. Masalan, ISO/TK 23 "Qishloq xo'jaligi traktorlari", ISO/TK 34 "Qishloq xo'jalik oziq-ovqat mahsulotlari" va boshqalar.

Texnik qo'mitaning ish sohasi juda katta va ko'p qirrali bo'lgan hollarda uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun qo'mita doirasida birmuncha tor sohadagi masalalarni xal qiladigan kichik qo'mitalar va ishchi guruxlari (IG) tashkil etiladi. Kichik qo'mitalar va ishchi guruhlari, odatda, cheklangan muddatga tashkil qilinadi va ko'yilgan vazifalar bajarilganidan keyin tarqatib yuboriladi.

Har bir texnik qo'mita kengash tomonidan ushbu qo'mitaning mazkur (TKning) kotibiyatini yuritish xoxishini bildirgan faol a'zolari hisobiga tayinlanadigan kotibiyatga ega bo'ladi. ISO ning texnik qo'mitalari ular olib

boradigan ish natijalaridan manfaatdor bo'lgan boshqa xalkaro va mintakaviy tashkilotlar bilan faol aloq'a olib boradi. Nizomga binoan uz mamlakatlarida eng nufuzli bo'lgan, nizomga va rusm- qoidalarga rioya qilish xoxishini bildirgan va rusum- qoidalarga ko'ra belgilangan tartibga binoan tashkilotga qabul qilingan standartlash bo'yicha milliy tashkilotlar ISO a'zolari bo'lishi mumkin.

Uzlarida standartlash bo'yicha maxsus tashkilotlar xali tashkil etilmagan, lekin standartlash bo'yicha xalkaro tashkilot ishida qatnashishni xoxlaydigan mamlakatlar uchun muxbir a'zolar muassasalari tashkil qilingan. Muxbir a'zolar TK ishida faol qatnashmaydi, ular ovoz berish xuquqiga ega emas, biroq TK da olib boriladigan ishlar xaqida to'liq axborotni olishadi. ISOning ko'pchilik muxbir a'zolari rivojlanaetgan mamlakatlardir.

Kengash qonunda bir necha maslahat ko'mitalari tashkil qilingan bo'lib, ular standartlashning ayrim jixatlarining malakali tarzda kirib chiqilishini ta'minlaydi, ular quyidagilardir.

1. Standartlashtirishning ilmiy prinsiplarini o'rganish bo'yicha Komitet-STAKO hisoblanadi, ISO/STAKO. Bu qo'mita standartlashtirish prinsiplari, uning samaradorligi, halkaro standartlarni qo'llash va boshqa ishlarni olib boradi.

2. Sertifikatsiya bo'yicha komitet (ISO/SERTIKO) – bu komitet mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarini o'rganadi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqadi. Komitetning faoliyatiga mamalakatlarning milliy sertifikatsiya tizimi, milliy va xalkaro sertifikatsiya qonunlariga asosan ular xavfsizlik, inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofoza qilish masalalariga karatilgan bo'lsa, uzaro tan olish va tavsiyalar ishlash masalalari bilan shug'ullanadi.

3. Axborotlashtirish qo'mitasi - INFKO, ISO/INFKO. Bu qo'mita standartlashtirish bo'yicha axborotlashtirish markazlarining ishlarini uyg'unlashtirish va koordinatsiyalashtirish masalalari bilan shug'ullanadi. Masalan, standartlarga va boshqa xujjatlarga avtomatik ishlovini tashkil etish uchun guruhlash va indeksatsiya masalalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi, xalkaro standartlarni abxorotlashtirish tizimlarida qo'llashni tashkil etadi va xokazolar.

4. Iste'mol masalalari qo'mitasi - KOPOLKO, ISO/KOPOLKO. Bu qo'mita

qo‘yidagi funksiyalarni bajaradi:

a) iste‘molchilarning milliy va xalkaro standartlashtirishda keng ishtiroq etishini ta‘minlash bo‘yicha tegishni tadbirlar o‘tkazadi;

b) standartlashtirish nuqtai nazaridan iste‘molchilarni axborot bilan ta‘minlash, ularning xaq- xuquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha ishlar olib boradi;

v) iste‘molchilarning xalk iste‘mol tovarlari bo‘yicha xalkaro standartlashtirish ishlarida qatnashishi bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

g) iste‘molchilar manfaati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha ISOning boshqa organlari bilan aloqalar olib boradi.

### **1.9.2. MEK tashkiloti va uning asosiy vazifalari.**

Xalkaro elektrotexnik komissiyasi – MEK 1906 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 45 dan ortiq mamlakatni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda MEKning a‘zolari bo‘lgan mamlakatlarda er qirrasining 80% aholisi yashaydi va 95% dunyodagi ishlab chiqarilayotgan elektr quvvatining iste‘molchisi hisoblanadi. MEK ingliz, fransuz va rus tillarida ish olib boradi. Uning 80 dan ortiq texnik qo‘mitalari mavjud, shulardan 4 tasi uy xo‘jaligi, elektr asbob-uskunalari (priborlari) va radioelektron apparatlari bo‘yicha qo‘mitalar hisoblanadi.

MEK xalkaro bozorda sotiladigan tovarlarning elektr xavfsizligi bo‘yicha standartlar ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Jumladan, hozirgi kunga qadar MEK tomonidan 1600dan ortiq standartlar ishlab chiqilgan.

MEK xalkaro standartlashtirish tashkiloti ISOdan so‘ng eng nufuzli xalkaro tashkilot hisoblanadi.

MEK standartlari milliy qo‘mitalar tomonidan qayta ishlanadi va standartlarni ishlab chiqish uchun milliy qo‘mitalar taklif kiritadilar. Standartlar loyihasini ishlash haqidagi oxirgi qaror texnik qo‘mitaning yig‘ilishida qabul qilindi. Undan so‘ng MEK standartlarini ishlab chiqish uchun ishchi guruhlar tuzadi va bularga har bir mamlakatning mutaxassislari kirishi mumkin. Ishchi guruhlar standart loyihasini ishlab chiqib, yig‘ilishda ko‘rib chiqadi va umum kelishuvdan so‘ng texnik qo‘mitaning kotibiatiga topshiradi. SHuning bilan birgalikda MEK standartining loyihasi sifatida

qandaydir bir mamlakatning milliy standarti ham qabul qilinishi mumkin.

Davlatlarning loyiha bo'yicha fikr - mulohazalari texnik qo'mitada ko'rib chiqiladi va fikr-mulohazalar ma'qul deb topilsa, u holda ular kotibiatga topshiriladi.

Davlat vakillarining kelishuvidan so'ng kotibiat loyihani ovoz berishga yuboradi.

Davlatlarning milliy qo'mitalari 6 oy mobaynida byulletenlarni to'ldirishib Markaziy byuroga jo'natishlari kerak, chunki kotibiat 6 oy o'tgandan so'ng hisob-kitob qiladi. Agar loyihaga ovoz beruvchilarning 1/5 qismi qarshi bo'lmasa, u holda loyiha qabul qilinadi.

### **1.9.3. MOZM tashkiloti va uning asosiy vazifalari.**

Yana bir standartlashtirish bo'yicha halkaro tashkilot - MOZM -Metrologiya qonuniyati bo'yicha xalqaro tashkilot (mejdunarodnaya organizatsiya zakonodatelnoy metrologii) deb yuritiladi. Bu xalqaro tashkilot 1955 yilda tashkil topgan edi.

MOZM ning faoliyatining asosiy yo'nalishi quyidagilarga qaratilgan:

a) MOZM ga a'zo mamlakatlar uchun o'lchov vositalari metrologik tavsifining yagona birligini ta'minlash;

b) tekshiruv jixozlarini, etalon, namuna, ishchi o'lchov vositalarining uygunligini ta'minlash;

v) xalqaro masshtabda o'lchashning yagona birligini ta'minlash;

g) metrologik xizmatining optimal shakllarini ishlab chiqish;

d) rivojlanayotgan mamalakatlarga metrologik xizmatni tashkil etish va uyushtirish borasida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirish va texnik vositalar bilan jixozlashda yordam ko'rsatish;

j) metrologiya sohasida har xil darajadagi kvalifikatsiya berishda kadrlar tayyorlashning yagona prinsipini o'rnatish va boshqalar.

MOZM ning raxbarlik oliy organi metrologiya bo'yicha Xalkaro konferensiya hisoblanadi va u 4 yilda 1 marta chaqiriladi. Konferensiya va komitetlar ishi Xalkaro byuro tomonidan amalga oshiriladi. Byuroning direktor, direktor o'rinbosalari, injenerlari va xizmatchilari mavjud. Byuro Parijda joylashgan.

## **1.10. Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkilotining asosiy vazifalari.**

Xuddi shunday tashkilotlardan yana biri 1957 yilda tashkil etilgan Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti – hisoblanadi.

1976 yilda sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkilotining yangi ustavi qabul qilindi. Bu ustavda ko'rsatilishicha tashkilotning vazifasi mahsulotlarning sifatini oshirish maqsadida sifatni boshqarishning amaliy usublari va nazariy prinsiplarini har tomonlama takomillashtirish, targ'ibot qilish va madad berishdan iboratdir. Xozirgi kunda Evropa, Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarining 50 ga yaqini shu tashkilot a'zosi hisoblanadi.

Tovarlarni sifatini nazorat qilish Evropa tashkiloti o'zining birinchi konferensiyada (1957 y.) o'z nizomini tasdiqladi. Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti ning har yili konferensiya o'tkazishdan asosiy maqsadi mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha tajriba almashinish sifatning nazariy va amaliy masalalarini hal qilish bu sohadagi so'ngi yutuqlarni targ'ibot qilish sifatning aktual muammolari bo'yicha fikr almashish yangi muammolarni izlab topish va ko'pgina boshqa sifatga taaluqli masalalarni ko'rib chiqishdir. 1992 yili Evropa iqtisodiy uyushmasi doirasida umum Evropa bozori tashkil qilinishi bilan sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkilotining rahbariy hujjatlari qaytadan ko'rib chiqildi. Sifat bo'yicha Evropa tashkilotining hozirgi vaqtdagi asos bo'luvchi hujjatlari -tashkilotning nizomi ish tartibi qoidalari, qo'mita va seksiyalari uchun qoidalar hamda besh yilga mo'ljallangan asosiy masalalar bo'yicha yo'nalish rejalari mavjuddir. Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti tarkibida 26 ta to'liq huquqli a'zolari hamda 37 ta alohida muhbir a'zolari va 10 ta fahriy a'zolarga ega. Hamkor tashkilotlarning 11 tasi bilan o'z bitimlarga egadir.

Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti maxsus bitimlari asosida sifat bo'yicha Argentina, Braziliya, Izrail, Kolumbiya, JAR, YAngi Zelandiya, AKSH CHili, Janubiy Koreya va YAponiyalarning mintakaviy, milliy va kasaba uyushmalari bilan hamdo'stlik aloqalari o'rnatilgan. SNETning Oliy lavozimi, uning prezidenti bo'lib, u har ikki yil muddatga saylanadi. Asosiy ma'muriy idoralari -



Kengash Ijroiya qo‘mitasi va Sekretariatdir.

Sifat nazorati bo‘yicha Evropa tashkilotining ish yuritish rasmiy tillari – ingliz va fransuz tillaridir. Bu tashkilot o‘zining ilmiy-texnikaviy jurnali Kvalitiga ega bo‘lib, u yiliga 4 marta chop etiladi. Hozirgi vaqtda sifat nazorati bo‘yicha Evropa tashkilotining 12 ta texnikaviy qo‘mitalari mavjud bo‘lib, ular ishonchlilik statistik usullar, atamalar, iste‘mol masalalari bo‘yicha standartlashtirish, sifatni boshqarish, kadrlar tayyorlash, funksional baholashni tahlil qilish, sifat sohasida siyosat olib borish, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarining nazoroti, EHMning metrologik matematik ta‘minlashda sifat to‘garaklari, mahsulot sifatini metrologik ta‘minoti bilan shug‘ullanadi. Undan tashqari 7 ta turli seksiyalari mavjuddir: avtomobil, energetika, qurilish, oziq-ovqat farmasevtikasi borasida sifat masalalari bo‘yicha maslahatlar ko‘rsatiladi.

Sifat muammosi va uni nazorati juda keng ma‘noda bo‘lib, u xo‘jalik faoliyatining hamma sohalarini o‘z ichiga oladi. Yuqori sifat deganda mehnatni va moddiy resurslarni tejash eksport imkoniyatlarini ko‘paytirish pirovard natijada esa jamiyat ehtiyojlarini yanada to‘laroq qondirish ma‘nosini tushunamiz. Shu boisdan ham boshqarishning butun mehanizmi, moddiy rag‘batlantirishning butun sistemasi, injener va konstruktorlarning kuch g‘ayratlari, ishchilarning mahoratini mahsulot sifatini oshirishga qaratish zarur.

Sanoatdagi ilg‘or tajriba hamda ilmiy ma‘lumotlarning kengayishi chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish uchun kurashning navbatdagi, butunlay yangi bosqich uchun shart-sharoitlar mavjudligini ko‘rsatmokda. Mahsulot sifatini muammosini hal etish yana shuning uchun murakkabki, u kompleks, ya‘ni bir vaqtning o‘zida ham ilmiy, ham texnikaviy, ham iqtisodiy, ham sotsial muammodir.

Ma‘lumki, mahsulot sifati uni yaratish va iste‘mol qilishning barcha bosqichlarida, ilmiy tadqiqot, loyiha-konstruktorliq texnologik ish olib borish jarayonida undan foydalanish ommaviy joriy qilishda shakllanadi. Mamlakatimizda hamda chet-elda mahsulot sifatini boshqarishning ba‘zi forma va metodlari to‘g‘risida gapirishdan oldin mahsulot sifati va mehnat sifati tushunchalarini ko‘rib chiqaylik. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati jamiyat ehtiyojlarini

qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarini yaratishning uzluksiz jarayonidan iboratdir. Ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish faoliyatining buyumlashgan natijasi sifatida qaraladigan barcha moddiy boyliklar mahsulot deb ataladi.

Mahsulot tushunchasi umumlashtiruvchi bo'lib, ham buyum ham mahsulotni o'z ichiga oladi. Sifat masalasi xo'jalik faoliyatining hamma jihatlarini qamrab olgan. Yuqori sifat - bu mehnat va moddiy resurslarni tejash eksport imkoniyatlarini oshirish pirovard natijada esa jamiyat ehtiyojlarini yaxshiroq yanada to'laroq qondirish demakdir. Mamlakat oldida turgan xilma xil iqtisodiy va sotsial vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal etish uchun mehnat unumdorligini jadal o'stirishdan, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligining keskin oshirishdan boshqa yo'l yo'q. Samaradorlik va sifatni oshirish faqat texnikaviy va sotsial vazifa bo'lib qolmasdan, balki ideologik vazifa hamdir. SHuning uchun har bir xodimning, har bir oilaning turmushini yanada yaxshilash uchun, butun xalq farovonligini oshirish uchun, shunchalik ko'p imkoniyatlar yuzaga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tovarni bozordagi talabi va taklifiga binoan unga baho beriladi. Bozor talabiga javob bermasa, bu tovarlarni xalq xo'jaligida ishlab chiqarilmaydi. Shuning uchun hamma tovarlar standart talabiga javob berishi kerak. SHundan keyin ular ma'lum iste'mol qiymatiga ega bo'ladilar. Tovar iste'mol qiymatiga ega bulmasa, nostandart, yaroqsiz mahsulot bo'ladi.

GOST 15 467-79 ( mahsulotni sifat ko'rsatkichini boshqarish) asosiy terminlar va ularni mohiyati shu standart ko'rsatkichida. Har qanday mahsulot ma'lum iste'mol qiymatiga ega bo'ladi. Standart talablariga ko'ra navi, turi va boshqa biologik xususiyatiga qarab faqat iste'moliga mo'ljallangan qismiga standart talablar qo'yilib asosiy turlarga guruhlanib, bu asosiy talablarni chegaralanishi bu tovarlarni o'stiriladigan region, iqlim sharoitiga bog'liqligi ko'zda tutilgan bo'ladi. Bu ko'rsatkichlarni differsnsasiya uchun Standart ko'rsatkichlariga loiq bo'lgan har qanday mahsulot uni ishlab chiqarishga ularni sifatiga iste'mol ko'rsatkichlarini mahsulot qiymatiga qarab quyidagi guruhlarga bulinadi:

- ishlab chiqarish tovarlar standart talabga to'lik javob beradi. Bu mahsulotlarni iste'mol ko'rsatmalari yuqori baholanadi;

- ishlab chiqarilgan tovarlar ba'zi bir ko'rsatkichlar bilan standart talablarga javob bermaydi. Ularni ishlab chiqaruvchilar kamchiliklarini to'g'rilash imkoniyatiga ega bo'lsa, sifat ko'rsatkichlar tekshirilib, bu tovarlarni iste'mol qilsa bo'ladigan bo'lsa, sotishga ruhsat beriladi;

- mutlaqo standart talablariga javob bermaydi va bu tovarlar iste'molga yaramaydi.

Texnikaviy qo'mitalari va tarmoq seksiyalari sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti to'liq huquqli vakillaridan tashkil topadi. Ular o'z navbatida sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkilotining a'zo mamlakatlarining milliy tajribalarga suyanadi va xalqaro miqiyosda mahsulotning sifatini ta'minlaydigan tashkilotlarning hujjatlaridan foydalanadi.

Tovarlarni sifatini nazorat qilish Evropa tashkilotining Prezidenti har ikki yil muddatga saylanadi:

- 26 ta to'liq huquqli a'zolar
- 37 ta muhbir a'zolar
- 10 ta faxriy a'zolar

Asosiy ma'muriy idoralari

- Kengash
- Ijroiya qo'mitasi
- Sekretariat

**Tayanch iboralar:** Standart, standartlashtirish, korxonalar standarti, milliy standart, standart toifalari, texnik shartlar, xalqaro standartlar, nazorat usullari (sinovlar, tahlil qilish, o'lchashlar, tavsiflar) standartlari, atamalar va ta'riflar standarti, tamg'alash (markirovka) standarti, belgilar standarti, nomenklatura standarti, standart loyihasi, xalqaro standartlashtirish tashkilotlari, ISO/STAKO, ISO/SERTIKO, ISO/INFKO, ISO/KOPOLKO, xalqaro elektrotexnik komissiyasi – MEK, MOZM tashkiloti, Sifat nazorati bo'yicha Evropa tashkiloti.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Standartlashtirish ob'ektlariga nimalar kiradi?
2. Respublika standartlarining ob'ektlari nimalar hisoblanadi?
3. Korxonalar standartlarining ob'ektlari bo'lib nimalar hisoblanadi?
4. Standartlashtirish sub'ektlari deganda nimani tushunasiz?
5. Kompleks standartlash nima?
6. Standartlashtirish prinsiplarining amaliy ahamiyati nimalardan iborat?
7. Milliy standartlash ob'ektlariga nimalar kiradi?
8. Standartlarning toifalari deganda nimani tushunasiz?
9. Respublikamizda qaysi standart toifalari qo'llanilmoqda?
10. Standartlarning turlari toifalaridan qanday farq qiladi?
11. Standartlarning qaysi turlarini bilasiz?
12. Texnik shartlar standartida nimalar ko'rsatiladi?
13. Standartlarni tasniflang va ularning mazmunini tushuntiring.
14. Standartlarni ishlab chiqish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
15. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti nechanchi yilda tashkil etilgan?
16. ISOning asosiy maqsadi nimadan iborat?
17. ISO Kengashi nima vazifalarni bajaradi?
18. ISOning tashkiliy tuzilishini gapirib bering.
19. ISOning texnik qo'mitalari qanday vazifalarni bajaradi?
20. Xalqaro standartlarni ishlab chiqish bosqichlarini tushuntiring.
21. ISO standartlari qanday tasdiqlanadi?
22. MEK qachon tashkil etilgan?
23. MEKning standartlashtirish borasidagi vazifalarini ayting.
24. EOKK qachon tashkil etilgan?
25. EOKKning asosiy vazifalarini ayting?

## II- BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING METROLOGIYA XIZMATI

### 2.1. Metrologiyaning rivojlanish bosqichlari va uning ilmiy- texnikaviy taraqqiyotga ta’siri

Metrologiya fan sifatida o‘lchashlar, ularga bog‘liq va tegishli bo‘lgan qator masalalarni o‘z ichiga oladi. Metrologiya aslida yunonchadan olingan bo‘lib, o‘lchash, o‘lcham, nutq, mantiq, ilm yoki fan ma’nolarini bildiradi. Umumiy tushunchasini oladigan bo‘lsak, metrologiya - o‘lchashlar haqidagi fan. Inson aqlidroki, zakovati bilan o‘rganayotgan, shakllantirayotgan hamda rivojlantirgan qaysi fanni, uning yo‘nalishini olmaylik, albatta o‘lchashlarga, ularning turli usullariga, o‘zaro bog‘lanishlariga duch kelamiz. Bu o‘lchash usullari va vositalari yordamida ularning birliligini, yagona o‘lchashni talab etilgan aniqlikda ta’minlash metrologiya orqaligina amalga oshiriladi.

O‘lchashlar haqidagi fanning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. Ushbu rivojlanish davrini uning mazmuni va mohiyatiga asoslangan holda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:<sup>5</sup>

1. Antik rivojlanish davri.
2. Stixiyali rivojlanish davri.
3. Metrik tizimning joriy etilishi.
4. Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri.
5. O‘zbekistonning mustaqillik davridagi rivojlanish.

**Antik rivojlanish davri.** O‘lchashlarga bo‘lgan ehtiyoj qadim zamonlarda yuzaga kelgan. «O‘lchash» atamasining tom ma’nosi bo‘yicha tahlil etadigan bo‘lsak, qadimgi davrda insoniyat asosan «organoleptik o‘lchashlar» - ya’ni, o‘zining his etish a’zolari orqali u yoki bu fizikaviy xossa bo‘yicha taxminiy ma’lumotlar olgan. Bunda mana shu his etish organlari o‘lchash vositasi vazifalarini bajargan. Garchand bu kabi o‘lchashlarda aniq bir qiymat olinmasa ham, har bil o‘lchashda, aniqrog‘i baholashda

---

<sup>5</sup> Ismatullaev P.R., Maqsudov A.N., Abdullaev A.X., ва бошқалар “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish”. Toshkent, «O‘zbekiston», 2001.

muayyan bir o'lchovga nisbatan solishtirish amalga oshirilgan. Dastlab, solishtirish o'lchovi moddiy bo'lmagan, balki insonning o'z tajribasi, zakovati va atrof-muhitni bilish darajasiga qarab individual tarzda belgilangan. Keyinchalik ish va ozuqa topish qurollari amalda qo'llana borgan sari solishtirish o'lchovlari moddiylasha borgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalarni, er maydonlarining yuzalarini, jismlarning o'lchamlari va massalarini, vaqtni va hokazolarni bujarayonlarning yuzaga kelish sabablarini, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan. Insoniyat rivojlana borib, ish qurollarini va yashash tarzini yanada takomillashtira borgan. Yashash va mehnat sharoitlarini yanada qulaylashtirish harakatida bo'lgan. Moddiy bo'lmagan o'lchovlar bilan ishlash noqulayligi, va individualligi tufayli, uni moddiylashtirish yo'llarini axtara borgan. SHu asnoda turli o'lchash birliklari paydo bo'lgan. Eng qadimgi o'lchash birliklari – antropometrik. U insonning muayyan a'zolariga muvofiqlikka yoki moyillikka asoslangan holda kelib chiqqan. Masalan: **qarich** - qo'l kafti yoyilgan holda bosh barmoq va jimjiloq orasidagi masofa, **quloch** - qo'llar ikki tomonga yoyilganda orasidagi masofa, **qadam** – balog'at yoshidagi odamning sokin odimlashidagi yurish birligi, **tirsak** - kaft va tirsak orasidagi masofa, **chaqirim** - ochiq dala sharoitida birining tovushini ikkinchisi eshita olishi mumkin bo'lgan masofa, **ladon**- bosh barmoqni hisobga olmaganda qolgan to'rttasining kengligi; **fut**-oyoq tagining uzunligi; **pyad**-yozilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofa, va hokazolar.

Metrologiyaning tarixida bu kabi birliklarni joriy etishda yirik fan yoki davlat arboblarning antropometrik o'lchamlarini asos qilib olish hollari ham uchraydi. Masalan, ingliz qiroli Genrix I (12-asrning boshi) **yard** o'lchash birligini (□91,44 sm) joriy etgan. Bunda namunaviy o'lchov sifatida qirolning burni uchidan oldinga cho'zilgan qo'lning o'rtancha barmog'i uchiga bo'lgan masofa olingan. Antropometrik o'lchash birliklari bilan bir vaqtda tabiiy o'lchash birliklari ham paydo bo'la boshlagan. Bu birliklar sifatida tabiatdagi ba'zi doimiy, o'zgarmas hisoblangan ob'ektlarning hususiyatlari olingan. Masalan, turli qimmatbaho ma'nosini anglatuvchi «**karat**», «bug'doy doni» ma'nosini bildiruvchi «**gran**» shular

jumlasidandir. Dastlabki tabiiy o'lovlarining yana bir namoyondasi, hamma erda ishlatiladigan vaqt o'lovlaridir. Munajimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida qadimgi Vavilonda vaqt birligi sifatida yil, oy, soat tushunchalari ishlatilgan. Keyinchalik urning o'z o'qi atrofida to'la aylanishiga ketgan vaqtning  $1/86400$  qismi sekund nomini olgan. Qadimgi Vavilonliklar bizning eramizgacha bo'lgan II asrdayoq vaqtni Minalarda o'lchashgan. Mina taxminan ikki astronomik soat vaqt oralig'iga teng bo'lib, bu vaqt mobaynida Vavilonda rasm bo'lgan suv soatidan massasi taxminan 500 grammga teng bo'lgan «mina suv» oqib ketgan. Keyinchalik «mina» o'zgarib, biz o'rganib qolgan minutga aylangan. Keyinchalik tabiiy «o'lovlar» turmushda keng qo'llana boshlandi.

SHunday o'lovlardan biri urning o'z o'qi atrofida aylanishini vaqt birligi sifatida ishlatilishidir. Jamiyatning rivojlanishi, savdo va dengiz sayohatining rivojlanishiga, sanoatning paydo bo'lishiga, fanning rivojlanishiga olib kelgan bo'lsa, shu bilan birga maxsus texnika va o'lchash vositalarini bunyod etishga ham sababchi bo'ldi. Insoniyat taraqqiyot rivojlanishining ilk davrlaridanoq «moddiy» o'lchashlar va o'lchash birliklarining katta ahamiyatini tushunib etishganlar.

**Stixiyali rivojlanish davri.** Metrologiya xizmati va metrologik ta'minot masalalarining dastlabki kurtaklari turli davlatlarda turlicha tarzda vujudga kela boshlagan. Masalan, rus knyazi Svyatoslav YAroslavich belidagi oltin kamaridan uzunlikning namunaviy o'lchash vositasi sifatida foydalangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra knyaz davriy ravishda bozor rastalarini oralab yurib, turli mato sotuvchilarining uzunlik o'lovlarini kamari bilan taqqoslab turgan. Agar ular orasidagi tafovut belgilanganidan ortib ketsa, sotuvchini shafqatsiz jazolagan. Italiyada ham bu borada muayyan tartib belgilangan edi (o'rta asrlarda). Cherkov va butxonalarda aniq sondagi marvarid 12 donalari saqlanib, ulardan sochiluvchan (dispers) moddalarning hajm va massa birliklarini hosil qilishda foydalanganlar. Markaziy Osiyoda ham o'lovlar va ularning turg'unligini saqlash, o'lchash qoidalariga qat'iy rioya etish masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Aksariyat hollarda buning nazorati eng yuqori amaldorlar tomonidan olib borilgan. Masalan, islom ta'limotida to'g'ri o'lchash, ya'ni haridor haqini urib qolmaslik (buni hozirda

ham «tarozidan urib qolish» deyiladi) masalalariga juda qattiq qaralgan. Bu borada xalqimiz manaviyatiga singdirilgan «haridorning haqi etti pushtingga uradi», «tarozidan urib qoluvchining joyi do‘zahning eng to‘rida bo‘ladi», «haridor haqiga xiyonat qiluvchi ollohning birinchi dushmanlaridandir» kabi iboralar bu ta’limotning isbotidir. Tarixiy yozishmalarda davlatlar orasida urushlarning kelib chiqishlarida ba’zan o‘lchashlardagi kelishmovchilik ham sabab bo‘lganligi kabi ma’lumotlar ham keltirilgan. Garchand, o‘lchashlar nazariyasining, bundagi yondoshuvlarning turli davlatlardagi rivojlanishi turlicha uslub va usullarda, muayyan ma’noda stixiyali tarzda bo‘lgan bo‘lsada, barcha hollarda quyidagi umumiylik prinsiplari saqlanib qolgan:

- o‘lchovning o‘z xossalarini uzoq muddat saqlab qolishi;
- o‘lchov qiymatining takroriy o‘lchashlarda o‘zgarmasligi (doimiyligi);
- o‘lchanayotgan kattalikning turli qiymatlarini hosil qilish imkoniyatini mavjud bo‘lishi.

Bu davrdagi o‘lchashlarning asosiy kamchiligi sifatida o‘lchov birliklarining o‘zaro mutanosibligi bo‘lmaganligi hamda asosiy kattaliklarning birliklarini bir-biriga bog‘liq emasligini ko‘rsatish mumkin.

**Metrik tizimning joriy etilishi.** Vaqt o‘tishi bilan savdo-sotiq va o‘zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi mobaynida o‘lchovlarga aniqlik kiritish, yangilarini hosil qilish, o‘zaro solishtirish va qiyoslash usullari shakllanib, o‘nlab yangi va mukammalroq o‘lchash birliklari hosil bo‘la boshlagan. Bu birliklarning o‘zaro bog‘liqligi masalalari esa tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. SHu bois olimlar bir asosiy kattalikning o‘lchash birligini boshqa asosiy kattalikning o‘lchash birligi bilan bog‘liqligini ta’minlash ustida bosh qotira borganlar. Bunda yana bir talab - kattalikning turli o‘lchovlarining qiymatlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik muayyanqonuniyat asosida bo‘lishini ta’minlash lozim bo‘lgan. Uzoq tadqiqotlardan so‘ng olimlar qadimgi Bobil davlatida qo‘llanilgan «o‘nlik tizimi»ga qaytishgan. Aynan shu tizim asosida metrik tizim ta’ sis etilgan. Metrik tizim 1875 yil 20 mayda Parijda 20 ta mamlakatlar vakillarining konferensiyasida qabul qilingan va Metrik Konvensiyasi nomini olgan. Metrik Konvensiya metrologiya bo‘yicha ilmiy



faoliyat ko'rsatuvchi birinchi xalqaro kelishuv hisoblanadi. Konvensiya metrik etalonlarni saqlash va tekshirish uchun ilmiy muassasa sifatida o'lchovlar va tarozilar xalqaro byurosini ham ta'sis etadi. Shu asnoda yuqoridagi talablarning to'liq ta'minlanishiga erishilgan, ya'ni kattalikning turli qiymatlari o'zaro o'nga karrali bog'lanishda bo'lgan bo'lsa, bir nechta asosiy kattaliklarning birliklari orasida o'zaro bog'lanishga ham erishilgan (Er meridianining qirq milliondan bir ulushi bo'yicha - «**metr**», bir kub detsimetr suvning temperaturasi 40<sup>0</sup>C bo'lgandagi massasi - «**kilogramm**» va **hokazolar**).

Fan va texnikaning rivojlanishi har xil kattaliklarning o'lchamlarini muayyan o'lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi. Bunday faoliyat jarayoni va rivojlanishi davomida o'lchashlar haqidagi fan, ya'ni metrologiya yuzaga keldi.

Rossiyada **o'lchovlarni metrik tizimi** 1899 yil 4 iyun kuni qonun bilan ixtiyoriy tartibda qo'llanishga, majburiy tartibda esa Rossiya SNK 14.09.1918 y. da chop etilgan dekretiga muvofiq qo'llanishga qabul qilingan. O'rta Osiyoda o'lchovlarning metrik tizimi 1923 yil 18 aprel Turkiston Respublikasi SNK qarori bo'yicha "O'lchovlar va tarozilar to'g'risida Nizom" tasdiqlangan va ichki savdoni yo'lga qo'yish bo'yicha qo'mita huzurida o'lchovlar va tarozilarning Turkiston byurosi tuzilgandan so'ng boshlangan.

**Metrologiya xizmatlarining integratsiyalashish davri.** XX asrdagi ilm-fan va texnikaning, shu jumladan davlatlar orasidagi iqtisodiy munosabatlarning shiddatli tushdagi rivojlanishi metrologiyaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunday asosiy maqsadlardan biri - o'lchash birliklarining turli tumanligiga barham berish, umumiy qabul qilingan o'lchash birliklarini joriy etish, mahsulotning sifatini nazorat etishda umumiy qoidalarni amalga oshirish hisoblangan. SHu asnoda oldingi asrning o'rtalarida asosiy iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar o'rtasida SGS va MKGSS tizimlari joriy etildi. Uning mantiqiy yakuni sifatida 1960 yil o'lchovlar va og'irliklarning XI Bosh konferensiyasida birliklarning yagona xalqaro birliklar tizimi (SI) joriy etildi. Bizning mamlakatimizda ushbu tizim 1982 yilning 1 yanvaridan boshlab GOST 8.417-81 asosida joriy etilgan. Hozirda asosan SI va SGS tizimlari amalda qo'llansada, birinchisi ikkinchisini tobora siqib chiqarmoqda. Buning asosiy

sababi, bu tizimdan deyarli barcha davlatlarda foydalanilishi va uning qator qulayliklarga va afzalliklarga egaligi ekanligi:

- universalligi, ya'ni ilm-fan va texnikaning barcha sohalarini qamrab olganligi;

- o'lchashlarning barcha turlari va sohalarini birxillashtirish imkoniyati;

- kattaliklarning kogerentligi;

- birliklarni yuqori aniqlikda hosil qilish mumkinligi;

- fizika, kimyo va boshqa shu kabi fanlarda qo'llanadigan formulalarni sodda shaklda ifodalash mumkinligi;

- o'z nomlariga ega bo'lgan karrali va ulushli birliklarni hosil qilishning yagona tizimda bo'lishi;

- o'kitish jarayonlarini yuqori didaktikligini ta'minlash mumkinligi (ortiqcha va tizimdan tashqari bo'lgan birliklarni o'rganish ehtiyoji yo'qligi);

- davlatlararo ilmiy-texnika va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda umumiy echimlarni olishda qulay imkoniyatlar mavjudligi.

**O'zbekistonning mustaqillik davridagi rivojlanish.** Hozirda metrologiya sohasi yanada tez rivojlanmoqda chunki sanoatning rivojlanishi, hozirgi zamon talablarining bajarilishi nazorat-o'lchash asboblariga bog'liqdir. Bu esa O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. Chunki sobiq ittifoq davrida O'zbekistonga asosan hom-ashyo yaratishga asoslangan davlat sifatida qaralar edi. Bundan 15-

20 yil muqaddam respublikamizda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 70-80 foizi hom-ashyo (asosan qishloq xo'jalik) mahsulotlari bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib YAIMning tarkibida turli xizmat turlari, iste'molga tayyor sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rin olgan. Respublikamizning eksport salohiyati salmoqli ortishiga erishildi. Mamlakatimiz o'z avtosanoatiga, energetikasiga, kommunikatsiyasiga ega bo'ldi.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining (ISO) to'la huquqli a'zosi sifatida qabul qilindi. Mustaqillik yillarida, qisqa davr ichida mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning sifati va xavfsizligini o'lchash vositalari, o'lchash uslubiyatlari,

malakali mutaxassislar, bir soʻz bilan aytganda metrologik faoliyat talablarini amalga oshiradigan Metrologiya boʻyicha Milliy idora sifatida dastlab Oʻzbekiston Respublikasi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi “Oʻzdavstandart” (1992), keyinchalik esa “Oʻzstandart” agentligi (2002) tashkil etildi. SHu bois barcha Oʻlchashlar birligini taʼminlash davlat tizimi (OʻBTDT) ham yaratildi. Bu tizim milliy qonunchilik talablari bilan bir qatorda Metrologiya boʻyicha xalqaro va regional tashkilotlar tartib qoidalari asosida tashkil etildi. SHunday qilib boshqa davlatlar bilan bir qatorda oʻzbek metrologiyasi turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarini oʻtib, shakllandi, rivoj topa boshladi va hozirda ham takomillashib rivojlanib kelmoqda. Bu sohani rivojiga, akademiklardan: M.Z.Hamidxonov, D.A.Abdullaev, N.R.YUsupbekov, V.Q.Qobilov T.D. Rajabov, professorlardan: O.A.Azimov, R.K.Azimov, M.F.Zaripov, SH.M.Gʻulomov, X.Z.Igamberdiev, P.R.Ismatullaev, B.I.Muhamedov, O.SH.Xakimov va koʻplab fan nomzodlari, olimlar, tajribali metrologlar oʻzbek metrologiyasining rivojiga katta xissa qoʻshmoqdalar.

Bu boradagi yana bir muhim ahamiyatga molik boʻlgan ijobiy yangilik sifatida respublikamizda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida milliy kadrlar tayyorlash tizimini shakllanganligini koʻrsatib oʻtish lozim. Agar, sobiq ittifoq davrida mazkur sohadagi mutaxassislar asosan Rossiya oʻquv muassasalarida tayyorlangan boʻlsa, endilikda oʻrta va oliy maʼlumotli mutaxassislar mahalliy taʼlim muassasalarida tayyorlanishi yoʻlga qoʻyildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ushbu masalaga jiddiylik bilan kirishildi va 1992 yilda prof. P.R.Ismatullaevning tashabbusi bilan mazkur sohada mutaxassis tayyorlovchi kafedra **Toshkent Davlat texnika universiteti tarkibida tashkil etilgan.** Mazkur kafedra bazasida har yili oʻnlab standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida oliy maʼlumotli bakalavr va magistr akademik darajasidagi yosh mutaxassislar hayotga yoʻllanma olmoqdalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirishning qariyb 40 dan ziyod yoʻnalishlari boʻyicha kadrlarni qayta tayyorlash “Oʻzstandart” agentligi qoshidagi “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish” ilmiy-tadqiqot institutida faollik bilan olib borilmoqda. Hozirda oʻzbek metrologiya xizmatining

oldida turgan asosiy vazifalardan biri - O'zbekistonning Xalqaro savdo tashkilotiga (XST) a'zo bo'lishi borasida sohaga oid barcha tadbirlarni amalga oshirishdir. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti o'lchash madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu bog'liqlik esa o'lchashlar, o'lchash vositalari va o'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining uzluksiz tarzda takomillashuvi jarayonini tashkil etadi. rivojlanish (taraqqiyoti) bu ularning sezgi organlari va ma'lum darajadagi tajribalari orqali oddiy o'lchashdan to o'lchashlarning ilmiy asoslarigacha bosib o'tilgan yo'ldan iboratdir. Bu yo'l esa zamonaviy metrologiyaning eng asosiy: ya'ni o'lchashlar haqidagi fanni, uning usullari va vositalari yordamida o'lchashlar birliligini va uni talab etiladigan aniqlikda ta'minlash yo'llarini o'rgatadigan fanni tashkil etadi. Metrologiyaning, ya'ni o'lchashlarning mohiyati, ahamiyati fan-texnikaning rivojlanishida beqiyos bo'lib va u bilan bog'liq muammolarni echishda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

O'lchash sohasida keng ko'lamda olib borilayotgan ishlar uning fan-texnikadagi va kishilik jamiyatining hayotdagi roli nihoyatda yuqori ekanligidan dalolat beradi. Va, albatta jamiyatning taraqqiyoti o'lchashlarning holati va imkoniyatlari va uning metrologik ta'minoti bilan belgilanadi. O'lchashlar birliligini ta'minlash metrologiyaning eng dolzarb (ustivor) masalalaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham o'lchashlar natijasida olingan har qanday o'lchash informatsiyasi (o'lchashlar qanday sharoitda, qanday vaqtda, qaerda o'tkazilishidan qat'iy nazar) talab etiladigan aniqlikda o'lchash birliligini ta'minlashdek talabga javob bersagina uning ahamiyati va foydasi ko'proq (yuqori) bo'ladi. Ko'pgina olimlar o'lchashlarni ahamiyatini yuqori baholaganlar. Masalan, buyuk rus olimi D.M. Mendeleev bu haqida shunday degan edi; "Har qanday fan o'lchashdan boshlanadi, aniq fanni o'lchovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi". U. Kelvin esa o'lchash to'g'risida shunday degan; "Har qanday narsa uni qay darajada o'lchanish darajasi orqali aniqlanadi". Filofoflarning talqinicha fizikaviy xossalar, jarayonlarni tekshirish, o'rganishda eng asosiy yo'l (metod) o'lchashlar hisoblanadi. Texnik aspektda esa o'lchashlarning ahamiyati texnologik jarayonlarni boshqarish, mahsulotning yuqori sifatligini ta'minlash, ob'ektni boshqarish, nazorat qilish

bo'yicha informatsiya hosil qilinishi bilan belgilanadi. Endi esa o'lchashlarni fanda tutgan ahamiyati (roli) to'g'risida to'xtalamiz. O'lchashlar haqidagi fanning tarixi minglab yillarni tashkil etadi. Xalq xo'jaligida, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan murakkab tizimlarning yaratilishi o'z navbatida xususan metrologiya va o'lchashlar texnikasining har xil sohalarini rivojlanishi istiqbolini ochib bermoqda. O'lchash haqidagi fanning, ya'ni metrologiyaning rivojlanishi o'z navbatida universitetimizda informatsion o'lchash texnikasi va texnologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini avtomatlashtirish bo'yicha nazariy metrologiya bo'yicha yangi o'quv mutaxassisliklari yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa albatta, deyarli hamma yo'nalish mutaxassislarning metrologiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yuqori bosqichga ko'tarishni taqazo etadi. Shu sababli ilgari qo'llanib kelayotgan kam quvvatli, inertli asboblardan sekin-asta juda tezkor, yuqori unumdorli asboblardan bilan almashtirilmoqdaki, bu o'lchash amalini bajarayotgan shaxslarning faoliyatini va albatta tabiiyki ularga qo'yiladigan talabni ham o'zgartirmoqda. Hozirgi kunda o'lchash jarayonlarini avtomatlashtirilishi, kompyuterlashtirilishi va zamonaviy texnologiyalarning ishlatilishiga faqat programmalashtirilgan tizimga tayangan holda erishish mumkin. Zamonaviy metrologiyaning rivojlanishida murakkab empirik (tanlash, ilg'ash) metodlarini, ehtimollik nazariyasiga tayangan holda statistik metodlarini qo'llanilishi katta o'rin tutmoqdaki, bu metrologiyaning ilmiy asoslarini tashkil etadi. Ilmiy tadqiqot o'tkazishda yoki ishlab chiqarishda biror o'lchashni amalga oshirish uchun, avvalo:


1) nima o'lchanishi kerak yoki o'lchash ob'ekti aniqlanishi kerak va u ob'ekt qanday fizik kattaliklar orqali harakterlanadi;

2) qanday vosita yordamida o'lchanadi, ya'ni talab etiladigan natijaga erishish uchun eng optimal variantli o'lchash vositasini ishlatish zarur va nihoyat;

3) o'lchash qanday aniqlikda olib borilishi zarur.

Boshqacha qilib aytganda, dastavval o'lchash masalasi aniq belgilanib olinishi kerak. O'lchashlar sanoatning qaysi sohasida elektro - energetikadami, mexanika sohasidami, tibbiyot sohasidami, ilmiy izlanishdami va xokazo kattaliklarni o'lchash aniqligiga qo'yiladigan talablarni umumlashgan holda ma'lumotlar orqali aniqlanadi.

## 2.1. – rasm. Metrologiyaning asosiy faoliyati




Metrologiya uchta bo'limdan tashlik topgan. Ular quyidagilar:

1. Nazariy metrologiya – metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo'lgan sohadagi metrologiya bo'limi;

2. Amaliy metrologiya – nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo'llash masalalari bilan shug'ullanuvchi metrologiya bo'limi;

3. Qonunlashtiruvchi metrologiya – metrologiya bo'yicha milliy idora faoliyatiga qarashli va birliklar, o'lchash usullari, o'lchash vositalari va o'lchash laboratoriyalariga davlat talablarini o'z ichiga olgan metrologiya qismi.

## 2.2. – rasm. Metrologiyaning bo'limlari .




Metrologik xizmat – bu o'lchashlar birligini ta'minlash ishlarini bajarish va nazoratni amalga oshirish uchun qonunga muvofiq tashkil etiladigan xizmat. Metrologik xizmat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat metrologik xizmati – mamlakatda o'lchashlar birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni mintaqalararo va sohalararo darajada bajaruvchi va davlat metrologik tekshiruv va nazoratini amalga oshiruvchi metrologik xizmatdir;

2. Yuridik shaxs metrologik xizmati – mazkur muassasa (tashkilot)da o'lchashlar birligini ta'minlash ishlarini bajaruvchi va metrologik tekshiruv hamda nazoratni amalga oshiruvchi metrologik xizmat.


### 2.3. – rasm. Metrologik xizmat turlari





Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazining bir qancha bo'limlarni mavjud. Ular quyidagi 2.4.-rasmida keltirib o'tilgan.

#### 2.4. – rasm. Metrologiya xizmati bo'limlari.



## **2.2. O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonunining mazmuni va mohiyati.**

1993 yilning 28 dekabrda Respublikada metrologiya bo‘yicha ishlarni huquqiy ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi va u 1994 yilning 28 fevralidan boshlab huquqiy kuchga kirdi. Bu qonunning hayotga tadbiiq etilishi respublikamizdagi mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarilishi uchun asos bo‘ldi.<sup>6</sup>

O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonuni 5 bo‘lim va 22 moddadan iborat. Bu bo‘limlar quyidagilardan iborat:

- birinchi bo‘lim. Umumiy qoidalar;
- ikkinchi bo‘lim. Fizik kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo‘llash;
- uchinchi bo‘lim. O‘zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari;
- to‘rtinchi bo‘lim. Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati;
- beshinchi bo‘lim. Metrologiya bo‘yicha ishlarni mablag‘ bilan ta‘minlash.

Qonunning “Umumiy qoidalar” bo‘limi 1-4 moddalardan iborat. Unda metrologiyaning asosiy tushunchalari, metrologiya to‘g‘risida qonunlar majmui, xalqaro shartnoma va bitimlar, metrologiya bo‘yicha faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishiga izoh berilgan.

Ushbu qonunning “Fizik kattaliklar birliklari, ularni tiklash va qo‘llash” bo‘limida fizik kattaliklarning etalonlari, o‘lchash vositalari va o‘lchashni bajarish uslublari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan (5-8 moddalar).

Qonunning “O‘zbekiston Respublikasining metrologik xizmatlari” bo‘limi 9-11 moddalarni o‘z ichiga oladi. Unda O‘zbekiston Respublikasining metrologik xizmatining tuzilishi, davlat metrologik xizmatlarining tarkibi va yuridik shaxslar metrologik xizmatlari yoritib berilgan.

Mazkur qonunning “Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati” bo‘limida metrologik tekshiruv va nazorat o‘tkazish tartibi, ularning ob‘ektlari, davlat metrologik

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993 y)

tekshiruvi va nazoratining tadbiiq etish sohasi, davlat metrologik nazorati va tekshiruvining turlari, o'lash vositalarining tiplarini tasdiqlash, ularni taqqoslash va kalibrlash tartiblari ko'rsatilgan (12-20 moddalar).

Qonunning 5-bo'limi "Metrologiya bo'yicha ishlarni mablag' bilan ta'minlash" 21 va 22-moddalardan tuzilgan bo'lib, ularda metrologik ishlarni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash va metrologik ishlar hamda xizmatlar uchun to'lov turlari ko'rsatib berilgan.

Ushbu qonunda ko'rstilgandek, o'lash vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, ularning turlarini tasdiqlash va davlat ro'yxatiga kiritish O'zdvstandart tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda davlat ro'yxati belgisini qo'yish masalasi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan. "Metrologiya to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilishicha tasdiqlangan o'lash vositalariga yoki uning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi davlat ro'yxati belgisini qo'yish shart.

Ushbu qonunning 17-moddasida ilmiy-tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgan o'lash vositalari, asbob-uskunalari, qurilma va o'lchovlari O'zdvstandartning davriy ravishda taqqoslash (qiyoslash) dan o'tkazilib turishi lozim bo'lgan o'lash vositalari guruhining ro'yxatiga kiritilishi kerak.

### **2.3. Metrologiyaning asosiy postulatlari**

Ushbu mavzuni ko'rib chiqishdan oldin birgalikda oddiygina bir tajriba qilib ko'ramiz. Bir dona chiroyli olma olamiz (haqiqiy, iste'mol qilinadigan olma). Uni biror bir tarozida, masalan savdo do'konlaridagi o'lash tarozisida tortib ko'ramiz. Aytaylik massasi 74 g chiqdi. So'ngra uni kattaroq, masalan qoplangan mahsulotlarni tortadigan erga qo'yiladigan tarozida o'lchab ko'ramiz. Endi olgan qiymatimiz 75 g. Keyin xuddi shu olmani yuk avtomobillarining massasini (10 tonnagacha) o'lchaydigan katta tarozida o'lchaymiz. Bu tarozi olmaning massasi yo'q deb uning og'irligini sezmaydi. Endi oxirgi tajriba, olmani bir nech bo'laklarga bo'lib, laboratoriya tarozisida har bir bo'lakni tortamiz va yakuniy natijani hisoblaymiz.

Olingan qiymatimiz quyidagicha bo'lishi mumkin - 74,37,18 g. To'rt xil o'lchash vositasida to'rt xil qiymat oldik. Xo'sh, qaysi bir qiymatni haqiqiy deb olishimiz mumkin. Aslida, olmaning massasi qanday? Albatta, tajribada ko'rilayotgan olmaning aynan olingan qiymati mavjud. Bu qiymatni biz chinakam qiymat deb ataymiz. Chinakam qiymat kattalikni miqdor jihatdan har tomonlama, bekami-ko'st va butkul tavsiflaydigan qiymat hisoblanadi. Ammo, uni aniq o'lchash imkoniyati mavjud emas. Shuni ko'rib chiqamiz: Faraz qilaylik, o'ta aniq o'lchaydigan tarozi topdik va olmaning massasini aniqlamoqchimiz. Lekin bu tarozida aniq bir to'xtamga kelgan qiymatni ololmaysiz. Chunki olmadan juda oz miqdorda (1-2 molekula bo'lsa ham) namlik kamayib turadi. Demak aniq qiymatni ololmaysiz. Biz hozir aniq o'lchaydigan vosita bor deb hisoblayapmiz. Lekin aslida bunday o'lchash vositasi yo'q va bo'lmaydi ham. Nima uchun deyishingiz tabiiy, albatta. Agar o'zga sayyoraliklar kelib bizga aynan shunday, bekami-ko'st, mutlaqo aniq o'lchaydigan asbob olib kelib berishganda ham quyidagi paradoks bo'lishi tabiiy. Metrologik nuqtai nazardan o'lchash vositasiniig muayyan metrologik tavsiflari mavjud bo'lib, bu tavsiflarga ega bo'lgandan so'nggina biz olingan natijani baholashimiz mumkin. Biz aytayotgan o'lchash vositasini metrologik tavsiflash uchun undan ham aniq o'lchaydigan boshqa asbob kerak bo'ladi.

Xullas, kattalikning chinakam qiymatini o'lchab bo'lmaydi. Modomiki, chinakam qiymatni o'lchash imkoni yo'q ekan, o'lchash amalida qiymati unga yaqin bo'lgan va uni o'rniga ishlatilishi mumkin bo'lgan boshqa qiymat, ya'ni haqiqiy qiymat qo'llaniladi. Bu xususda metrologiyaning uchta asosiy postulatlari mavjud:

**1-postulat - o'lchanayotgan kattalikning chinakam qiymati mavjuddir.**

**2-postulat - kattalikning chinakam qiymatini aniqlash mumkin emas.**

**3-postulat - o'lchash amalida kattalikning chinakam qiymati doimiydir.**

Endi aytishimiz mumkinki, o'lchanayotgan kattalikning uchta qiymati bo'lar ekan:

1. Chinakam qiymat (uni aniqlash imkoni mavjud emas);
2. Haqiqiy qiymat (chinakam qiymatga yaqin);

### 3. Olingan qiymat (tajribadan olingan qiymat).

Tabiiyki, haqiqiy qiymatni qaerdan olamiz degan savol tug'ilishi mumkin. Yuqorida keltirgan misolimiz bo'yicha, olmani savdo do'koni tarozisida bir necha marta takroriy o'lchab, natijalarning o'rtacha qiymatini olsak, shu haqiqiy qiymat deb olinishi mumkin.

## 2.4. O'lchashlarning sifat mezonlari

Har bir narsaning sifati bo'lgani kabi o'lchashlarning ham sifati va uning mezonlari mavjud. Bu mezonlar o'lchashlardagi asosiy tavsiflarni ifodalaydi. Bu mezonlar qatoriga quyidagilar kiritilgan:

**Aniqlik** - bu mezon o'lchash natijalarini kattalikning chinakam qiymatiga yaqinligini ifodalaydi. Miqdor jihatdan aniqlik nisbiy xatolik moduliga teskari tarzda baholanadi. Masalan, agar o'lchash xatoligi 10-3 bo'lsa, uning aniqligi 10<sup>3</sup> bo'ladi yoki boshqacha aytganda, qanchalik aniqlik yuqori darajada bo'lsa, shunchalik, o'lchash natijasidagi muntazam va tasodifiy xatoliklar ulushi kam bo'ladi.

**Ishonchlilik** - o'lchash natijalariga ishonch darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. O'lchash natijalariga nisbatan ishonchlilikni ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qonunlari asosida aniqlanadi. Bu esa konkret holat uchun xatoligi berilgan chegaralarda talab etilgan ishonchlilikdagi natijalarni olishni ta'minlovchi o'lchash usuli va vositalarini tanlash imkonini beradi.

**To'g'rilik** - o'lchash natijalaridagi muntazam xatoliklarning nolga yaqinligini bildiruvchi sifat mezoni.

**Mos keluvchanlik** - bir xil sharoitlardagi o'lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiruvchi sifat mezoni. Odatda, o'lchashlarning mos keluvchanligi tasodifiy xatoliklarning ta'sirini ifodalaydi.

**Qaytaruvchanlik** - ushbu mezon har xil sharoitlarda (turli vaqtda, har xil joylarda, turli usullarda va vositalarda) bajarilgan o'lchashlarning natijalarini bir-biriga yaqinligini bildiradi.

**O'lchash xatoligi** - o'lchash natijasini chinakam (haqiqiy) qiymatdan chetlashuvini (og'ishuvini) ifodalovchi o'lchashning sifat mezoni.<sup>7</sup>

## **2.5. Kattaliklar va ularning o'lchash birliklari.**

Atrofimizdagi hayot uzluksiz tarzda kechadigan muayyan jarayonlar, voqealar, hodisalarga nihoyatda boy bo'lib, ularni ko'pini aksariyat hollarda sezmaymiz yoki e'tiborga olmaymiz. Chetdan qaraganda ularning orasida bog'liqlik yoki uzluksizlik bilinmasligi ham mumkin. Ba'zilariga esa shunchalik ko'nikib ketganmizki, aniq bir so'z bilan ifodalash kerak bo'lsa, biroz qiynalib turamizda, "...mana shu-da!" deb qo'yamiz. Butun suhbat barchamiz bilib-bilmaydigan, ko'rib-ko'rmaydigan va sezib-sezmaydigan kattaliklar haqida boradi.

Kattaliklarning ta'rifini keltirishdan oldin ularning mohiyatiga muqaddima keltirsak. Yon-atrofingizga bir nazar tashlang, har xil buyumlarni, jonli va jonsiz predmetlarni ko'rasiz. Balki oldingizda do'stlaringiz ham o'tirishgandir (albatta dars tayyorlab!). Garchi bu sanab o'tilganlar bir-birlaridan tubdan farq qilsa ham hozir ko'rishimiz kerak bo'lgan xossalalar va xususiyatlar bo'yicha ulardagi muayyan umumiylikni ko'rishimiz mumkin. Masalan, ruchka, stolni olaylik. Bular bir-biridan qanchalik o'zgacha bo'lmasin, lekin o'zlarida shunday bir umumiylikni kasb etganki, bu umumiylik ularning uchallasida ham bir xilda tavsiflanadi.

Agarda gap ularning katta-kichikligi xususida boradigan bo'lsa, biror bir yo'nalish bo'yicha olingan va aniq chegaraga (oraliqqa) ega bo'lgan makonni yoki masofani tushunamiz. Aynan mana shu xossa uchala ob'ekt uchun bir xil ma'noga ega. Ushbu ma'no nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ular orasidagi tafovut faqat qiymatdagina bo'lib qoladi. Yoki og'irlik tushunchasini, ya'ni misol tariqasida olingan ob'ektlarning yerga tortilishini ifodalaydigan xususiyatini oladigan bo'lsak ham, mazmunan bir xillikni ko'ramiz. Bunda ham ular orasidagi tafovut ularning yerga tortilish kuchining katta yoki kichikligida, ya'ni qiymatidagina bo'ladi. Biz

---

<sup>7</sup>. O'zRST 8.010093 O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta'riflar.

buni oddiygina qilib **og'irlik** deb atab qo'yamiz. Bu kabi xususiyatlar talaygina bo'lib, ularga **kattalik** nomi berilgan.

Kattaliklar juda ko'p va turli-tuman, lekin ularning barchasi ham ikkitagina tavsif bilan tushuntiriladi. Bu sifat va miqdor tavsiflari. Sifat tavsifi olingan kattalikning mohiyatini, mazmunini ifodalaydigan tavsif hisoblanadi. Gap masofa borasida ketganda muayyan olingan ob'ektning o'lchamlarini, uzun-qisqaligini yoki baland-pastligini bildiruvchi xususiyatni tushunamiz, ya'ni ko'z oldimizga keltiramiz. Buni oddiygina bir tajribadan bilishimiz mumkin. Bir daqiqaga boshqa ishlaringizni yig'ishtirib, ko'z oldingizga og'irlik va temperatura nomli kattaliklarni keltiring. Xo'sh, ularning sifat tavsiflarini seza oldingizmi. Bir narsaga ahamiyat bering-a, og'irlik deganda qandaydir bir mavhum, og'ir yoki engil ob'ektni, aksariyat, tarozi toshlarini ko'z oldiga keltirgansiz, temperatura to'g'risida gap borganda esa, issiq-sovuqlikni bildiruvchi bir narsani gavdalantirgansiz. Aynan mana shular biz sizga tushuntirmoqchi bo'lgan kattalikning sifat tavsifi bo'lib hisoblanadi. Endi olingan ob'ektlarda biror bir kattalik to'g'risida so'zlaydigan bo'lsak, bu ob'ektlar o'zida shu kattalikni ko'p yoki kam "mujassamlashtirganligini" shohidi bo'lamiz. Bu esa kattalikning miqdor tavsifi bo'ladi.

Mana endi kattalikning ta'rifini keltirishimiz mumkin:

***Kattalik** - sifat tomonidan ko'pgina fizikaviy ob'ektlarga nisbatan umumiy bo'lib, miqdor tomonidan har bir ob'ekt uchun xususiy bo'lgan xossadir.*

Ta'rifda keltirilgan xususiylik biror ob'ektning xossasi ikkinchisilikiga nisbatan ma'lum darajada kattaroq yoki kichikroq bo'lishini ifodalaydi. Biz o'rganayotgan metrologiya fani aynan mana shu kattaliklar, ularning birliklari, o'lchash texnikasining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. "Kattalik" atamasidan xossaning faqat miqdoriy tomonini ifodalash uchun foydalanish to'g'ri emas (masalan, "massa kattaligi", "bosim kattaligi" deb yozish), chunki shu xossalarning o'zi kattalik bo'ladi. Bunda "kattalik o'lchami" degan atamani ishlatish to'g'ri hisoblanadi. Masalan, ma'lum jismning uzunligi, massasi, elektr qarshiligi va hokazolar.

Har bir fizikaviy ob'ekt bir qancha ob'ektiv xossalari bilan tavsiflanishi mumkin. Ilm-fan taraqqiyoti va rivojlanishi bilan bu xossalarni bilishga talab ortib bormoqda. Hozirga kelib zamonaviy o'lchash vositalari yordamida 70 dan ortiq kattalikni o'lchash imkoniyati mavjud. Bu ko'rsatkich 2050 yillarga borib 200 dan ortib ketishi bashorat qilinmoqda. Ko'pincha kattalikning o'rniga parametr, sifat ko'rsatkichi, tavsif (harakteristika) degan atamalarni ham qo'llanishiga duch kelamiz, Lekin bu atamalarning barchasi mohiyatan kattalikni ifodalaydi.

Muayyan guruhlardagi kattaliklarning orasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, uni fizikaviy bog'lanish tenglamalari orqali ifodalash mumkin. Masalan, vaqt birligidagi o'tilgan masofa bo'yicha tezlikni aniqlashimiz mumkin. Mana shu bog'lanishlar asosida kattaliklarni ikki guruhga bo'lib ko'riladi: asosiy kattaliklar va hosilaviy kattaliklar.

**Asosiy kattalik** deb ko'rilayotgan tizimga kiradigan va shart bo'yicha tizimning boshqa kattaliklariga nisbatan mustaqil qabul qilib olinadigan kattalikka aytiladi. Masalan, \_\_ masofa (uzunlik), vaqt, temperatura, yorug'lik kuchi kabilar.

**Hosilaviy kattalik** deb tizimga kiradigan va tizimning kattaliklari orqali ifodalanadigan kattalikka aytiladi. Masalan, tezlik, tezlanish, elektr qarshiligi, quvvat va boshqalar.

O'lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning bir necha xil turlari (yo'llari) mavjuddir. Quyida shu yo'llar bilan tanishib chiqamiz.

**Bevosita o'lchash** - O'lchanayotgan kattalikning qiymatini tajriba ma'lumotlaridan bevosita topish. Masalan, oddiy simobli termometrda yoki lineyka yordamida o'lchash.

$$u = s \cdot x;$$


bunda: u - muayyan birlikda ifodalanyotgan o'lchanayotgan kattalikning qiymati; s - shkalaning bo'lim qiymati; x - shkaladan olingan qaydnoma.

**Bilvosita o'lchash** - bevosita o'lchangan kattaliklar bilan o'lchanayotgan kattalik orasida bo'lgan ma'lum bog'lanish asosida kattalikning qiymatini topish. Masalan, tezlikni o'lchash.

$$u = f(x_1 x_2 \dots x_n).$$



## 2.6. – rasm. O‘lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning turlari.



**Majmuiy o'lchash** - bir necha nomdosh kattaliklarning birikmasini bir vaqtda bevosita o'lchashdan kelib chiqqan tenglamalar tizimini echib, izlanayotgan qiymatlarni topish. Masalan, har xil tarozi toshlarining massasini solishtirib, bir toshning ma'lum massasidan boshqasining massasini topish uchun o'tkaziladigan o'lchashlar, haroratni qarshilik termometri orqali o'lchash.

**Birgalikdagi o'lchash** - turli nomli ikki va undan ortiq kattaliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtda o'tkaziladigan o'lchashlar. Misol:  $R = \frac{U}{I}$  €, rezistorning  $20^{\circ}\text{S}$  dagi elektr qarshiligi qiymatini turli temperaturalarda o'lchab topish. O'lchash turlari bevosita bilvosita majmuiy birgalikda mutlaq nisbiy 58

**Mutlaq o'lchash** - bir yoki bir necha asosiy kattaliklarni bevosita o'lchanishini va (yoki) fizikaviy doimiylikning qiymatlarini qo'llash asosida o'tkaziladigan o'lchash.

**Nisbiy o'lchash** - kattalik bilan birlik o'rnida olingan nomdosh kattalikning nisbatini yoki asos qilib olingan kattalikka nisbatan nomdosh kattalikning o'zgarishini o'lchash.

## 2.6. Kattalikning o'lchamligi

Har bir xossa ko'p yoki kam darajada ifodalanishi, ya'ni miqdor tavsifiga ega bo'lishi mumkin ekan, demak bu xossani o'lchash ham mumkin. Bu haqda buyuk italiyalik olim Galileo Galiley "O'lchash mumkin bo'lganini o'lchang, mumkin bo'lmaganiga esa imkoniyat yarating" degan edi. Kattaliklarning sifat tavsiflarini rasmiy tarzda ifodalashda o'lchamlikdan foydalanamiz.

**Kattalikning o'lchamligi** *deb, shu kattalikning tizimdagi asosiy kattaliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadigan va proporsionallik koeffitsienti 1 ga teng bo'lgan ifodaga aytiladi.*

Kattaliklarning o'lchamligini dimension - o'lcham, o'lchamlik ma'nosini bildiradigan (ingl.) so'zga asoslangan holda "dim" simvoli bilan belgilanadi. Odatda, asosiy kattaliklarning o'lchamligi mos holdagi bosh harflar bilan belgilanadi, masalan,

$$\dim l = L; \dim m = M; \dim t = T.$$

Hosilaviy kattaliklarning o'lchamligini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Tenglamaning o'ng va chap tomonlarining o'lchamligi mos kelmasligi mumkin emas, chunki, faqat bir xil xossalargina o'zaro solishtirilishi mumkin. Bundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, faqat bir xil o'lchamlikka ega bo'lgan kattaliklarnigina algebraik qo'shishimiz mumkin.

2. O'lchamliklarning algebrai ko'payuvchandir, ya'ni faqatgina ko'paytirish amalidan iboratdir.

2.1. Bir nechta kattaliklar ko'paytmasining o'lchamligi ularning o'lchamliklarining ko'paytmasiga teng, ya'ni:  $A, B, C, Q$  kattaliklarining qiymatlari orasidagi bog'lanish  $Q = ABC$  ko'rinishda berilgan bo'lsa, u holda

$$\dim Q = (\dim A)(\dim B)(\dim C).$$

2.2. Bir kattalikni boshqasiga bo'lishdagi bo'linmaning o'lchamligi ularning o'lchamliklarining nisbatiga teng, ya'ni  $Q = A/B$  bo'lsa, u holda

$$\dim Q = \dim A / \dim B.$$

2.3. Darajaga ko'tarilgan ixtiyoriy kattalikning o'lchamligi uning o'lchamligini shu darajaga oshirilganligiga tengdir, ya'ni,  $Q = An$  bo'lsa, u holda,

$$\dim Q = \dim An.$$

Masalan, agar tezlik  $v = l/t$  bo'lsa, u holda

$$\dim v = \dim l / \dim t = L/T = LT^{-1}.$$

SHunday qilib, hosilaviy kattalikning o'lchamligini ifodalashda quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$\dim Q = L^n M^m T^k \dots,$$

bunda,  $L, M, T, \dots$ , - mos ravishda asosiy kattaliklarning o'lchamligi;  $n, m, k, \dots$ , - o'lchamlikning daraja ko'rsatkichi.

Har bir o'lchamlikning daraja ko'rsatkichi musbat yoki manfiy, butun yoki kasr songa yoxud nolga teng bo'lishi mumkin. Agar barcha daraja ko'rsatkichlari nolga teng bo'lsa, u holda bunday kattalikni **o'lchamsiz kattalik** deyiladi. Bu kattalik bir nomdagi kattaliklarning nisbati bilan aniqlanadigan nisbiy (masalan, dielektrik o'tkazuvchanlik), logarifmik (masalan, elektr quvvati va kuchlanishining logarifmik nisbati) bo'lishi mumkin. O'lchamliklarning nazariyasi odatda hosil qilingan ifoda (formula)larni tezdan tekshirish uchun juda qo'l keladi. Ba'zan esa bu tekshiruv noma'lum bo'lgan kattaliklarni topish imkonini beradi.

## 2.7. Kattaliklarning birliklari.

Muayyan ob'ektni tavsiflovchi kattalik shu ob'ekt uchun xos bo'lgan miqdor tavsifiga ega ekan, bu kabi ob'ektlar o'zaro birgalikda ko'rilayotganda faqat mana shu miqdor tavsiflariga ko'ra tafovutlanadi. Buning uchun esa solishtirilayotganda ob'ektlararo biror bir asos bo'lishi lozim. Bu asosga solishtirish birligi deyiladi. Aynan mana shunday tavsiflash asoslariga kattalikning birligi deb nom berilgan. Ko'rilayotgan fizikaviy ob'ektning ixtiyoriy bir xossasining miqdor tavsifi bo'lib uning o'lchami xizmat qiladi. Lekin "uzunlik o'lchami", "massa o'lchami", "sifat ko'rsatkichining o'lchami" degandan ko'ra "uzunligi", "massasi", "sifat ko'rsatkichi" kabi iboralarni ishlatish ham leksik jihatdan, ham texnikaviy jihatdan o'rinli bo'ladi. O'lcham bilan qiymat tushunchalarini bir- biriga adashtirish kerak emas. Masalan, 100 g, 105 mg, 10<sup>-4</sup> t – bir o'lchamni 3 xil ko'rinishda ifodalanishi bo'lib, odatda "massa o'lchamining qiymati" demasdan, "massasi (...) kg" deb gapiramiz. Demak kattalikning qiymati deganda uning o'lchamini muayyan sonli birliklarda ifodalanishini tushunishimiz lozim.

**Kattalikning o'lchami** - *Ayrim olingan moddiy ob'ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'lgan kattalikning miqdori bo'lib hisoblanadi.*

**Kattalikning qiymati** - *qabul qilingan birliklarning ma'lum bir soni bilan kattalikning miqdor tavsifini aniqlash.*

Qiymatning sonlar bilan ifodalangan tarkibiy qismini kattalikning sonli qiymati deyiladi. Sonli qiymat kattalikning o'lchami noldan qancha birlikka farqlanadi, yoki o'lchash birligi sifatida olingan o'lchamdan qancha birlik katta (kichik) ekanligini bildiradi yoki boshqacha aytganda  $Q$  kattaligining qiymati uni o'lchash birligining o'lchami  $[Q]$  va sonli qiymati  $q$  bilan ifodalanadi degan ma'noni anglashimiz lozim:

$$Q = q[Q].$$

Endi yana kattalikning birligiga qaytamiz. Ikki xil metall quvur berilgan bo'lib, birining diametri 1 m, ikkinchisidiki 0,5 m. Ularning ikkovini diametr bo'yicha solishtirish uchun, muayyan bir asos sifatida olingan birlik qiymati bilan solishtirishimiz lozim bo'ladi

**Kattalikning birligi deb** - ta'rif bo'yicha soniy qiymati 1 ga teng qilib olingan kattalik tushuniladi.

Ushbu atama kattalikning qiymatiga kiradigan birlik uchun ko'paytiruvchi sifatida ishlatiladi. Muayyan kattalikning birliklari o'zaro o'lchamlari bilan farqlanishi mumkin. Masalan, metr, fut va dyuym uzunlikning birliklari bo'lib, quyidagi har xil o'lchamlarga ega -  $1 \text{ fut} = 0,3048 \text{ m}$ ,  $1 \text{ dyuym} = 25,4 \text{ mm}$  ga tengdir. Kattalikning birligi ham, kattalikning o'ziga o'xshash asosiy va hosilaviy birliklarga bo'linadi:

**Kattalikning asosiy birligi deb** birliklar tizimidagi ixtiyoriy ravishda tanlangan asosiy kattalikning birligiga aytiladi.

Bunga misol qilib, LMT - kattaliklar tizimiga to'g'ri kelgan MKS birliklar tizimida metr, kilogramm, sekund kabi asosiy birliklarni olishimiz mumkin.

**Hosilaviy birlik deb**, berilgan birliklar tizimining birliklaridan tuzilgan, ta'riflovchi tenglama asosida keltirib chiqariluvchi hosilaviy kattalikning birligiga aytiladi. Hosilaviy birlikka misol qilib  $1 \text{ m/s}$  - xalqaro birliklar tizimidagi tezlik birligini;  $1 \text{ N} = 1 \text{ kg} \cdot \text{m/s}^2$  kuch birligini olishimiz mumkin.

## **2.8. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi**

O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi deb, o'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha davlat tomonidan boshqariladigan sohalarda metrologiya bo'yicha milliy idora tomonidan respublika hududida tasdiqlangan va joriy etiladigan talablar, qoidalar, nizomlar va ishlarni o'tkazish tartibini belgilaydigan o'zaro bog'langan va o'zaro aloqador bo'lgan xalqaro, davlatlararo va milliy me'yoriy hamda uslubiy hujjatlar majmuiga aytiladi.

**O'lchamlar birligi** deganda, o'lchamlar natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va ularning xatoliklari berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaradan chiqmaydigan o'lchashlar holati tushuniladi. Respublikada xo'jalik yurituvchi barcha sub'ektlar, ularning qaysi idoraga mansubligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar va tashkilotlar o'lchashlar birligiga rioya qilishlari shart.

**O'lchamlar birligini ta'minlash** deb, o'lchamlar birligini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinadigan qonun hujjatlari, standartlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'lchamlar birligiga erishish va saqlab turishga yo'naltirilgan xizmatlar va idoralar faoliyatiga aytiladi.

**O'lchamlar birligini ta'minlash tizimi** - bu o'lchamlar birligiga erishish va ularni saqlab turish uchun Respublika xalq xo'jaligi majmuasini samarali iqtisodiy rivojlanish talablariga bog'liq bo'lgan va ilmiy asoslangan, texnik tomonidan to'g'ri keladigan hamda iqtisodiy maqbul bo'lgan me'yorlar, qoidalar va tadbirlar tizimidir.

## **2.9. O'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining maqsadi va vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- belgilangan huquqiy tartib, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va manfaatlarini o'lchashlar natijalarining ishonchli bo'lmagan salbiy oqibatlaridan himoya qilish;

- o'lchash vositalarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, sotish, ijaraga berish masalalari bo'yicha davlat boshqaruv idoralari va xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish;

O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi belgilangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- kattaliklar birliklarining davlat etolonlari va eng yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalarini yaratish hamda takomillashtirish, kattaliklar birliklarining o'lchamlarini etolonlarda o'lchash vositalariga uzatish me'yorlari va qoidalarini belgilash maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va o'tkazish;

- o'lchamlar birligini ta'minlashning asosiy nizomlari, qoidalari va me'yorlarini standartlashtirish, O'z O'BTTning huquqiy, me'yoriy va uslubiy asosini yaratish va saqlab turish;

- ishonchsiz o'lchamlarning salbiy oqibatidan jamiyatni himoya qilish uchun

metrologik me'yorlar va qoidalarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash;

- fan, ma'lumotlar, axborotlar, metrologik idoralar, texnik, mehnat va moddiy-moliyaviy manbalardan tashkil topgan metrologik infro tuzilmani tashkil etish va boshqarish.

## **2.10. O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimining tashkiliy tuzilmasi va uni amalga oshirish shakllari**

Ma'lumki, har qanday faoliyat (ishlab chiqarish, savdo, respublika va xalqaro tashkilotlar, fan, texnika va boshqalar) o'zining ma'lum bir tizimiga ega. SHu sababli O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash tizimi ham o'z tizimlariga ega. Bu tizimlar quyidagilardan iborat va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- mamlakat iqtisodining rivojlanish talablariga mos ravishda birliklarning qayta tiklanishini ta'minlaydigan kattaliklar birliklarining davlat etolonlari majmui va eng yuqori aniqlikdagi boshlang'ich o'lchash vositalari;

- kattaliklar birliklarining o'lchamlarini taqqoslash sxema (jadval)lari asosida yaratilgan etolonlar vazirliklar, muassasalar, korxonalar miqyosida ishlab chiqiladigan, tasdiqlanadigan va O'zDT nizomlari, qoida va me'yorlari talablarini amalga oshirishni ta'minlaydigan me'yoriy va uslubiy hujjatlar majmui;

- o'lchash vositalarini sinash, metrologik attestatsiyalash, sertifikatlashtirish; o'lchashlarni bajarish uslublarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish orqali o'lchash vositalarini taqqoslash, kalibrlash va solishtirishni tashkil etish hamda ularni amalga oshirish;

- moddalar va materiallar tarkibi va xossalarini tavsiflaydigan kattaliklar birliklarining qayta tiklanishini ta'minlaydigan moddalar hamda materiallar tarkibi va xossalarining standart namunalarini yaratish hamda tasdiqlash ;

- moddalar va materiallarning fizik konstantalari to'g'risidagi standart ma'lumotlaridan foydalanish;

- metrologiya bo'yicha idoralar, xodimlar va ishlarni akkreditlash va

sertifikatlashtirish;

- vazirliklar, muassasalar, korxonalar miqyosida ishlab chiqiladigan, tasdiqlanadigan va O'zDT nizomlari, qoida va me'yorlari talablarini amalga oshirishni ta'minlaydigan me'yoriy va uslubiy hujjatlar majmui;

- o'lchash vositalarini sinash, metrologik attestatsiyalash, sertifikatlashtirish;

- o'lchashlarni bajarish uslublarini metrologik attestatsiyadan o'tkazish orqali o'lchash vositalarini taqqoslash, kalibrlash va solishtirishni tashkil etish hamda ularni amalga oshirish;

- moddalar va materiallar tarkibi va xossalarini tavsiflaydigan kattaliklar birliklarining qayta tiklanishini ta'minlaydigan moddalar hamda materiallar tarkibi va xossalarining standart namunalarini yaratish hamda tasdiqlash ;

- moddalar va materiallarning fizik konstantalari to'g'risidagi standart ma'lumotlaridan foydalanish;

- metrologiya bo'yicha idoralar, xodimlar va ishlarni akkreditlash va sertifikatlashtirish;

- metrologik axborotni tasniflash, kodlash va axborotli texnologiyalarni joriy etish.

## **2.11. Metrologiya bo'yicha xalqaro tashkilotlar**

Turli xalqaro tashkilotlar standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarida me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, dunyo mamlakatlarini shu sohalaridagi ilg'or yutuqlarini umumlashtirish va bu sohalar bo'yicha har xil yordam ko'rsatish bilan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi, metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi Xalqaro tashkilot, sifat bo'yicha Evropa tashkiloti, sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya, G'arbiy Evropa mintaqaviy va iqtisodiy tashkilotlari, standartlashtirish va metrologiya bo'yicha Arab tashkiloti va boshqalar faol ishlab turibdi. Ana shu tashkilotlar va ularning olib borayotgan ishlari, faoliyat doiralari xususida qisqacha ma'lumot berib o'tish maqsadga muvofiqdir.



Xalqaro miqyosda metrologiya sohasida qonunlashtiruvchi xalqaro tashkilot ham mavjuddir. Uni qisqartirilgan holda MOZM (Mejdunarodnaya organizatsiya zakonodatelnoy metrologii) deb ataladi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi - davlat metrologik xizmatlarni va boshqa milliy muassasalarning faoliyatlarini xalqaro miqyosda muvofiqlashtirishdir.

MOZM faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- MOZMga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun o'lchash vositalarining uslubiy me'yoriy metrologik tavsiflarining birliligini belgilash;

- qiyoslash uskunalari, solishtirish usullarini, etalonlarni tekshirish va attestatlashini, namunaviy va ishchi o'lchash asboblari uyg'unlashtirish;

- xalqaro ko'lamda birxillashtirilgan o'lchash birliklarini mamlakatlarda qo'llanishini ta'minlash;

- metrologik xizmatlarning eng qulay shakllarini ishlab chiqish va ularni joriy etish bo'yicha davlat ko'rsatmalarining birliligini ta'minlash;

- rivojlanayotgan mamlakatlarda metrologik ishlarni ta'min etish va ularni zarur texnik vositalari bilan ta'minlashda ilmiy-texnikaviy yordamlashish; metrologiya sohasida turli darajalarda kadrlar tayyorlashning yagona qonun-qoidalarini belgilash.

MOZM ning Oliy rahbar idorasi metrologiyadan qonun chiqaruvchi Xalqaro konferensiyasi hisoblanib, u har to'rt yilda bir marta chaqiriladi. Konferensiya tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilaydi, ishchi idoralarining ma'ruzalarini tasdiqlaydi, byudjet masalalarini muhokama qiladi. MOZM ning rasmiy tili - fransuz tilidir.

## **2.13. O'lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash, davlat sinovidan o'tkazish va ular ustidan davlat metrologik nazorati**

### **2.13.1. O'lchash vositalarini qiyoslash**

**Qiyoslash** - bu me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan sharoitlarda o'lchash

vositalarining yaroqliligini aniqlash maqsadida davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmuidir. SHunday ekan, qiyoslashning asosiy maqsadi o'lchash vositalarini foydalanish uchun yaroqliligini aniqlashdir . Qiyoslash paytida metrologik tavsiflarni baholash bilan bir qatorda, o'lchash vositalarining xavfsizlik tavsiflari ham baholanadi.

O'lchash vositalarini qiyoslash dastlabki, davriy, navbatdan tashqari, taftishli va ekspert qiyoslash turlariga bo'linadi.

**Dastlabki qiyoslash** deb, ishlab chiqarish yoki ta'mirlashdan chiqarilayotgan o'lchash vositalarini birinchi marta qiyoslashga aytiladi. O'lchash vositalarining har biri dastlabki qiyoslashdan o'tkaziladi.

**Davriy qiyoslash** deganda, dastlabki qiyoslashdan o'tkazilgan o'lchash vositalaridan foydalanish jarayonida ularni majburiy davriy qiyoslashdan o'tkazish tushuniladi. SHunday ekan, davriy qiyoslashning asosiy maqsadi dastlabki qiyoslashdan o'tgan va ishlatilayotgan hamda vaqtincha saqlanib turgan o'lchash vositalarining yaroqliligini aniqlashdan iboratdir. Davriy qiyoslashning muddatlari O'zdavstandarti («O'zstandart» agentligi) tomonidan belgilanadi.

O'lchash vositalarini **navbatdan tashqari qiyoslash** foydalanayotgan o'lchash vositalari buzilganda, o'lchash vositalarining dastlabki yoki davriy qiyoslashdan o'tgalligini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qolganda, saqlashdan so'ng ishlatilganda, ularning yaroqliligini tasdiqlovchi qiyoslash belgisi yoki hujjatning amal qilish muddati tugaganda va boshqa hollarda o'tkaziladi.

**Taftishli qiyoslash** deganda, o'lchash vositalarini ishlatish uchun yaroqliligini aniqlash bo'yicha davlat metrologik xizmati idoralari (organlari) tomonidan o'lchash vositalarining holati, ularni qiyoslash va qo'llash qoidalarining bajarilishini tekshirish tushuniladi.

**Ekspert qiyoslash** o'lchash vositalari ma'lumotnomalarining ishonchliligi va foydalanish yoki ishlatish uchun yaroqliligi bo'yicha janjalli yoki munozarali masalalarni hal qilish maqsadida o'tkaziladi.

O'lchash vositalari davlat metrologik xizmatlari tomonidan 15 kun muddat ichida o'tkazilishi kerak.

Agar jismoniy shaxslarning o'lchash vositalari individual mehnat uchun qo'llaniladigan bo'lsa, u holda ular davlat qiyoslashidan o'tkazilishi shart. O'quv vositalari yoki indikatorlar guruhiga kiradigan o'lchash vositalari qiyoslashdan o'tkazilmaydi. Bunday o'lchash vositalarining old tomoniga O'z.RH 51-008-93ga muvofiq «I» (indikator) yoki «U» (uchebniy) belgisi qo'yiladi va ularni kattaliklar qiymatlarini aniqlash uchun qo'llash taqiqlanadi.

### **2.13.2. O'lchash vositalarini kalibrlash va davlat sinovlaridan o'tkazish**

Davlat metrologik tekshiruv va nazorati tomonidan belgilangan doiradan tashqari qo'llaniladigan o'lchash vositalari kalibrlashdan o'tkazilishi kerak.

**O'lchash vositalarini kalibrlash** deb, o'lchash vositalarining haqiqiy metrologik tavsiflarini aniqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyalari tomonidan o'tkaziladigan operatsiyalar majmuiga aytiladi. Kalibrlash ham dastlabki va davriy kalibrlash turlariga bo'linadi.

**Dastlabki kalibrlash** qiyoslash kabi ishlab chiqarish yoki ta'mirlashdan chiqarilayotgan va tasdiqlanishi lozim bo'lmagan o'lchash vositalari bo'yicha o'tkaziladi.

**Davriy kalibrlash** ham qiyoslash kabi o'lchash vositalarining ishlatish jarayonlarida o'tkaziladi.

Yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini kalibrlash ishlarini bajarish huquqi O'zstandart («O'zstandart» agentligi)ning hududiy markazlari tomonidan O'z RH 51-071-98 va O'z RH 51-081-99 talablariga muvofiq akkreditlanadi.

Agar kalibrlash haqidagi shartnoma shartlariga ko'ra o'lchash vositasini faqat me'yoriy hujjatlar talabiga mos kelishini aniqlash ko'rsatilgan bo'lsa, u holda kalibrlash natijalari ijobiy bo'lganda kalibrlovchi shaxs o'lchash vositasiga o'zining shaxsiy kalibrlash tamg'asini bosadi.

O'lchash vositalarining ko'rsatkichlarini haqiqiy qiymatlari to'g'risida ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlar olish va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini ta'minlash maqsadida ular davlat sinovlaridan o'tkaziladi.

Davlat sinovlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: respublikada ishlab chiqarilayotgan yoki chetdan keltirilayotgan o'lchash vositalarining me'yoriy hujjatlarga mos kelishini tekshirish va ularning metrologik, texnik-iqtisodiy hamda foydalanish xususiyatlarini baholash;

Qabul qilish sinovi o'lchash vositalarining texnik topshiriq va me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini aniqlaydi, texnik darajasini baholaydi hamda ishlab chiqarishga qo'yish uchun qaror chiqaradi va o'lchash vositalarini chetdan keltirish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

#### **2.14. Tekshiruv va nazorat qilish idoralari, ularning vazifalari va ob'ektlari**

Davlat metrologik tekshiruvi deganda, o'lchash jarayonini boshqarish maqsadida ushbu jarayon elementlarini me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini baholash bo'yicha vakolatlangan idora va shaxslarning faoliyati tushuniladi. O'lchash jarayonining barcha elementlari: kattaliklar birliklari, o'lchashni bajarish uslublari, o'lchash vositalari, shu jumladan etolonlar, xom ashyo va materiallarning tarkibi, xossa va xususiyatlarining standart namunalari, o'lchash tizimlari, metrologik faoliyatni amalga oshirayotgan xodimlar davlat metrologik tekshiruvi va nazoratining ob'ekti hisoblanadi.

Davlat metrologik nazorati – bu belgilangan metrologik me'yorlar va qoidalarga rioya etilishini tekshirish bo'yicha davlat metrologik xizmatining vakolatlangan idoralarining faoliyatidir.<sup>8</sup>

Davlat metrologik tekshiruvi va nazorati quyidagi doiralarda o'tkaziladi: sog'likni saqlash, savdo-sotiq, moddiy resurslarni hisobga olish, mehnat, mahsulot, transport harakati xavfsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, telekommunikatsion xizmatlar, zararli va tez olov oladigan, portlovchi hamda radioaktiv moddalarni saqlash, tashish va yo'q qilish, milliy va xalqaro musobaqalarning yuqori natijalari (rekordari)ni

---

<sup>8</sup> O'z RST 8.002-92 O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologik tekshiruv va nazorat.

ro'yxatga olish, o'lchash vositalarini davlat sinovlaridan o'tkazish, qiyoslash, kalibrlash va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida davlat nazorati O'zdavstandart («O'zstandart» agentligi) tomonidan amalga oshiriladi. Davlat metrologik tekshiruv va nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- metrologik qoidalarni o'z vaqtida tadbiriq qilinganligini tekshirish;

belgilangan fizik kattaliklar birliklarini to'g'ri qo'llanishi, o'lchash vositalarining holati, ularni tayyorlash, saqlash, ta'mirlash, tekshirish va qo'llash, eskirgan o'lchash vositalarini ishlab chiqarishdan o'z vaqtida chiqarish va ularni yangilariga almashtirish sharoitlarini tekshirish;

- o'lchash vositalari ustidan o'tkazilgan davlat nazorati natijalarini umumlashtirish, metrologik qoidalarning buzilish sabablarini tahlil qilish, o'lchash vositalari ustidan davlat nazorati idoralarning ta'sirini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarishlab chiqish va o'tkazish;

- o'lchash uslublarini to'g'ri qo'llash bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;

- sinov laboratoriyalarining faoliyati bo'yicha davlat tekshiruv va nazoratini amalga oshirish.

**Tayanch iboralar:** Metrologiya, o'lchash, o'lchash vositalari, o'lchash birliklari, metrologik xizmat, metrologik ta'minot, metrologik nazorat, etalon, o'lchash vositalarini qiyoslash, o'lchash vositalarini kalibrlash.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. "Metrologiya asoslari" fanini o'rganishning tabiiy zarurligi.
2. "Metrologiya asoslari" ning fan sifatida shakllanib borish jarayoni qanday kechgan?
3. Qanday ko'hna va qadimiy o'lchash birliklarini bilasiz?
4. Fanning rivojlanishida o'ziga xos hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?

5. “Metrologiya to‘g‘risida” respublika qonunining asosiyahamiyati nimalardan iborat?
6. Metrologiyaning aksiomalarini tushuntiring.
7. Metrologiyaning nechta postulati mavjud va ularni ta’riflang.
8. O‘lchashlarning qanday sifat mezonlari mavjud?
9. Metrologik xizmat bilan metrologik ta’minotning qanday o‘zaro farqli tomonlari mavjud?
10. Metrologik ta’minotning tashkil etuvchi asoslarini so‘zlab bering.
11. Nima uchun metrologik ta’minotning ilmiy asosi metrologiyadan iborat deyiladi?
12. “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” faoliyati bo‘yicha qanday xalqaro nufuzdagi tashkilotlarni bilasiz?
13. O‘lchashlar birliligi deganda nimani tushunasiz?
14. Etalon deb nimaga aytiladi va uning qanday turlari mavjud?
15. Metrologik nazorat deb nimaga aytiladi?
16. Litsenziya nima?
17. O‘lchash vositalarini kalibrlash deganda nimani tushunasiz?

### **III-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SERTIFIKATLASHTIRISH XIZMATI**

#### **3.1. O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi haqida tushuncha**

**Sertifikatlashtirish** deb, mahsulot yoki xizmatlarni muayyan standart yoki texnik shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyatga aytiladi. **Sertifikatlashtirish milliy tizimi**-bu sertifikatlashtirish bo‘yicha o‘zining boshqaruv va ijro idoralari (organlari) hamda tartib-qoidalariga ega bo‘lgan va davlat miqyosida amal qilinadigan tizim. Respublikamizda sertifikatlashtirish milliy tizimi to‘liq shakllangan

va u amalda. Uning qoida va tartiblari ISO/MEK va ISO xalqaro standartlari, EN 45000 Yevropa standartlari, sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi boshqa xalqaro me'yorlar hamda qoidalarga muvofiq tuzilgan. Bunday choralar, o'z navbatida sertifikatlashtirish idoralari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini chet mamlakatlarda ham tan olishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari va «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikalashtirish to'g'risida»gi Qonun birgina respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga emas, balki chetdan keltirilgan mahsulotlar uchun ham taalluqlidir. Sertifikatlashtirish sohasidagi asosiy atama va tushunchalarning mazmuni, respublikada sertifikatlashtirish jarayonlarini o'tkazish tartib va qoidalarini belgilash, sertifikatlash milliy tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi esa, inson hayoti va sog'ligi va atrof-muhitni turli zararli ta'sirlardan saqlash hamda tovarlar o'zaro almashuvi va muvofiqligi bo'yicha iste'molchilar manfaatini himoya qilish, xalqaro tijorat ishlarida to'siqlarni bartaraf etish va milliy mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

**Mahsulotlarni sertifikalashtirish** bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) o'tkazadi.

Yuqorida ta'kidlagandek, sertifikatlashtirishning vazifalari ham uning asosiy maqsadidan kelib chiqadi va bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- inson hayoti va sog'ligi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun zararli yoki xavfli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish ustidan qat'iy nazorot o'rnatish;

- jahon bozorida milliy mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;

- milliy va qo'shma korxonalar hamda tadbirkorlarning xalqaro tijorat ishlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;

- iste'molchini mahsulot ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi)ning noinsofligidan himoya qilish;

- iste'molchilarning talablarida ko'rsatilgan talablarni mahsulot sifati orqali ta'minlash.

### 3.2. Sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari va yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuniga asosan sertifikatlashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mahsulotlar va xizmatlarning ro‘yxati va qonun hujjatlari talablari asosida o‘tkaziladi. Sertifikatlashtirish bo‘yicha qonun hujjatlarining asosini O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi, «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi, «O‘simliklar karantini to‘g‘risida»gi va «Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlar tashkil qiladi va bu qonunlar talablariga ko‘ra mahsulotlar majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tkaziladi. Majburiy sertifikatlashtirishni o‘tkazish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish O‘zstandart («O‘zstandart» agentligi)ga yoki uning topshirig‘i bo‘yicha majburiy akkreditlashtirilgan holda sertifikatlashtirish bo‘yicha boshqa idoralarga yuklatiladi.

O‘zstandart («O‘zstandart» agentligi), sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), tekshirish idoralari, mahsulot tayyorlovchilar (sotuvchilar) majburiy sertifikatlashtirish sub‘ektlari hisoblanadi.

1996 yil 26 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan «Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni sertifikatlashtirishga yana qo‘shimcha huquqiy asoslar yaratib berdi. Ushbu qonunda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulot realizatsiya qilinganda iste‘molchiga mahsulotni sertifikatlashtirilganligi haqida axborot berilishi kerakligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Chunki, ushbu axborotning yo‘qligi sababli davlat boshqaruv idoralarining ko‘rsatmasi bo‘yicha mahsulotning sotilishi to‘xtatilishi mumkin.

«Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi Qonun yuqoridagi Qonun singari sertifikatlashtirish uchun qonuniy asoslardan biri bo‘lib hioblanadi. Bu Qonunda gigiena sertifikatini rasmiylashtirish zarurligi ko‘rsatib berilgan bo‘lib, uning asosida oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatdan o‘tkaziladi va sertifikatlashtiriladi.



«O‘simliklar karantini to‘g‘risida»gi Qonunga asosan 1997 yildan boshlab o‘simlik mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va undan chiqarish qonun-qoidalari belgilangan. Ushbu Qonunda ko‘rsatilishi bo‘yicha respublika hududiga olib kiriladigan o‘simlik mahsulotlariga fitosanitariya (o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat inspeksiyasi organi tomonidan beriladigan) sertifikatini rasmiylashtirish talab etiladi YUqorida ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari ayrim rivojlangan davlatlar mahsulot (xizmat, jarayon)ni ekologik sertifikatlashtirish bo‘yicha ham ma‘lum darajada tajribalarga ega. O‘zbekiston Respublikasi bu masala bo‘yicha hali etarli darajada tajribaga ega emas. Shunga qaramasdan, respublikada bu soha bo‘yicha ma‘lum darajada ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bu sohada atrof-muhitni boshqarish va ekologik audit bo‘yicha qo‘llanmalarni o‘z ichiga olgan ISOning 14000 seriyali xalqaro standartlarining qabul qilinishi O‘zbekistonda ekologik nuqtai-nazardan mahsulotlar (xizmatlar yoki jarayonlar)ni sertifikatlashtirish bo‘yicha ishlarni yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

### **3.3. Sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idoralar va ularning vazifalari.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi O‘zstandartO‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonunining 5-moddasida ko‘rsatilgandek, O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idorasi hisoblanadi va u quyidagi yo‘nalishda o‘z faoliyatini olib boradi:<sup>9</sup>

- sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, sertifikatlashtirishni o‘tkazish bo‘yicha umumiy qoidalar belgilash va ular haqida rasmiy axborotlarni matbuotda bosib chiqish;

- majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini belgilash;

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasi bo‘yicha nazorat qilish idoralari

---

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993 y)

hamda sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni akkreditlash ;

- sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifatni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar, sinov laboratoriyalari (markazlari), sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritish hamda oziq- ovqat mahsulotlari va ularni tayyorlashda ishlatiladigan jihozlarning davlat ro'yxatidan o'tkazish ;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish hamda sinov laboratoriyalari va bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvini va nazoratini amalga oshirish ;

- muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini amal qilishini bekor qilish va to'xtatish, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar (organlar) ning akkreditlanganligi haqidagi guvohnomalarini bekor qilish, sertifikatlashtirish bo'yicha qonuniy me'yorlarni buzganligi uchun sinov laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini to'xtatib qo'yish.

Quyida keltirilgan rasmda sertifikatlashtirish jarayoni keltirib o'tilgan.

## Sertifikatlashtirish jarayoni



Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha O'zstandart

(«O‘zstandart») agentligi tomonidan akkreditlangan idoralar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini tuzish va ularning amal qilinishini ta’minlash ;
- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o‘tkazish;
- milliy muvofiqlik yoki chet mamlakatlarining muvofiqlik sertifikat belgilarini berish va rasmiylashtirish ;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan tekshiruvlarni amalga oshirish;
- respublikada sertifikatlashtirish milliy tizimining talablariga asosan sertifikatlashtiriladigan mahsulot turlari va majburiy sertifikatlashtirish uchun me’yoriy hujjatlarni belgilash ;
- sertifikatlashtirish, akkreditlash va sinovlar bo‘yicha tizimining Davlat ro‘yxatini olib borish;
- mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblarini aniqlash.

### **3.4. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash tartiblari.**

Barcha sertifikatlashtirish idoralari va sertifikatlashtirish sinovlarini o‘tkazuvchi laboratoriyalar (markazlar) majburiy ravishda akkreditatsiyadan o‘tishadi.

**Akkreditlash yoki akkreditatsiyadan o‘tish** deganda, muvofiqlikni baholash va tasdiqlash, shuningdek inson faoliyatining iqtisodiy, huquqiy, texnik va boshqa turli sohalarida sertifikatlashtirishni amalga oshirayotgan laboratoriya va idoralarning layoqatligini baholash hamda tan olishning xalqaro amaliyotida tan olingan usuli tushuniladi.

Buyurtmaga ilova qilingan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazadi va ekspertiza natijalari bo‘yicha O‘zstandart («O‘zstandart» agentligi) tegishli qaror qabul qiladi va qaror to‘g‘risida talabgar laboratoriya hamda sertifikatlashtirish idorasiga xabar beradi:

- sinovlar o‘tkaziladigan joylarda natijalarning aniqliligi va o‘lchash natijalariga ta’sir etadigan atrof- muhit omillari (harorat, namlik, havoning tozaligi, tovush, tebranish , elektr energiya va boshqalar);

- laboratoriyada qo'llaniladigan sinish usullarining me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablar, sanitariya me'yori va qoidalari, texnik va yong'in xavfsizligi hamda atrof - muhitni muhofaza qilish talablariga javob berish darajalari;

- sinov jihozlari va o'lchash vositalarining holati;

- har bir jihoz va o'lchash vositalarining ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar (varaqa, karta va shunga o'xshashlar);

- jihoz va o'lchash vositalarining nomi, turi, ishlab chiqargan korxonaga yoki firma, zavod va inventar tartib raqamlari (nomerlari), ishlab chiqilgan sanasi, ishlatilib boshlagan sanasi, sotib olingan vaqtidagi holati (yangi, ta'mirlangan, avval foydalanilgan), o'rnatilgan joyi, ko'rikdan o'tganligi va boshqalar;

- sinaladigan mahsulot uchun texnik talablar belgilaydigan hujjatlar, qo'llanayotgan o'lchash vositalarini davlat ko'rigidan va sinash jihozlarini attestatsiyadan o'tkazish uslublari, sinash natijalari tizimini belgilaydigan hujjatlar (qarorlar, ishchi jurnallar, hisobotlar va boshqalar).

Komissiya o'tkazilgan tekshirish natijalari asosida belgilangan tartibda dalolatnoma tuzadi va unga barcha komissiya a'zolari imzo chekkanlaridan so'ng uning bir nusxasi akkreditlanayotgan laboratoriya rahbariga tanishtirish uchun yuboriladi. Agar tekshirish natijalari bo'yicha akkreditlanayotgan laboratoriyaning texnik layoqatligi va holisligi bo'yicha yoki faqat texnik layoqatligi bo'yicha akkreditlash uchun komissiya tomonidan qaror qabul qilinsa, u holda laboratoriyaga u yoki bu ko'rsatkichi bo'yicha muvofiqlik sertifikatini beriladi.

Akkreditlash attestatsiyasi 5 yil muddatga beriladi va shuning bilan birgalikda akkreditlashdan o'tgan sinov laboratoriya to'g'risidagi «Nizom» loyihasi ham O'zstandart("O'zstandart" agentligi)ning bosh direktori yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi Davlat reestri (ro'yxati) ga kiritiladi va shu kundan boshlab sinov laboratoriyasi attestatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.

Davlat reestridan o'tgan akkreditlash haqidagi attestat va O'zstandart("O'zstandart" agentligi) tomonidan tasdiqlangan "Nizom" loyihasi akkreditlangan sinov laboratoriyasiga yuboriladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini

boshqarish sohasidagi tadqiqotlar va mutaxassislar tayyorlash instituti (Uz TMTI) O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining ilmiy-uslubiy markazi sifatida mahsulotlarni sertifikatlashtirish va akkreditlash bo‘yicha asos bo‘luvchi me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqadi, sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari (markazlari) da ishlaydigan mutaxassislar hamda ekspert- auditorlar malakasini oshirish, ularni tayyorlash va sertifikatlashtirish idoralariga bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha uslubiy yordam ko‘rsatadi.

### **3.5. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemalari**

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, mahsulotlarni sertifikatlashtirishga tayyorlash va uni o‘tkazish akkreditatsiyadan o‘tgan sertifikatlashtirish idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o‘tkazish bo‘yicha O‘zstandarttomonidan umumiy qoidalar belgilangan va ular milliy hamda chet el sertifikatlashtirish ob’ektlari uchun ham tegishlidir.

O‘z DSt 5.7: 2003 O‘zbekiston davlat standarti bo‘yicha barcha mahsulotlarni O‘zbekiston milliy standartlashtirish tizimida majburiy va ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirishdan o‘tkazish uchun 10 ta (1,1<sup>a</sup>; 2,2<sup>a</sup>; 3,3<sup>a</sup>; 4,4<sup>a</sup>; 5;6;7;8;9,9<sup>a</sup>; 10,10<sup>a</sup>) sertifikatlashtirish sxemasi nazarda tutilgan. SHulardan 1- 6, 9<sup>a</sup> – 10<sup>a</sup> sxemalari muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davrida seriyalab ishlab chiqariladigan, 7, 8 va 9 sxemalar sertifikatsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlar partiyasi va onda-sonda ishlab chiqariladigan buyumlarni sertifikatlashtirishidan o‘tkazishda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi tomonidan qabul qilingan sertifikatlashtirish sxemalari quyidagilardan iborat:

*1 - sxema.* Mahsulot namunasini sinovdan o‘tkazish. Bu sxema yordamida faqat mahsulot namunalarning turlarini me‘yoriy hujjatlar talablariga mos kelishini (muvofiqligini) maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlari (idoralari) da sinovdan o‘tkaziladi, ya’ni sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi holos. Bu sxema bo‘yicha sertifikatlashtirish natijalari mahsulot sifatining doimiyligini kafolatlay olmaydi. Sertifikat beruvchi idora sinovdan so‘ng hech qanday

tekshiruv yoki nazoratni tashkil qilmaydi. Bu sxema o'zining oddiyligi va kam chiqimliliigi sababli milliy hamda xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan .

2 - *sxema*. Bu sxema bo'yicha mahsulot namuna turlari maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkaziladi, so'ngra uning sifatini savdo shaxobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat qilib turiladi . Bu sxema yordamida taqdim etilayotgan namunalar sifatini baholash bilan bir qatorda chetdan keltirilgan seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ham baholash mumkin. Bu hol uning afzalligini bildiradi. Agar nazorat sinovlari natijasi bo'yicha mahsulot sifati me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq kelmasa , u holda mahsulotni savdo shaxobchalaridan chiqarib tashlash mumkin bo'lmaydi yoki uni chiqarib tashlash uchun ayrim qiyinchiliklar tug'iladi. Bu hol esa bu sxemaning kamchiligi hisoblanadi.

3 - *sxema*. Bu sxema namunalarga sertifikat berilgandan so'ng sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan oldin vaqti - vaqti bilan tayyorlovchi korxonaning tayyor mahsulotlar omboridan olinadigan namunalarni sinash yo'li bilan inspeksion tekshiruv o'tkazishni nazarda tutadi. Bu sxemaning 2- sxemadan farqi shuki, mahsulot savdoga tushmasdan turib sinov nazoratidan o'tkaziladi va me'yoriy hujjat talablariga muvofiq bo'lmasa, u holda mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatilib, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishning oldi olinadi.

Bu sxema bo'yicha sertifikat 12 oy muddatga beriladi va har 6 oyda bir marta nazorat qilinadi.

4 - *sxema*. Bu sxema 3-sxemadan shunisi bilan farq qiladiki, bunda qo'shimcha ravishda sotuvchidan olinadigan namunalarning ham inspeksion tekshiruvi o'tkaziladi. 4-sxema seriyali ishlab chiqarish mahsulotlarini har tomonlama va qat'iyroq inspeksion tekshiruvini o'tkazish zarur bo'lganda qo'llaniladi.

5 - *sxema*. Sertifikatlashtirishning bu usuli faqat mahsulot sifatini nazorat qilibgina qolmasdan, balki korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini kerakli darajada bo'lishini ham nazorat qiladi. Bu sxema sanoati ri-vojlangan davlatlarda ham xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan sxema hisoblanadi. 5- sxemaning boshqa sxemalardan farqi uning murakkabligi va nisbatan ko'p chiqim talab qilishida, uning

faolligi esa iste'molchining mahsulot sifat darajasining yuqori ekanligiga ishonch hosil qilishidadir. Bu esa asosiy mezon hisoblanadi.

6 - *sxema*. Bu usul ayrim paytlarda korxonalar tayyorlovchini attestatsiyalash usuli ham deb ataladi va u faqat korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlash orqali tizimni baholanishini o'tkazishga asoslangan (mo'ljallangan) bo'lib, faqat korxonaning belgilangan sifat darajasidagi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini baholaydi.

7 - *sxema*. Bu sxema tovarlar partiyasini sinash uchun mo'ljallangan. Bunda korxonalar ishlab chiqarayotgan yoki chetdan keltirilgan (import bo'yicha) tovarlar partiyasidan belgilangan qoidalar bo'yicha o'rtacha kichik namunalar tanlab olinadi va akkreditlangan laboratoriyada sinovlardan o'tkaziladi, so'ngra sertifikat berish protsedurasi bajariladi, inspeksion tekshiruv o'tkazilmaydi.

8 - *sxema*. Bu usul tayyorlangan har bir yoki ayrim buyumlarning me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini sinovlar o'tkazish yo'li bilan aniqlashga asoslangan bo'lib, mahsulotni iste'mol qilish jarayonlarida uning me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelmasligi natijasida iste'molchiga katta iqtisodiy zarar etkazganida qo'llaniladi. Sertifikatlashtirishning bu usuli ko'proq qimmatbaho metallar va qotishmalardan tayyorlangan buyumlarda qo'llaniladi, chunki bu erda qimmatbaho metallarning belgilangan miqdori, tarkibi va ularning tozaligi tekshiriladi.

Mahsulot sifatini etkazib beruvchi tashkilot deklaratsiyasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelish-kelmasligini tasdiqlash uchun 9-10<sup>a</sup> sertifikatlashtirish sxemalari qo'llaniladi.

### **3.6. Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish**

#### **3.6.1. Mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tartiblari**

Ma'lumki, sertifikatlashtirish mahsulotning iste'molchi sog'ligi, uning mol- mulki va atrof- muhit uchun zararli xususiyatlarini me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan majburiy talablarga mos kelish darajasini o'rganadi. Undan tashqari, sertifikatlashtirish sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat nazoratini ham olib boradi. Ana shu ko'rsatkichlari bilan u mahsulot sifatini nazorat qilishdan farq qiladi. Shuningdek

sertifikatlashtirish sinovlarini bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish maqsadida akkreditlangan sinov laboratoriyalari ( markazlari), mahsulot sifatini nazorati esa davlat nazorat idoralari tomonidan olib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarini sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonuniga asosan mahsulot (xizmat) ni sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralarga yoki milliy idora-O‘zstandart («O‘zstandart» agentligi)ga yuklatilgan.<sup>10</sup>

O‘zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlashtirish tizimida ikki xil sertifikatlashtirish turlari ishlatiladi: majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish. Mahsulot (xizmat)larni u yoki bu turdagi sertifikatlashtirishga mansubligi, ularning tashqi muhit, inson salomatligi va mol- mulkiga zararli ta’siri asosiy me’zon bo‘lib hisoblanadi. SHuning uchun ham atrof - muhit, inson sog‘ligi va uning mol- mulkiga ta’sir ko‘rsatuvchi mahsulot (xizmat) lar, albatta majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tkaziladi, qolgan mahsulotlar esa ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtiriladi .

Ushbu qarorga asosan oziq – ovqat mahsulotlarining barcha turlari majburiy sertifikatlashtirishdan o‘tkaziladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish markazi –O‘zdavstandartga yoki uning topshirig‘iga ko‘ra boshqa akkreditatsiyadan o‘tgan sertifikatlashtirish idoralari (organlari) zimmasiga yuklatiladi. SHu narsani alohida ta’kidlash lozimki, agar inson hayoti, sog‘ligi va uning mol – mulki hamda atrof – muhitga zararli ta’sir etishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish va saqlash xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha talablar bo‘lmasa, u holda davlat boshqaruvining tegishli idora (organ)lari bunday talabnomani kechiktirmasdan *ishlab* chiqishi va uni amalda qo‘llashi shart. Respublika hududida majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan, lekin muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lmagan holda xilof ravishda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni sotish (realizatsiya qilish) man etiladi.

Tayyorlovchi (ta’minlovchi yoki tadbirkor) larning mahsulotlari majburiy

---

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni (28.12.1993 y)



sertifikatlashtirishdan o'tishi lozim bo'lganda, ular quyidagi qoida va tartiblarga amal qilishlari kerak: majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun taqdim etish; mahsulotlarni sertifikatlashtirish idora (organ) lari yoki ular tan olgan idoralar tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikati yoki belgisi mavjud bo'lgandagina realizatsiya qilish yoki sotish; agar sertifikatlashtirilgan mahsulot belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga javob bermasa yoki ushbu mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikati yoki belgisining amal qilish muddati tugagan bo'lsa, u holda mahsulotni realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yish;

- mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlariga texnik yoki boshqa o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida sertifikatlashtirish idoralariga belgilangan tartibda xabar berish va boshqalar.

### **3.6.2. Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish**

YUqorida qayd qilinganidek, O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish tizimi mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirishdan tashqari, ixtiyoriy sertifikatlashtirishni ham amalga oshiradi.

YUqorida ko'rsatib o'tilganidek, majburiy sertifikatlashtirish ro'yxatiga kiritilmagan mahsulotlar ta'minlovchi (tadbirkor, bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki ist'molchining shaxsiy tashabbusiga ko'ra ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirilishi mumkin.

**Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda**, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki iste'molchining tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash va o'zini sifat tizimiga ishonch hosil qilishidan iborat. SHuningdek ixtiyoriy sertifikatlashtirish o'ziga xos reklama vazifasini ham bajaradi.

O'z mahsulotini sertifiktlashtirishdan o'tkazgan talabgor (arizachi) ixtiyoriy sertifikatlashtirish qonun – qoidalariga binoan o'zining xohlagan me'yoriy hujjatini tanlash huquqiga ega .

Shuningdek talabgor (arizachi, yuridik yoki jismoniy shaxs) o'z mahsulotini qanday

ko'rsatkichlar va sinash uslublari bo'yicha sertifikatlashtirishni ham o'zi tanlaydi.

Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish qonun – qoidalari va tartiblari ham mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish qonun – qoidalari va tartiblariga o'xshash bo'lib, ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tgan mahsulotga ham muvofiqlik sertifikati beriladi.

### **3.7. Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblari va qoidalari**

Yo'qorida aytib o'tilganidek, sertifikatlashtirishdan majburiy o'tkazilishi lozim bo'lgan, ammo hali sertifikatlashtirishdan o'tmagan barcha mahsulot respublika hududida realizatsiya qilinishi (sotilishi) man etilgan.

Sertifikatlashtirishni O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida o'tkazish uchun respublika yoki chet el so'rovchi (arizachi) si bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan muvofiqlik idorasiga deklaratsiya - buyurtmanoma yuboradi. Deklaratsiya - talabnomaga sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlarni o'tkazish, sertifikatni rasmiylashtirish va uni Davlat ro'yxati (reestri)dan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar ilova qilinadi. Sertifikatlashtirish bo'yicha idora deklaratsiya –buyurtmanomani ko'rib chiqadi, ularni tekshiradi va tahlil qiladi, so'ngra 15 kundan kechiktirmasdan (hujjat kelib tushgandan so'ng) sertifikatlashtirish bo'yicha barcha asosiy shartlarni o'z ichiga olgan, ya'ni sertifikatlashtirish sxemasi va sertifikatlashtirish o'tkaziladigan me'yoriy hujjatlar ko'rsatilgan qarorni so'rovchi (arizachi)ga xabar qiladi. Undan tashqari qarorda sinovlarni o'tkazadigan akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari) va sifat tizimi yoki ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish (agar bu sertifikatlashtirish sxemasi bilan nazarda tutilgan bo'lsa) kim tomonidan o'tkazilishi ham ko'rsatiladi. Sertifikatlashtirish idorasining ijobiy qarorini olgan arizachi (talabgor) qarorda ko'rsatilgan sinov laboratoriyasi (markazi) bilan sinov o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni to'lash haqida xo'jalik shartnomasini tuzadi.

Sertifikatlashtirishning umumiy muddati bir oydan oshmasligi kerak. Sinovlarni o'tkazish uslublari, sinovlar uchun namunalar olish (tanlash) qoidalari va ularning maqsadi

hamda identifikatsiyalash (tenglashtirish, o'xshatish) va ularni saqlash me'yorlari sertifikatlashtirish me'yoriy hujjatlarida belgilab berilgan. Sinov namunalari O'z RH 51-094-98 (O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatlashtirish bo'yicha yo'riqnoma) rahbariy hujjat talablariga binoan identifikalashtiriladi.

Sinovlar o'tkazishdan asosiy maqsad –mahsulot sifat ko'rsatkichlarining haqiqiy qiymatlari haqida ob'ektiv va ishonchli axborot olish va ularni ushbu mahsulotni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholashdan iborat. Namunalar tanlab olish sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki sinov laboratoriyasi tomonidan so'rovchining ishtirokida amalga oshiriladi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Agar uning maxfiyligiga rioya qilish kerak bo'lsa, u holda tanlab olingan namunalar yopiq idishlarga solinib, muhrlanishi va kodlanishi mumkin. Bu paytda dalolatnoma uch nusxada tuziladi va ikkita nusxasi bojxona idorasiga yuboriladi. O'tkazilgan sinov natijalari bo'yicha sinov laboratoriyasi (markazi) qaror qabul qiladi va u vakolatlangan mutaxassislar tomonidan imzo chekilgandan so'ng laboratoriya (markaz) boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Agar sinov natijalari salbiy bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish idorasi arizachi (so'rovchi)ga sertifikat bermaslik to'g'risidagi rad xulosasi (javobi) ni yuboradi. Arizachi va sinov laboratoriyasi (markazi) o'rtasida sinov o'tkazish bo'yicha tuzilgan xo'jalik shartnomasiga asosan sinov namunalari saqlanadi, utillashtiriladi yoki arizachi (surovchi) ga etkazib beriladi.

Sertifikatlashtirish idorasi o'tkazgan sinov natijalari bo'yicha tuzilgan qarorni ko'rib chiqadi va u ijobiy bo'lsa, mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qiladi. So'ngra rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikati sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat ro'yxatiga (reestriga) kiritiladi va unga ro'yxatga olingan tartib raqami (nomeri) qo'yiladi. Aks holda u xaqiqiy deb hisoblanmaydi. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati uch yildan oshmasligi kerak.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar davriy ravishda O'zstandart («O'zstandart» agentligi)ning bosma idoralari tomonidan berilib turiladi.

Bojxona ta'minotida bo'lgan chetdan keltirilgan (import bo'yicha) mahsulotdan

namunalar tanlab olish bojxona idorasining ruxsati bilan bojxona inspektori va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida sertifikatlashtirish bo'yicha idora vakillari tomonidan bajariladi. Bunda uch nusxada tanlab olish dalolatnomasi tuziladi, ulardan ikkinchi nusxasi bojxona idorasiga topshiriladi. Qolgan protseduralar (ish tartibi) yuqorida qayd etilganidek amalga oshiriladi.

### **3.8. Chet el mamalakatlarining sertifikatlashtirish amaliyoti**

Mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlar xavfsizligini tekshirish bo'yicha o'tkaziladigan ishlar butun jahon miqyosida amalga oshiriladi. Mahsulot xavfsizligini tasdiqlash esa, mahsulotni sertifikatlashtirish orqali yoki sertifikatlarni tan olish hamda respublikadan tashqarida tovar ishlab chiqaruvchilarga tovarlari uchun berilgan tashqi muvofiqlik guvohnomalari orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda turli idora (tashkilot)lar tomonidan bajariladigan mahsulot xavfsizligini tekshirishning ko'plab protseduralari va uslublari mavjud. Bularga standartlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati, sanitariya – gigiena nazorati, mahsulotni mahkama (uchrejdenie) tekshiruvi va uni qabul qilish, milliy iste'molchi tashkilotlar tomonidan bajarilayotgan mahsulot sifati va xavfsizligini tekshirish bo'yicha faoliyatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Chet mamlakatlarda xavfsizlik va xususiy biznesning paydo bo'lgan an'analari sohasida yaxshi rivojlangan qonunchilikning mavjudligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot xavfsizligi, uni tekshirish, sinash va yaroqsizlantirish (utilizatsiya) javobgarligi ishlab chiqaruvchiga yuklatilgan. Davlatning tekshiruvchi idoralari yalpi tekshiruvlarni amalga oshirmaydi, ular faqat jabrlangan tomon yoki uning vakilini murojaati bo'yicha noinsof ishlab chiqaruvchilarga nisbatan sud tartibida zarur choralar qo'llaydi. Ko'plab chet mamlakatlarining qonunchiligi mahsulotning muayyan (mavjud) turlari va guruhlariga bo'lgan talablarni belgilovchi alohida qonunlardan tashkil topgan. Masalan, sertifikatlashtirish bo'yicha fransuz assotsiatsiyasi (AFNOR) ning ma'lumotlariga qaraganda, Evropa iqtisodiy hamjamiyati (EIH) a'zo mamlakatlarida va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EESA) da 500 dan ortiq buyumlar sertifikatlashtiriladi,

300 dan ortiq sertifikatlashtirish tizimlari va 700 dan ortiq sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ko'pdan buyon va keng miqyosda qo'llanilayotgan sertifikatlashtirish o'z mamlakatlari va o'z bozorlariga milliy standartlar yoki mamlakatda amal qilayotgan boshqa texnik me'yoriy hujjatlarga muvofiq kelmaydigan mahsulotlarni kirib qolishidan himoya qiladi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, chet mamlakatlarda bitta mahsulot uchun mo'ljallangan standartlar va boshqa turli texnik me'yorlar bir – biridan farq qiladi, natijada ular xalqaro savdoda texnik to'siqlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham jahon bozorida raqiblarni teng huquqli sherikchiligini ta'minlash uchun ularni muvofiqlashtirishni taqoza etadi.

Barcha chet mamlakatlarda sertifikatlashtirish idoralaridan tashqari ularning chegaralarida joylashgan maxsus xizmatlar ham mavjud. Bu xizmatlar chetdan olib kirilayotgan mahsulotning veterinariya (chorva va chorvachilik mahsulotlari), tez buzuluvchi mahsulotlar, alohida xavfli kimyoviy moddalar, transport vositalarini tekshiruv kabi tekshirish turlarini amalga oshiradi. 1947 yildan boshlab ta'riflar va savdo bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan bosh Bitim (SBB) jahon savdo qoidalarini ishlab chiquvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. 1993 yilning dekabrda SBB tarkibidagi Urugvay ko'p tomonlama savdo muzokaralarida SBBni jahon savdo tashkilotiga o'zgartirish to'g'risida taklif kiritdi va uni o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Hozirgi kunda 25 davlat ushbu tashkilot a'zosi hisoblanadi, ularning umumjahon tovar oborotini 90 foizini tashkil qiladi. Undan tashqari 20 ga yaqin davlatlar Bosh bitimga qo'shilish arafasida turibdi<sup>11</sup>. Sinov tashkilotlarini o'zaro tan olish va akkreditlash sohalarida xalqaro darajada davlatlar orasidagi hamkorlik 1977 yilda chiqarilgan sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha xalqaro konferensiya (ILAK) doirasida amalga oshiriladi.

---

<sup>11</sup> Архипов А.В. “Метрология, стандартизация, сертификация” Учебник для студентов вузов- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.- 495с

ILAK - bu xalqaro forum bo‘lib, uning vazifasiga laboratoriyalar (markazlar) ni akkreditlash mezonlarini xalqaro miqyosda uyg‘unlashtirish, xalqaro savdoda texnik to‘siqlarni bartaraf qilishga ko‘maklashish , xalqaro va milliy darajada amal qilayotgan sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar (organlar) bilan faol hamkorlik qilish kiradi.

### **3.9. Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat**

Shu narsani ta’kidlash joizki, mahsulotga berilgan har qanday muvofiqlik sertifikati ham o‘zining amal qilish davrida korxonada sifatli, inson sog‘ligi, uning hayoti va atrof-muhit uchun xavfsiz mahsulot ishlab chiqarilishini kafolatlay olmaydi. Shuning uchun ham sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o‘tkaziladi. Masalan, mahsulotni sertifikatlashtirishdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 28-bandiga asosan seriyalab ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustidan yiliga kamida bir marta inspeksion nazorat o‘tkaziladi.

Inspeksion nazoratning o‘tkazilishi va uning davriyligi mahsulotning tiri, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish muddati, hajmi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sertifikatlashtirishdan o‘tkazilgan tavsif va me‘yorlarini me‘yoriy hujjatlar talablari asosida nazoratdan o‘tkazish yo‘li bilan ularning barqarorligiga ishonch hosil qilish inspeksion tekshiruvning asosiy *maqsadi* hisoblanadi.

Agar mahsulot sifati me‘yoriy hujjatlar talablariga mos kelmasa, u holda inspeksion nazorat natijasi bo‘yicha berilgan muvofiqlik sertifikatining muddati vaqtincha to‘xtatiladi.

Inspeksion nazoratning asosiy vazifasi, sertifikatlashtirilgan mahsulotning me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlashdan iborat.

Mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasiga asosan inspeksion nazoratning ob‘ekti quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- mahsulotga belgilangan me‘yoriy hujjatlar, mahsulot tavsiflarini sinash usullari va ishlab chiqarish texnologiyasi;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot tavsiflari;

- ishlab chiqarish holati va sifat tizimlari;
- sertifikatlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish korxonalari va savdo tashkilotlarida saqlanish sharoiti;
- markalash va tashish jarayonlari;
- mahsulotga taqdim etiladigan (soprovajdayushie) hujjatlar;
- mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan markalanishi.

Inspeksion nazorat o'tkazishda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish idorasi yoki uning topshirig'iga ko'ra akkreditlangan boshqa nazorat idoralari xodimlari ishtirok etishadi. Agar mahsulot 5 va 6 sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan bo'lsa, u holda inspeksion nazoratga korxonaga sifat tizimini yoki ishlab chiqarish holatini sertifikatlashtirishda ishtirok etgan idora xodimlari ham jalb etiladi. Bu jarayonda sertifikatlashtirish, standartlashtirish va metrologiya sohasi bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan ekspert-auditorlar qatnashadi. Agar zarur bo'lsa, shartnoma asosida boshqa tashkilotlarning mutaxassislari ham qatnashishi mumkin.

**Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratdan o'tkazish tartiblari va bosqichlari.** Respublikada sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratdan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasining O'z RH 51-104: 2000 (O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion tekshiruvini o'tkazish tartibi) rahbariy hujjati bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat boshlash uchun muvofiqlik sertifikati bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilayotgan korxonaga va sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asos bo'ladi. Shartnomada bajariladigan ish turlari, ularni bajarish muddati va nazorat xizmatlari uchun to'lov shartlari ko'rsatiladi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat quyidagi tartib va bosqichlarda amalga oshiriladi:<sup>12</sup>

- nazoratga tayyorlanish;
- nazorat ob'ektlarining muvofiqligini baholash;

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining O'z RH 51-104: 2000 (O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion tekshiruvini o'tkazish tartibi) rahbariy hujjat

- nazorat natijalarini rasmiylashtirish.

Nazorat natijalari bo'yicha qaror va chora tadbirlar qabul qilish. Nazoratga tayyorlanish bosqichida sertifikatlashtirish idorasining inspeksion nazoratga jalb etilgan xodimlari tomonidan korxonaning ishlab chiqarish holati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar, amaldagi sifat tizimi, sertifikatlashtirilgan mahsulotdan foydalanish, ularni tashish, ishlab chiqarish korxonasi va savdo tashkilotlarida saqlanish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga majburiy talablar qo'yadigan me'yoriy hujjatlar to'liq o'rganib chiqiladi. Natijada nazorat turlari, mahsulotni sinash usullari aniqlanadi va inspeksion nazorat dasturi, anketa-savolnomalari tuziladi. Ularning bir nusxasi esa nazoratdan o'tadigan korxonaga beriladi. Inspeksion nazorat dasturi nazorat ishtirokchilari bilan kelishilgandan so'ng sertifikatlashtirish idorasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi va u inspeksion nazoratini boshlash uchun asos hisoblanadi

**Inspeksion nazorat dasturi, uning tarkibi va mazmuni.** Inspeksion nazorat dasturi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: komissiya tarkibi, nazorat o'tkazish muddati va joyi, nazorat maqsadi va ob'ekti, nazorat ishlarining hajmi, mazmuni va nazorat natijalarining maxfiyligiga quyiladigan talablar. Bular inspeksion nazorat dasturining qo'yidagi bandlarida o'z aksini topadi:

- umumiy ma'lumotlar;
- ishlab chiqarishni nazorat qilish;
- mahsulotni nazorat qilish;
- litsenzion shartnomalar shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;

Nazorat dalolatnomasini rasmiylashtirish. Inspeksion nazoratning «Tekshiruvni o'tkazish» bosqichida nazorat dasturining «Umumiy ma'lumotlar», «Ishlab chiqarishni nazorat qilish», «Mahsulotni nazorat qilish», «Litsenzion shartnomalariga rioya etilishini nazorat qilish» bandlaridagi ishlar bajariladi.

Inspeksion nazorat dasturining «Umumiy ma'lumotlar» bandida sertifikatlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarayotgan korxonaning rekvizitlari, inspeksion nazoratni o'tkazish joyi va vaqti, nazoratning asosiy maqsadi va vazifalari hamda nazorat komissiyasining tarkibi ko'rsatiladi. «Ishlab chiqarishni nazorat qilish» bandida mahsulotni sertifikatlashtirish sxemasiga asosan quyidagi ishlarni bajarish



rejalashtiriladi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulotga belgilangan me'yoriy va texnik hujjatlarning mavjudligi va ularga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilganligini nazorat qilish;

- bekor qilingan standart va texnik shartlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish;

- muvofiqlik belgisining to'g'ri qo'llanilishi, muvofiqlik sertifikatining asl nusxasi va nusxalardan to'g'ri foydalanishni aniqlash;

- sertifikatlashtirilgan mahsulotga berilgan reklamatsiya va iste'molchilarning narozichiliklarini hisobga olib borilganligi va ro'yxatdan o'tkazilganligi hamda ular to'g'risida o'z vaqtida sertifikatlashtirish idoralariga xabar qilinganligini tahlil qilish;

- korxonada omborlarida xom ashyo va butlovchi buyumlarning ehtiyoj zaxirasining mavjudligi va ularni saqlash sharoitini nazorat qilish;

- ish joylarida konstruktorlik va texnologik hujjatlar va korxonada ajratilgan sifatsiz mahsulotlarni saqlash uchun maxsus xonalarning mavjudligini o'rganish;

- sinov jihozlarning holati, sinov usullarining to'g'ri tanlanganligi, o'lchash asboblari va sinov jihozlarning mavjudligi hamda ularning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

- texnologik jarayonlarga rioya qilinishi, shu jumladan texnologik operatsiyalarning to'g'ri bajarilishini aniqlash;

- texnologik jihozlarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni rasmiylashtirilganligini tahlil qilish;

- mahsulotni ortish, tashish, tushirish, saqlash va omborlarda joylashtirish usullarini aniqlash;

- kirish nazoratining o'tkazilishi, xom ashyo va materiallari hamda yordamchi buyumlardan foydalanishning to'g'riligini o'rganib chiqish;

- sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tasdiqlangan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari bo'yicha ishlarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.

Inspeksion nazorat dasturining «Mahsulotni tekshirish» bandi mahsulotga belgilangan amaldagi me'yoriy hujjatlarni nazorat qilish, sinovlar uchun namunalar olish tartibi, sinovlar hajmi va sharti, sinovlar o'tkazish joyi, olidinlari o'tkazilgan sinov

natijalaridan foydalanish choralari, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni identifikatsiyalash tartibi va muvofiqlik sertifikatini bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini aniqlashni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu dasturning «Litsenzion shartnomalar shartlariga rioya qilish» bandida quyidagi masalalarni o'rganish rejalashtirilgan:

- sertifikatlashtirilgan mahsulotda muvofiqlik belgisining mavjudligi va uni to'g'ri qo'yilishi;

- muvofiqlik belgisini qo'llanganligi va litsenzion shartnomaning boshqa shartlariga rioya qilinganligi uchun litsenzion to'lovlarning to'g'riligi va muntazamligi.

Inspeksion nazorat dasturining «Ishlab chiqarishni tekshirish» bandida ko'rsatilgan savollar bo'yicha sertifikatlashtirilgan mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaning holatini tekshirish sertifikatlashtirish sxemalari asosida, mahsulotni nazorat qilish esa nazorat dasturining tegishli bandidagi savollari asosida amalga oshiriladi. Namunalar olish maxsus dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ularni sinovdan o'tkazish esa akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sinov laboratoriyalari (markazlari) da amalga oshiriladi. Bordiyu sinov laboratoriyalari bo'lmasa, u holda sinovlar belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan ishlab chiqarish korxonasining laboratoriyasida ham o'tkazilishi mumkin. Bunday hollarda sinov o'tkazish paytida inspeksion nazorat guruhi a'zolari hamda sertifikatlashtirish idorasining mas'ul xodimi ishtirok etadi. So'ngra sinov natijalari asosida bayonnoma tuziladi. Litsenzion shartnomalar shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish muvofiqlik belgisining mavjudligini aniqlashdan va uning buyumga, taraga, o'rab-bog'lash materialiga va kuzatuv hujjatlariga to'g'ri qo'yilganligini o'rganishdan boshlanadi. Nazorat bevosita ishlab chiqarish korxonasi yoki savdo tashkilotida o'tkaziladi. Inspeksion nazorat dalolatnomasini tuzish va nazorat ob'ektlarining muvofiqligini baholash ishlab chiqarish, mahsulot va muvofiqlik belgisini nazorat qilish natijalari asosida amalga oshiriladi. SHu narsani alohida ta'kidlash joizki, nazoratdan o'tkazilgan ob'ektlarni baholash bo'yicha xulosalar (qarorlar) aniq va shubhasiz to'g'ri bo'lishi kerak. Inspeksion nazorat dalolatnomasida esa alohida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning muhim tavsiflari baholari va sertifikatlashtirilgan mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablariga mos kelishi haqidagi xulosalarga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu dalolatnoma inspeksion nazorat

dasturining «Tekshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish» bandining talablari asosida rasmiylashtiriladi va uning birinchi nusxasi (ilovalari bilan) nazorat o'tkazilgan korxonalar, ikkinchisi sertifikatlashtirish idorasiga beriladi. Agar dalolatnoma ijobiy tuzulgan bo'lsa, u holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatini va belgisini qo'llashga huquq beradigan litsenzion shartnomani 15 kun maboynda tasdiqlaydi. Bordiyu inspeksion nazorat natijasida mahsulotning xavfsizligiga ta'sir qilmaydigan tavsiflarida kamchiliklar aniqlangan bo'lsa va ular me'yoriy hujjatlarning majburiy talablari bilan bog'liq bo'lmasa, u holda ham sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatini va litsenzion shartnomani qayta tasdiqlab, mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun ishlab chiqarish korxonasiga muddat beradi. Agar inspeksion nazorat natijasi bo'yicha mahsulotni me'yoriy hujjatlarning majburiy talablariga muvofiq kelmaganligi aniqlansa, u holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatining amal qilishini vaqtincha to'xtatadi va davlat nazorat idoralariga ishlab chiqarishni to'xtatilishi va mavjud kamchiliklarni tuzatish uchun kerak vaqitni kelishib olish to'g'risida qaror yuboradi. Agar korxonadan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha tuzilgan choratadbirlar belgilangan muddatda bajarilmasa, u holda sertifikatlashtirish idorasi mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikatini bekor qilish haqida qaror qabul qiladi va qarorni o'zining kitobida ro'yxatdan o'tkazadi. So'ngra qarorni mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaga va 5 kun muddat ichida O'zstandart («O'zstandart» agentligi), bojxona idoralari va kerak bo'lsa ommaviy axborot vositalariga beradi. Muvofiqlik sertifikatini bekor qilingan ishlab chiqarish korxonasi qarorini dalolatnoma orqali sertifikatlashtirish idorasiga qaytarib, tezlik bilan mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatadi. Agar savdo korxonalarida sotilmasdan qolgan mahsulot bo'lsa, ularni qaytarib oladi.

Shuning bilan birgalikda inspeksion nazoratdan o'tkazilayotgan mahsulot ilgari 5 va 6 sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha sertifikatlashtirilgan bo'lsa, u holda unga berilgan muvofiqlik sertifikatini va litsenzion shartnomasining amal qilish muddati ishlab chiqarish yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha idora qarori bilan ham vaqtincha yoki butunlay to'xtatilishi mumkin. Buning uchun ishlab chiqarish yoki sifat tizimini sertifikatlashtirish idorasi ishlab chiqarish yoki sifat tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish bo'yicha qaror

qabul qilishi kerak. Bunday hollarda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bergan idora uning amal qilish muddatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish bo'yicha qaror qabul qiladi.

**Tayanch iboralar:** Sertifikat, sertifikatlashtirish, Sertifikatlashtirish milliy tizimi, sifatni boshqarish tizimlari, muvofiqlik sertifikati, muvofiqlik belgisi, sertifikat turlari, sertifikatlashtirish idoralari, sertifikatlashtirish sxemalari, ixtiyoriy sertifikatlash, majburiy sertifikatlash, xalqaro sertifikatlash, sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish, inspeksion nazorat, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratdan o'tkazish, ekspert-auditor.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Sertifikatlashtirishning maqsadi nimadan iborat?
2. Sertifikat deganda nimani tushunasiz?
3. Sertifikat sohasida qo'llaniladigan qanday atamalarni bilasiz?
4. Muvofiqlik sertifikati nima?
5. Sertifikatning qanday turlari mavjud?
6. Akkreditlangan laboratoriya deganda qanday laboratoriyani tushunasiz?
7. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari qaysilar hisoblanadi?
8. Sertifikatsiyalashtirish idoralariga qanday talablar qo'yiladi?
9. Sertifikatsiya o'tkazishga tayyorlash va sertifikatatsiya o'tkazish qaysi jarayonlarni o'z ichiga oladi?
10. Sinov qaerda va kim tomonidan o'tkaziladi?
11. Sertifikatlashtirishning sxemalarini tushuntiring.
12. Majburiy sertifikatlashtirishni tushuntiring.
13. Qaysi hollarda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qilish taqiqlanadi?
14. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni qanday tushunasiz?
15. Sifat tizimi va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish deganda nimani

tushunasiz?

16. Sifat tizimini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirishda qanday tamoyillarga amal qilinishi kerak.

17. Qaysi hollarda sertifikat bekor qilinadi va to'xtatib qo'yiladi?

18. Chetdan olib kelingan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlar qanday sertifikatlashtiriladi?

19. Sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo'lgan hollarda kimga murojaat qilinadi?

20. Qaysi hollarda sertifikatlashtirish organlari javobgar bo'ladilar?

21. Ekspert-auditorlar qanday vazifalarni bajaradi?

22. Sertifikatlashtirish borasida ISO qaysi vazifalarni bajaradi?

23. Xalqaro sertifikatlashtirishning mohiyati va ahamiyati nimadan iborat?

24. Sifat to'garaklari nima uchun tashkil etiladi?

#### **IV-BOB. Mahsulot sifatini ta'minlash va boshqarish xizmati**

##### **4.1. Mahsulot sifatini ta'minlash xizmati haqida tushuncha**

Mahsulot sifatini ta'minlash, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va uni boshqarish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu muommani hal etishda standartlashtirish metrologiya va sertifikatlashtirish muhim rol o'ynaydi, chunki faoliyatning bu yo'nalishi mahsulot sifatini oshirish va ta'minlashning me'yoriy – huquqiy asoslarini yaratishga va dunyo standarti darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqishini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish hamda ichki bozorni egallashga yo'l ochib beradi.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish mahsulot sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Metrologiya mahsulot (xizmat) lar sifatini ilmiy – texnik nazorat qilishning asosi hisoblanadi. Qaerda mahsulot holati, o'lchamlari zamonaviy ishlash va o'lchash vositalari orqali aniqlansa, o'sha erda yuqori sifatga erishish mumkin.

Mahsulot (xizmat) ni sertifikatlashtirish esa ularni standartlar talablariga javob

berishini isbotlovchi ish tartiblarini belgilaydi. Bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash gorovi hisoblanadi.

Mahsulot (xizmat) sifatiga qo'yiladigan talablar ham standartlar va standartlashtirishning boshqa me'yoriy hujjatlari orqali belgilanadi. Standartda fan, texnika va xalqaro tajribaning ilg'or yutuqlari shakllanadi, chunki standartlarni tuzishda mahsulot sifatiga qo'yiladigan ichki va tashqi bozor, inson hayoti, mol - mulki va atrof muhit uchun xavfsizlik talablari belgilanadi. Shuningdek milliy standart va texnik shartlarning xalqaro, mintaqaviy va MDH davlatlararo standartlari bilan uyg'unlashtirish ham sifatni yaxshilash, uni ta'minlash va boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mahsulot uchun mo'ljallangan standart talablariga qat'iy rioya qilish (ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish paytlarida) mahsulot sifatini talab darajada ta'minlashga ko'plab imkon yaratib beradi. Standartlar mahsulot sifatini ta'minlash uchun: birinchidan - mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'p marta takrorlanib turiladigan texnologik jarayonlar va uning sifatiga qo'yiladigan talablarni aks ettirishi; ikkinchidan – eng yaxshi maqbul echimga asos bo'lishi; uchinchidan –amalga kiritilgan standart ma'lum muddat davrida o'zgarmaydigan hamda samarali bo'lishi va shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi shart.

Standartlashtirishning ushbu xususiyatlaridan oxirgisi (o'zgarmaydigan va samarali bo'lishi) e'tiborga ko'proq loyiq, chunki standart tez – tez o'zgaruvchan va samarasi pasaysa, u holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati ham pasayadi, sifatni ta'minlab bo'lmaydi va oxirida ishlab chiqarishning ham samaradorligi kamayadi, nihoyatda uni inqirozga uchrashiga ham sabab bo'ladi. SHuning uchun standartlar ham muntazam ravishda baholanib turiladi, kerak bo'lsa qayta ko'rib chiqiladi, kerakli o'zgartirishlar kiritiladi, bekor qilinadi yoki uning o'rniga fan va texnikaning ilg'or yutuqlariga asoslangan yangi standartlar yaratiladi.

Hozirgi kunda ham yangi ishlab chiqariladigan va amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos keladigan mahsulotning sifatini yanada yaxshilash va uni ta'minlash hamda boshqarish ustida samarali ishlar olib borilmoqda. Bunday chora – tadbirlar ichki va tashqi bozor, inson hayoti, uning mol – mulki va atrof– muhit uchun xavfsiz va jamiyat talablariga muvofiq keladigan mahsulot ishlab chiqarishda muhim omillardan biri bo'lib

hisoblanadi.

Ko'plab me'yoriy hujjatlar va ilmiy manbalarda mahsulot yoki xizmatga nisbatan «sifatni oshirish yoki yaxshilash», «sifatni ta'minlash», «sifatni boshqarish» kabi atamalar yoki tushunchalar ishlatiladi.<sup>13</sup>

Sifatni ta'minlash deb, mahsulot yoki xizmat sifatiga belgilangan ma'lum talablarni qondirishga ishonch hosil qilish uchun davriy ravishda rejalashtiriladigan va o'tkaziladigan chora - tadbirlar majmuiga aytiladi.

Sifatni ta'minlash bo'yicha o'tkaziladigan chora va tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- bozorni o'rganish; xom ashyo va materallar etkazib beruvchi korxonalarini qayta tayyorlash; ishchi xodimlar va mutaxassislarini yangi texnologiya talablariga muvofiq malakasini oshirish;

- texnologik jihozlar qismlarini o'z vaqtida almashtirish va ularga texnik xizmatlar ko'rsatish;

- o'lchash vositalarining holatini o'rganish va ularni qiyoslashdan o'tkazish;

- sifat tizimlarini qayta ko'rib chiqish va ularni xalqaro sifat tizimlari bilan uyg'unlashtirish va boshqarish.

#### **4.2. Mahsulot sifati to'g'risida tushuncha**

Ma'lumki, mahsulot sifati uning hayotiy bosqichlarida – tadqiqot qilish va loyihalash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishda (muomalada) shakllanadi.

Sifat - bu obektning ta'rif yoki tavsiflari majmui bo'lib, belgilangan va ko'zda tutilgan talablarni qondirish xususiyatidir yoki bo'lmasa sifat deb, iste'molchi talabini qondirish darajasiga aytiladi.

Ishlab chiqarish ob'ektlarida mahsulot sifati deganda, ushbu mahsulotni me'yoriy hujjatlar talabiga muvofiqligi tushuniladi.

Iste'mol tovarining sifati deb, uni nominal sharoitda o'z vazifasi bo'yicha iste'mol qilishda yoki ishlatishda haridorlar (iste'molchilar) ning ma'lum

---

<sup>13</sup>Абдувалиев А.А. и др. «Основы Стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции». Ташкент, 2002.

ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlarining majmuiga aytiladi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, sifat-bu mahsulotning ijobiy ko'rsatkichlari yig'indisi yoki sifat mahsulotning iste'mol xususiyatlarini belgilab beruvchi mezonlar majmui ekan.

«Sifat» tushunchasiga assortiment to'raligi va xilma – xilligini ham qo'shish mumkin, chunki bular iste'molchilar talablarini to'liq qondirishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Agar sifatni faqat tovarning me'yoriy hujjatlar tomonidan belgilangan talablarga mos kelishini belgilovchi omil sifatida qaraydigan bo'lsak, u holda biz faqat ishlab chiqarish sifati tushunchasini ta'riflagan bo'lamiz holos. SHuning uchun ham «sifat» tushunchasi keng ma'noga ega.

Mahsulot sifatiga talab va taklif ham bog'liq bo'ladi. Chunki yuqori sifatli mahsulot yoki tovar aholi talabini qondiradi va yuqori talabga ega bo'ladi. Sifatsiz tovar esa, savdo shaxobchalarining peshtoqlarida turib qoladi va aholi talabiga ega bo'lmasdan, natijada korxonalar yoki xususiy tadbirkorni inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash – bu respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biridir. Tayyor mahsulot sifatini yaxshilash yoki bajarish bilan uning iste'mol qilish muddati uzayadi, tannarxi va mehnat sarfi kamayadi, jahon bozorida raqobatbardoshligi oshadi, korxonalar iqtisodiyoti yaxshilanadi va iste'molchining talabi to'laroq qondiriladi. SHuning uchun ham tovar (mahsulot) sifati davlat miqyosida rejalashtirish va sifatni boshqarish ob'ekti hisoblanadi. SHuningdek, mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.

Tovar (mahsulot) sifatining yuqoriligi u yoki bu ishlab chiqarish tarmog'ida fan, texnika va texnologiyaning yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb muommalaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bu vazifa bozor iqtisodiyoti yoki munosabatlarining talablaridan kelib chiqadi.

Respublikada amal qilayotgan qonun – qoidalarga asosan iste'molchilar talabi va amaldagi modaga mos kelmaydigan past sifatli mahsulot ishlab chiqargan korxonaga nisbatan iqtisodiy jarima (sanksiya)lar qo'llaniladi. Agar bunga ishchilar aybdor bo'lsa, u



holda ularga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy jazolar qo'llaniladi.

Mahsulot sifatining shakllanishida unga juda ko'plab omillar ta'sir etadi va bu omillar shartli ravishda texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bo'linadi. Bu omillar o'z navbatida ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ajratiladi. Ob'ektiv omillarga ko'proq texnik omillar kiradi: buyum konstruksiyasi, ishlab chiqarishni mexanizatsiya va avtomatizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish bazasining texnik darajasi, nazoratning texnik vositalari, zamonaviy texnologiya va boshqalar.

Sub'ektiv omillarga inson faoliyati bilan bog'liq omillar (kishilarning qobiliyati, ishlab chiqarish vazifalari (funksiyalari) ni bajarishga munosabati) kiradi.

Texnik omillarga asbob – uskunalarning jihozlanishi, nazorat vositalari va texnik hujjatlarning holati, dastlabki materiallar hamda yarim fabrikatlarning sifati yangi texnik vositalar (jihozlar) ning mavjudligi dastlabki materiallar hamda yarim fabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

Tashkiliy omillar rejali va bir maromda ishlash, texnik xizmat va jihozlarni ta'mirlash, materiallar, butlovchi buyumlar, jihozlarni texnologik hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy omillar mehnatga xaq to'lash shakllari, oylik maoshining miqdori, yuqori sifatli mahsulot va ishni rag'batlantirish, mahsulot yaroqsizligi uchun ish xaqidan ushlab qolish, mahsulotning sifat darajasi, tannarxi va bahosi kabi omillardan tashkil topadi.

Ijtimoiy omillarga kadrlarni tanlash, ularni joy- joyiga qo'yish, malaka oshirishni tashkil qilish, ilmiy – texnik ijod, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, jamoaning turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit va tarbiyaviy ishlar kiradi. Bu omillar sifatga alohida yoki birgalikda ta'sir etishi mumkin.

### **4.3. Mahsulot sifatini boshqarish, uning mazmuni va ahamiyati**

Mahsulotni yaratish, ishlatish yoki iste'mol qilish davrida uning sifatini aniqlash, ta'minlash va etarli darajada saqlash bo'yicha o'tkaziladigan ishlar majmuini sifatni

boshqarish jarayonini tashkil qiladi.

Mahsulot sifatini boshqarish sifat tizimi bo'yicha belgilangan xalqaro standartlarni qo'llash orqali mahsulot (xizmat) sifati va raqobatbardoshligini oshirish choralarini ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etishda ijobiy yondashishni ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hayotiy davrining boshlang'ich, ya'ni tadqiqot va loyihalash hamda ishlab chiqarish bosqichlarida bajariladigan texnik va boshqa jarayonlarni puxtalik bilan amalga oshirishga qaramasdan, mahsulotni ko'p partiyali yoki seriyali ishlab chiqarishda uning sifati bo'yicha ayrim kamchiliklar (cheklanishlar) paydo bo'lishi mumkin. Bu kamchiliklar yoki cheklanishlarning kelib chiqishiga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish texnologiyasining talab darajasida emasligi yoki eskirishi, jihoz va asbob – uskunalarning eskirishi yoki buzilishi, ishlab chiqarish bazasining texnik darajasining talabga javob bermasligi, ishchi xodimlar va mutaxassislar malakasining pastligi yoki ularning o'z vazifalariga layoqatlik bilan qarashi, xom ashyo va materiallar sifatining talab darajasidan pastligi, tayyor mahsulotni saqlash rejimining buzilishi va boshqalar.

Mahsulot sifatini pasayishi yoki uning sifatida ayrim cheklanishlarning kelib chiqishi ishlab chiqarish korxonasidagi davlat, ishlab chiqarish va texnologik intizomning buzilishi hamda ishchi va rahbar xodimlarning mahsulot sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatari bilan o'zaro bog'liq<sup>14</sup>.

Agar mahsulot sifatidagi cheklanishlar yoki ayrim kamchiliklar me'yoriy hujjatlarda belgilangan chegaradan chiqmasa, u holda bunday cheklanishlar ruxsat etiladigan cheklanishlar deyiladi va bu mahsulot realizatsiya qilish uchun yaroqli hisoblanadi. Aks holda esa, mahsulot nuqsonli deb ataladi va bunday mahsulot realizatsiya qilish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

Mahsulot sifatida tuzatib bo'lmaydigan nuqsonlar ( kamchiliklar) mavjud bo'lsa, bunday mahsulot sifatsiz (yaroqsiz) yoki brak deyiladi. Bunday mahsulotni muomalaga chiqarish mumkin bo'lmaydi.

Shunday qilib, sifatni boshqarish yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni

---

<sup>14</sup> Graeme Knowles. Quality Management. Ventus publishing Aps, 2011

bartaraf etish, ya'ni mahsulot sifatini me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablariga moslashtirish bo'yicha qo'llaniladigan uslublar va faoliyatdan iborat ekan.

Sifatni boshqarish bir vaqtning o'zida jarayonni boshqarish va maqbul iqtisodiy samaraga erishish uchun mahsulot hayot davrining tegishli bosqichlarida qilingan noto'g'ri harakat sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tezkor harakterdagi uslub va faoliyat turlarini ham o'z ichiga oladi.

Sobiq Ittifoq respublikalarida qabul qilingan metodologiya cheklanishlarni aniqlash, ularning sabablarini bartaraf etish, mahsulotni nazoratdan o'tkazish, cheklanish va iste'molchilar takliflarini inobatga olish hamda ular asosida qarorlar qabul qilishga asoslangan.

Sifatni boshqarish bo'yicha qarorlar kundalik mavjud va bundan oldin to'plangan ma'lumotlar asosida tuzilib, cheklanishlar sabablarini bartaraf etishga qaratilgan va aniq yozilgan bo'lishi kerak. Qarorda mas'ul xodimlar va bajarish muddatlari ko'rsatilishi shart. Bunday qarorlar mahsulot hayot davrining har bir bosqichi bo'yicha alohida – alohida qabul qilinadi.

Ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini boshqarish nazorat kartalarini qo'llash asosida statistik uslublar yordamida amalga oshiriladi. Bunday usul mahsulot sifati va boshqa ko'rsatkichlaridagi cheklanishlarning sababini oldindan bartaraf etish hamda sifatsiz (nuqsonli) mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun imkon yaratib beradi. Demak, mahsulotdagi mavjud nuqsonlarning kelib chiqish sabablarini maksimal darajada bartaraf etishga qaratilgan chora – tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish sifatni boshqarishning asosiy mohiyati hisoblanar ekan.

Sifatni boshqarish ob'ektiga qayta ishlab chiqarishni shakllantirish jarayonlari, boshqarishning barcha darajalarida mahsulot sifatini saqlash va qayta tiklash hamda mehnat vositalari va predmetlari, mehnat resurslari, mehnat sifati, ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlar kiradi.

Sifatni boshqarish ob'ektiga 9000 seriyali xalqaro standartlarning mafkurasi (ideologiyasi) ga asosan korxonalar (kompaniya) yoki tashkilotning sifat tizimlari ham kiradi, chunki sifatni ta'minlash bo'yicha ularda belgilangan chora – tadbirlar bozor va iste'molchi talablari va texnologik jarayonlarning o'zgarishi asosida o'zgartiriladi. Sifatni

boshqarish me'yorlari yoki vositalariga quyidagilar kiradi: mahsulot sifat ko'rsatkichlari va maqsadga muvofiqligiga reglament belgilovchi me'yoriy hujjatlar, mehnat jarayonlarini boshqarish va tashkil qilish vazifalari (funktsiyalari), nazorat – sinov, o'lchash, ma'lumotlar beruvchi (spravochnie) va hisoblash vositalarini o'z ichiga oluvchi axborotlar va metrologik ta'minotlar.

Mahsulot sifatini rejalashtirish va prognoz qilish, mahsulotni attestatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarishini tadbiq qilish va yo'lga qo'yish, sifatni oshirganligi uchun iqtisodiy rag'batlantirish, sifatni nazorat qilish va metrologik ta'minot sifatni boshqarish elementlari hisoblanadi.

#### **4.4. Sifatni boshqarish tizimlari**

Har bir korxonada (kompaniya) yoki tashkilot o'zining sifatli mahsulot ishlab chiqarishi yoki yaxshi xizmat ko'rsatishidan manfaatdor bo'ladi, chunki bu bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir. Shuningdek, har qanday sifatli mahsulot yoki xizmat quyidagi talablarga muvofiq kelishi kerak:

- iste'molchining ma'lum bir ehtiyojini qondirishi;
- ekspluatatsiya qilinishini maqsadga muvofiq kelishi;
- iste'molchilarning talablarini to'liq qondirishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari va harakatdagi qonun – qoidalar - hamda jamiyatning boshqa talablariga javob berishi;
- iste'molchilarga raqobat narxida taklif qilinishi;
- korxonadan foyda olinishini ta'minlash va boshqalar.

Bu vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmat sifatiga ta'sir etuvchi barcha texnik, texnologik, ma'muriy, ijtimoiy, tarbiyaviy va boshqa omillarni korxonada (kompaniya) yoki tashkilot raxbarlari hamda sifat uchun mas'ul xodimlarning doimiy nazoratida bo'lishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqarilgan sifatsiz mahsulot miqdorini aniqlash, nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini keskin qisqartirib borish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishning oldini olish uchun chora – tadbirlar ishlab chiqish ham korxonada

(kompaniya) yoki tashkilot rahbarlarining kundalik rejasi bo'lishi kerak. U holda korxonada (kompaniya) yoki tashkilot mahsulot sifatni boshqarish faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

Sifatni boshqarish xalqaro tizimlarining milliy sifat tizimlaridan farqi ham aynan yuqorida ko'rsatib o'tilgan maqsad va vazifalarni nazarda tutishidir.

Ko'p hollarda mahsulot (xizmat) sifatini ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- korxonada (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni ta'minlashga erishgan darajasi hamda sifat sohasidagi siyosatining maqsadi ;
- sifatni ta'minlash bo'yicha mas'ul xodimlarning mas'uliyatlikni sezish darajalari;
- texnik, texnologik, ma'muriy, insoniy, ijtimoiy va tarbiyaviy tadbirlar kompleksida sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir etuvchi omillarni to'liq qamrab olish va boshqalar.

Demak, har bir ishlab chiqarish korxonasi (kompaniyasi) sifatni doimo ta'minlash va unga samaraliroq rahbarlik qilish maqsadida umumiy tizimga ega bo'lishi shart va u korxonada (kompaniya) sifatni boshqarish bo'yicha belgilangan maqsadga erish uchun xizmat qilishga qaratilishi kerak. Sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimining mazmuni esa korxonada (kompaniya) faoliyati yo'nalishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi, ishlab chiqarish texnologiyasi va mahsulot assortimentining murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, korxonada (kompaniya) yoki tashkilotning umumiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini belgilangan darajasiga erishish va uni saqlab turishiga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun korxonada (kompaniya) yoki tashkilot o'zidagi mavjud texnik, texnologik, insoniy va boshqa resurslarini to'g'ri rejalashtirishi va ulardan samaraliroq foydalanishi kerak. Bulardan tashqari korxonada (kompaniya) yoki tashkilot o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot (xizmat) ning yuqori sifatli ekanligi va bu sifatni saqlab tura olish imkoniyatiga ega ekanligi to'g'risida iste'molchida ishonch hosil bildira olishiga erishish kerak. Bu muammolarning echimi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonada (kompaniya) yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimi bilan to'g'ridan – to'g'ri o'zaro bog'liq. Shuning uchun ham mahsulot ishlab

chiqaruvchi korxonalar (kompaniya) yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning sifatga umumiy rahbarlik qilish tizimlari korxonalar (kompaniya) yoki tashkilot ehtiyoji va talablari hamda iste'molchilar ehtiyojlari va talablari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Korxonalar (kompaniya) yoki kompaniyaning sifat tizimi sifatga umumiy rahbarlik qilish faoliyatining asosini tashkil etadi va bu asos korxonalar (kompaniya) yoki tashkilotning sifat bo'yicha siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida qo'llaniladi va u boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tizim deganda, bir – biri bilan o'zaro munosabatda va bog'liq bo'lgan hamda ma'lum bir butunlikni (umumiylikni) hosil qiluvchi elementlar to'plami tushuniladi yoki tizim – bu umumiy belgilari bo'yicha birlashgan qandaydir elementlar yoki birliklar majmuidir .

Demak, tizim deyilganda, bir – biri bilan o'zaro uzviy bog'langan elementlar yoki birliklar to'plami tushunilar ekan. To'plamning har bir elementi yoki birligi esa tizimning tarkibiy qismini tashkil qiladi. «Tizim» tushunchasi texnika va texnologiya sohasida grafik shaklida ifodalanadi va u xalqaro tajribada ham qo'llaniladi.

Tashkiliy tuzilish, mas'uliyatlar, bajariladigan vazifalar va ishlar, jarayonlar, xom ashyo va insoniy resurslar mahsulot sifati tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning soni mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan texnologiya va jihozlar hamda asbob – uskunalarning murakkabligi, nazorat va mahsulot turlariga bog'liq bo'ladi, chunki bu omillar qancha keng va zamonaviy bo'lsa, tizim elementlari shuncha ko'p bo'ladi.

ISO 8402 – 86 xalqaro standartida «sifat tizimi» quyidagicha ta'riflanadi. Sifat tizimi – bu sifat bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlaydigan tashkiliy tizimlar, mas'uliyatlar, ishlar (vazifalar), jarayonlar va resurslar majmuidir.<sup>15</sup>

Yana boshqa bir talqinda «sifat tizimi» quyidagicha ta'riflanadi. Sifat tizimi - bu birinchi navbatda korxonalar (kompaniya)da iste'molchiga kerak bo'lgan mahsulotni etkazib berish yoki tashkilotga xizmat ko'rsatishga imkon yaratib beruvchi ishlarni tashkil etishdagi muayyan usuldir.

«Sifat tizimi» haqidagi bu ikkala ta'rifning ham ma'nosi deyarli bir xil, chunki

---

<sup>15</sup> ISO 8402 – 86 (Kachestvo. Slovar.)

ular birinchidan – sifatli mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'molchiga etkazib berish ; ikkinchidan – iste'molchiga yaxshi va sifatli xizmat ko'rsatish va uchinchidan sifat bo'yicha umumiy rahbarlikni ta'minlashga qaratilgan.

Demak, sifat tizimi korxonalar (kompaniya) yoki tashkilotning sifatni boshqarish bo'yicha faoliyati, jamiyat va iste'molchilar talablari asosida tuzilar ekan. Jahon amaliyotida ko'pchilik firmalar va kompaniyalar o'zlarining ta'minlovchilari bilan allaqachonlar sifat tizimlari asosidagi o'zaro munosabatlarga o'tishgan.

#### **4.5. Sifat tizimining elementlari**

Mahsulot sifatini ta'minlash, uni boshqarish va oshirish bo'yicha mas'uliyatlar, resurslar (insoniy, texnik, mehnat va boshqalar), texnologik jarayonlar, sifatni boshqarish yo'nalishlari va mahsulot hayotining umumiy davri sifat tizimi elementlari hisoblanadi. Shuning uchun ham sifat tizimining elementlari va mahsulot sifatini ta'minlash, oshirish hamda boshqarish bo'yicha bajariladigan vazifalar (ishlar) korxonalar (kompaniya) ishlab chiqarayotgan mahsulot assortimenti va texnologik jarayonlarining murakkabligi bilan o'zaro bog'liq bo'ladi.

ISO 9004 – 87 xalqaro standartida ko'rsatilishi bo'yicha korxonalar sifat tizimlarini ishlab chiqishda qo'llanishi mumkin bo'lgan elementlar quyidagilardan iborat:<sup>16</sup>

- dalillar (isbotlar);
- korxonalar sifat tizimida ishlatiladigan asosiy tushunchalar;
- sifat bo'yicha rahbariyatning mas'ulligi yoki mas'uliyatlar;
- sifat tizimining yo'nalishlari (tamoyillari);
- iqtisod va sifatni ta'minlash harajatlari bo'yicha fikr va mulohazalar;
- marketing doirasidagi sifat;
- texnik shartlarni loyihalash va ularni ishlab chiqishdagi sifat;
- moddiy texnik – ta'minot sifati;
- ishlab chiqarish jarayonidagi sifat;

---

<sup>16</sup> ISO 9004 – 87 Общее руководство качеством и стандарты по обеспечению качества. Международный стандарт

- ishlab chiqarishni boshqarish;
- mahsulot nazorati yoki tekshiruvi;
- nazorat – o‘lchash texnik vositalari va sinash jihozlarini ta’minlash bo‘yicha ishlar;
- nomuvofiqlik;
- nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun chora va tadbirlar;
- mahsulotni ortish va tushirish ishlari hamda ishlab chiqarishdan so‘ngi operatsiyalar;

- hujjatlar va sifat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ro‘yxatga olish;
- xodimlar (ishchi, mutaxassis, rahbar);
- mahsulot xavfsizligi va yuridik mas’uliyat;
- statistik uslublarni qo‘llash;

Sifat tizimining «Dalillar (isbotlar)» moddasida korxonada sifat tizimini ishlab chiqishda foydalaniladigan quyidagi me’yoriy hujjatlar manbalari ko‘rsatilgan:

- ISO 8402. Sifat. Lug‘at;
- ISO 9000. Sifatga umumiy rahbarlik qilish va sifatni ta’minlash bo‘yicha standartlar. Tanlash va qo‘llash bo‘yicha rahbariy ko‘rsatmalar;
- ISO 9001. Sifat tizimlari. Loyihalash va tuzish, ishlab chiqarish, montaj qilish va xizmat ko‘rsatishda sifatni taminlash uchun andoza (model);
- ISO 9002. Sifat tizimlari. Ishlab chiqarish va montaj qilishda sifatni ta’minlash uchun andoza (model);
- ISO 9003 Sifat tizimlari. Oxirgi nazorat va sinashda sifatni ta’minlash uchun andoza (model).

Sifat tizimining «Korxonada sifat tizimini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan tushunchalar» moddasida tizimda qo‘llaniladigan atama va tushunchalarning ta’rifi berilgan. Bular quyidagilardan iborat:

- tashkilot – filial yoki mustaqil bo‘lgan jamoa yoki shaxsiy kompaniya, korporatsiya, firma yoki korxonada;
- kompaniya (korxonada) – mahsulot yoki xizmatni etkazib beruvchi (ta’minlovchi) birinchi tomon;
- jamiyat talablari – qonunlar, qonun hujjatlari, qonunlar to‘plami, jamiyat



talablari va qoidalari, atrof – muhitni muhofaza qilish, inson sog‘ligini saqlash, xavfsizlik omillari, energiya va materiallarni tejash mezonlari;

- iste‘molchi - oxirgi iste‘mol qiluvchi, foydalanuvchi, buyurtmachi, mijoz, oluvchi yoki ikkinchi tomon.

Ushbu standartning «Sifat bo‘yicha rahbariyat mas‘uliyati» moddasida korxonalar (kompaniya) rahbariyatining sifat sohasidagi korxonalar siyosati va uning maqsadini shakllantirishdagi mas‘uliyatlari hamda sifat tizimining ishlash shartlari ko‘rsatilgan. «Sifat tizimlari yo‘nalishlari (tamoyillari)» moddasida esa, sifat tizimiga asos qilib olingan yo‘nalishlar, mahsulotning hayot davri bosqichlari, sifat tizimining tuzilishi, tizim hujjatlari, sifat tizimini nazorat qilish, sifat bo‘yicha umumiy rahbarlik, tahlil qilish va baholash me‘zonlari ko‘rib chiqilgan.

Sifat tizimining «Iqtisod va sifatni ta‘minlash harajatlari bo‘yicha mulohazalar» moddasida kerakli tizim elementlarini tanlash, sifat bilan bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan harajatlarga umumiy tushunchalar va ularni ta‘minlash bo‘yicha umumiy ko‘rsatmalar tartibi ko‘rsatilgan. «Marketing doirasida sifat» moddasida esa, mahsulot sifatini belgilovchi iste‘molchilar va bozor talablari hamda iste‘molchilar tomonidan mahsulot sifati to‘g‘risida ma‘lumotlar olish va tahlil qilish tartiblari ko‘rsatib berilgan.

«Nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun ta‘sir etish tartiblari» moddasida kamchilik yoki nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun mas‘ul xodimlar tayyorlash, ularning muhimligini baholash, umuman nomuvofiqliklar muommasini o‘rganish va ularni oldini olish chora –tadbirlari hamda texnologik jarayonlarni boshqarish bo‘yicha harakat turlari va nomuvofiq mahsulotlarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish tartiblari ko‘rsatib berilgan. Sifat tizimining «Ortish va tushirish ishlari va ishlab chiqarishdan so‘ngi operatsiyalar» moddasida ortish – tushirish ishlari, omborga joylash, ajratish, markalash, o‘rab-bog‘lash, qadoqlash va iste‘molchilarga etkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar to‘g‘risida ko‘rsatmalar berilgan. «Hujjatlar va sifat to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ro‘yxatga olish» moddasida boshqarish jarayonlarida ishlatiladigan va ro‘yxatdan o‘tkaziladigan hujjatlar ro‘yxati keltirilgan. Ushbu tizimning «Xodimlar» moddasida xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini baholash va rag‘batlantirish tartiblari ko‘rsatib berilgan.» Mahsulot xavfsizligi va yuridik mas‘uliyat» moddasida

mahsulot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yuridik mas'uliyatlar va «Statistik usullarni qo'llash» moddasida ushbu uslublarni qo'llash sohalari ko'rib chiqilgan va boshqalar.

#### **4.6. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishdan o'tkazish**

Sifat tizimini sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun korxonalar (kompaniya) sertifikatlashtirish idorasiga buyurtmanoma va unga qilingan ilova yuboriladi. Ilovada sifat bo'yicha qo'llanma, sifat haqidagi axborot, reklamalar haqidagi ma'lumotlar, muvofiqlik sertifikati va shunga o'xshash hujjatlar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish idorasining iltimosiga ko'ra korxonalar sifat tizimi haqida boshqa qo'shimcha ma'lumotlar ham taqdim etilishi mumkin. Sifat tizimini sertifikatlashtirish quyidagi ikki asosiy bosqichdan iborat bo'ladi:

- sifat tizimini dastlabki tekshirish (ISOga aynan o'xshashlik auditori);
- sertifikatlashtirish auditori va muvofiqlik sertifikatini berish.

Sifat tizimini dastlabki tekshirish (baholash) bosqichi sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni keyinchalik o'tkazilishini maqsadga muvofiqligini aniqlash va sifat tizimini audit dasturini ishlab chiqish uchun amalga oshiriladi. Auditni o'tkazish uchun esa tekshiruv rahbari (bosh ekspert- auditor) boshqaradigan komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibiga sifat tizimlarini sertifikatlashtirishdan o'tkazish huquqiga ega bo'lish uchun attestatsiyalangan ekspert – auditorlar ham kiradi.

Sifat tizimini dastlabki baholanishi (tekshirish) sertifikatlashtirish auditori o'tkazish haqidagi bayonnoma (qaror) hamda so'rovchi (arizachi) va sertifikatlashtirish idorasi o'rtasida shartnoma tuzilishi bilan yakunlanadi. Audit dasturi audit boshlanishidan oldin so'rovchi (arizachi) bilan kelishib olinadi.

Ikkinchi bosqich yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun va qoidalar asosida amalga oshiriladi. Sifat tizimlarini joriy etish va ularni sertifikatlashtirish korxonalar (kompaniya) yoki tashkilotga quyidagi afzalliklarni beradi :

- samarali boshqarish ta'minlanadi. mahsulot sifatining barqarorligiga rahbariyatda ishonch hosil bo'ladi;
- iste'molchilardan mahsulotni qaytib kelish shikoyatlari kamayadi;

- korxonada xodimlariga qiziqarli, barqaror va ko'p haq to'lanadigan ish shakllanadi;
- korxonada obro'yi va davlat buyurtmasini olish istiqbollari oshadi; korxonaning raqobatbardoshligini oshishi va ekspert potentsiali rivojlanadi;
- ishlab chiqarishni ko'paytirish, sarf-harajatlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hisobiga korxonada daromadini jiddiy o'sishi va boshqalar.

#### **4.7. O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimining rivojlanish istiqbollari va takomillashtirish yo'llari**

Standartlashtirishni muntazam ravishda rivojlantirib va takomillashtirib borilishi aholi sog'ligi, uning mol-mulki va atrof-muhitni har qanday salbiy ta'sirlardan himoya qilishda va aholining moddiy hamda ma'naviy farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Haqiqatdan ham standartlashtirish, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, mahsulot (xizmat)ning aholi hayoti, sog'ligi, mol-mulki va atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlashda, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlikda uchraydigan texnik to'siqlarni bartaraf etishga hamda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan eng samarali vosita hisoblanadi. Demak, standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega ekan. Shu sababli «O'zstandart» markazi va uning vorisi bo'lgan «O'zstandart» agentligi, vazirliklar, standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar, tayanch tashkilotlar respublikamizda milliy standartlashtirish tizimini barpo etish va standartlashtirish infrastrukturasi shakllantirish bo'yicha ma'lum darajada ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Buning natijasida respublikamiz va xalqaro tajribaga asoslangan standartlashtirishni boshqarishning o'ziga xos modeli yaratildi.

Mamlakatda milliy standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini isloh qilish 1997 yildan boshlangan va u O'zbekiston hamda Jahon savdo tashkiloti bilan savdodagi texnik to'siqlar bo'yicha tuzilgan bitim bilan bevosita bog'liq. Isloh qilishning asosiy mahsadi

esa, respublikamizni Jahon Savdo Tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishiga tayyorlashdan iborat.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, Yevropa ittifoqi eksperti o'zining hisobotida respublikamizning standartlashtirish bo'yicha qonunlari Jahon Savdo Tashkiloti va Yevropa ittifoqining qonunlariga to'liq muvofiqlashtirilmaganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuning uchun respublikamizning amaldagi qonunlariga JSTning asosiy tamoyillari va me'yoriy hujjatlaridagi farqlarni hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritilishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

Hozirgi kunda Yevropa ittifoqi ekspertining ko'rsatib o'tgan kamchiliklari bo'yicha respublikamizning amaldagi qonunlariga standartlashtirish, sertifikatlashtirish tizimlarining asosiy qoidalariga qo'shimchalar kiritilgan.

Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini takomillashtirish xalqaro savdodagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro standartlarni qo'llash va ularning talablariga muvofiq ishlab chiqarilayotgan mahsulotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Demak, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro standartlar bilan bir qatorda milliy standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni etakchi chet el mamlakatlarining me'yoriy hujjatlari bilan ham o'yg'unlashtirishni taqoza etadi. Buning uchun «O'zstandart» agentligi xalqaro va etakchi chet el mamlakatlarining standartlashtirish tashkilotlari bilan standartlarning qo'llanilish qonuniyligi va ularga kiritiladigan o'zgartirishlarni bir-biriga muntazam ravishda taqdim etilishi to'g'risida ikki va ko'ptomonlama bitimlar tuzishi kerak bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, respublika standartlashtirish tizimlaridagi ayrim nomuvofiqlarni e'tiborga olgan holda va uni bartaraf etish maqsadida hamda xalqaro standartlashtirishning hozirga va kelajakdagi talablar asosida O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini yanada takomillashtirish maqsadida «O'zstandart» agentligi tomonidan «O'zbekiston Respublikasida xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda standartlashtirish, sifatini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va

takomillashtirish «Konsepsiyasi» va uni amalga oshirish chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilgan va u standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bo'yicha Idoralararo kengashning majlisida qabul qilingan.

Hozirgi kunda respublika davlat boshqaruv idoralari, yuridik shaxslar birlashmalari va boshqa tegishli tashkilotlar mahsulot (xizmat)larga belgilangan me'yoriy hujjatlarning barcha fondini Jahon Savdo Tashkiloti talablariga muvofiq, xalqaro standartlari asosida ilmiy-texnik ekspertizadan o'tkazish ishlari tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida amalga oshirilmoqda.

«Konsepsiya»da standartlashtirishning qonuniy, me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, milliy standartlar maqomini xalqaro standartlar maqomiga yaqinlashtirish, mahsulot (xizmat)larini sertifikatlashtirish tizimini qayta ko'rib chiqish va soddalashtiri, xalqaro standartlarni milliy standartlar sifatida qabul qilish masalalari, xavfsizlik va ekologiya, axborot texnologiyalari, resurslarni tejash va mahsulot sifatini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar o'z ifadasini topgan.

Respublikada «Konsepsiya chora-tadbirlari Dasturi»ni to'liq amalga oshirilishi milliy standartlashtirish va sifatini ta'minlash tizimlari me'yoriy hujjatlarining darajalarini xalqaro standartlar darajasiga tenglashtirishga imkon yaratib berish bilan bir qatorda O'zbekistonni Jahon Savdo Tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi uchun ham barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi.

Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirish Konsepsiyasi kirish qismi va 9 bo'limdan tuzilgan bo'lib, uning 1-bo'limi «Mahsulot raqobatbardoshligini va sifatini oshirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarining hozirgi holati va uni takomillashtirish vazifalari» deb ataladi. Unda amaldagi me'yoriy hujjatlar darajasi va ularning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini aniqlash, texnik reglamentlararo standartlashtirish tizimlarini shakllantirish va qo'llash, me'yoriy hujjatlarni xalqaro texnik reglamentlar va standartlarga muvofiqligini aniqlash protsedurasi (ish tartibi) to'g'risidagi vazifalar rejalashtirilgan.

Konsepsiyaning «Respublikani Jahon Savdo tashkilotiga kirishiga tayyorlash sharoitida xalqaro tajribani hisobga olgan holda davlat standartlashtirish tizimini

takomillashtirish» deb nomlangan 2 bo‘limida Jahon Savdo Tashkiloti a‘zolari bo‘lgan davlatlar bilan axborotlar almashish usullari, texnik qonunlar majmuini shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishlari, xavfsizlik va ekologiya, axborotlar texnologiyalari, resurslarni tejash, mahsulot sifatini me‘yoriy ta‘minlash, tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari, xizmatlari va standartlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari sohalaridagi vazifalar ko‘rsatib berilgan.

Konsepsiyaning 3 - «Standartlashtirish sohasida xalqaro hamkorlik» bo‘limida Respublikaning ushbu sohada xalqaro hamkorligidagi asosiy vazifalari belgilangan. Ushbu Konsepsiyaning 4-bo‘limida standartlashtirishni axborotlar bilan ta‘minlanishi va mahsulotni kataloglash davlat tizimining ishlab turishini ta‘minlash masalalari o‘z aksini topgan. Mudofaa mahsulotlarini standartlashtirish masalalari ushbu konsepsiyaning 5 – bo‘limida ko‘rsatib berilgan.

Konsepsiyaning 6 – «Standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazorati» bo‘limida standartlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini kelajakda texnik reglamentlarga rioya qilish ustidan nazorat qilishga aylanishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Konsepsiyaning «Mahsulot va xizmatlarning muvofiqligini tasdiqlovchi milliy tizimni takomillashtirish» deb nomlangan 7 – bo‘limida muvofiqlikni tasdiqlashning amaliy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Konsepsiyaning 8 – bo‘limida Xalqaro standartlar darajasida ishlab chiqarishni o‘zlashtirganligi va mahsulot ishlab chiqarganligini rag‘batlantirish masalalari o‘z aksini topgan. Konsepsiyaning «Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish» deb nomlangan 9 - bo‘limida O‘zbekistonni Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zo bo‘lib kirishga tayyorlash davrida o‘quv jarayonini kompleks boshqarish masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlar Dasturi uch qismga ajratilgan:

- «Standartlashtirishni takomillashtirish»;
- «Ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishni takomillashtirish»;
- «Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish».

Dastlabki qabul qilingan Milliy sertifikatlashtirish davlat tizimi respublikada

ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan mahsulot turlarining barchasini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishni nazarda tutar edi. Bu hol o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni haddan tashqari oshib ketishiga olib keldi. Bundan tashqari qabul qilingan sertifikatlashtirish tartibi juda ko'p vaqtni talab qilar edi. Shu sababli kelgusida ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun qulayliklar yaratish, sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Mahsulotni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 318-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida birinchi marta majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkaziladigan mahsulotlar turlari deyarli 1/3 barobarga qisqartirilgan. Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxatiga kirmagan mahsulotlarni deklaratsiya orqali belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanish zarurligi nazarda tutilgan. Shuning bilan birgalikda chetdan keltirilgan mahsulotlarning sinovlari uchun namunalarning eng yuqori chegaralangan miqdori belgilangan hamda sertifikatlashtirish xizmatlari uchun harajatlar to'lovi tartibini o'zgartirish ham nazarda tutilgan. Ana shularni hisobga olgan holda «Mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazishning tartibi to'g'risida»gi Nizom ishlab chiqildi va Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan.

#### **4.8. Mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida respublikamizning ichki bozorida tovar va xizmatlarning erkin aylanishi va bozor mexanizmlaridan foydalanish uchun kerakli sharoitlar shakllantirildi, bozor infrostrukturasi (tuzilmasi) va raqobat muhiti yaratildi. Shu asosda ishlab chiqarish madaniyati hamda mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqaruvchilar va boshqa tovar etkazib beruvchilarning ham mas'uliyatlari oshib bormoqda. Shuning bilan birgalikda respublikamiz milliy korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari va ko'rsatadigan xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqish

uchun ham qulay imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ma'lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uning bilan tashqi bozorda qatnashishni ta'minlash ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilash va korxonada ko'proq foyda olishni ta'minlaydigan sifat tizimini yaratishga imkoniyat yaratib beradi. Bunday sifat tizimlarini yaratishda esa ISO 9000 seriyali xalqaro standartning roli juda katta. Chunki barcha rivojlangan mamlakatlarda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ajralmas qism, tashqi bozor eshigini ochuvchi «kalit» sifatida xizmat qiladi. SHuning bilan birgalikda respublikamizda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablari asosida milliy korxonalar sifatni boshqarish tizimlarini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish, yuqori sifatli, inson hayoti uchun zararsiz mahsulot va xizmatlar yaratish, ularning tashqi bozorda chet matlakatlarda ishlab chiqarilgan o'xshash mahsulotlar bilan raqobatda qatnashish va mahsulotni import qilinadigan mamlakatlar hududlarida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim texnik to'siqlarni kamayishiga imkon yaratadi. Yana shu narsani ta'kidlash joizki, ISO 9000 xalqaro standarti oilasiga kiruvchi standartlarning joriy etilishi birgina ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilab va uning xavfsizligini ta'minlab qolmasdan, balki ular universal harakterga ega bo'lganligi sababli, ularni har qanday ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ham qo'llash mumkin.

Respublikamizning ishlab chiqarish korxonalarida ISO 9000 xalqaro standarti bazasida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun yuqorida takidlab o'tilganidek, ko'plab qo'layliklar yaratadi. Shuningdek, ISO 9000 xalqaro standartlari bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining barqaror faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun ham ma'lum darajada foyda olish garovi hisoblanadi. Masalan, Jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlar tajribasida mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni etkazib beruvchilar uch guruhga ajratiladi:

1). Etkazib berilgan torvar sifati bo'yicha mutloq ishonchli (korxonalar). Ya'ni, bunday guruhga ISO 9000 standartlari talablari asosida sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari mavjud korxonalar kiradi. Ular shartli ravishda «A» guruh korxonalarini deyiladi.

2). Etkazib berilgan tovar sifati bo'yicha nisbatan ishonchli korxonalar. Bu



guruhga kiruvchi korxonalar ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlarini endigina amalga oshirayotgan korxonalar kiradi va shartli ravishda ular «V» guruh korxonalarini deyiladi.

3). Etkazib berilgan tovar sifati bo'yicha ishonchsiz korxonalar. Ularga ISO 9000 standarti talablari asosida sifat tizimlari yaratilmagan korxonalar kiradi va ular shartli ravishda «S» guruhi deb ataladi.

Bozor ekspertlarining ma'lumotlariga qaraganda «A» guruhiga kiruvchi korxonalarining mahsulotlari «S» guruhiga kiruvchi korxonalarining mahsulotlariga nisbatan deyarli 50 foizga ortig'i bilan sotilar ekan.

ISO 9000 xalqaro standartlarining yuqorida ta'kidlab o'tilgan afzalliklarini hisobga olgan holda, ayrim Mustaqil Davlat Hamdo'stligi davlatlarida ularni joriy etgan korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmalari faqat ISO 9000 xalqaro standartlari talablari asosida sifat tizimlari sertifikatlashtirishdan o'tkazilgan korxonalarga beriladi.

**Tayanch iboralar:** Sifat, mahsulot sifati, sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish, sifatni boshqarish elementlari, sifat tizimi, sifat tizimini sertifikatlashtirish, mahsulot sifati, mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash, xizmatlar sifati.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Sifat tushunchasining mohiyati nimada?
2. Mahsulot sifatini ta'minlash deganda nimani tushinasiz?
3. Sifatni ta'minlash deb nimaga aytiladi?
4. Iste'mol tovarlarining sifati haqida gapirib bering.
5. Mahsulot sifatini oshirish yoki yaxshilash deganda nimani tushinasiz?
6. Mahsulot sifatining shakllanishida qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Mahsulot sifatining shakllanishida obektiv omil ta'siri.
8. Sifatni boshqarish elementlari nimalar hisoblanadi?
9. Sifatni qanday boshqarish tizimlari mavjud?

10. Sifat tizimi elementlari nimalar hisoblanadi?

11. Sifat tizimini sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun korxonaga qanday ishlarni amalga oshirish kerak?

12. Mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati.

13. Mahsulot sifatini boshqarishni yagona davlat sistemasining vazifalari qanday?

## **V-BOB. Sifatni boshqarish xalqaro tizimlari va mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash**

### **5.1. Sifatni boshqarish xalqaro tizimlari**

Xalqaro tizim standartlarining turlari va ularni qo'llash sohalari Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sifati ichki va tashqi bozorda uning raqobatbardoshligini belgilovchi o'lchov (mezon) hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikada O'zstandart («O'zstandart» agentligi) mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga mo'ljallangan me'yoriy hujjatlar (standartlar, texnik shartlar) talablarini xalqaro standartlar va jahon bozori bilan muvofiqlashtirish siyosatini olib bormoqda. Bunday tadbirlar milliy va qo'shma korxonalar mahsulotlarini chet mamlakatlardan keltirilayotgan mahsulotlar sifatidan past bo'lmashligiga kafolat bo'ladi.<sup>17</sup>

Yuqorida ta'kidlanganidek, mahsulot sifati iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondirish, me'yoriy hujjatlar, amaldagi qonunchilik, ekologik va xavfsizlik talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonaga iqtisodiy samara keltirishga ham qaratilgan bo'lishi kerak. Shuning boisdan ham mahsulot ishlab chiqarayotgan har bir korxonaga (kompaniya)da sifatni ta'minlash tizimi ishlab chiqarilishi lozim.

---

<sup>17</sup> Graeme Knowles. Quality Management. Ventus publishing Aps, 2011

Jahon amaliyotida ko'pchilik firma va kompaniyalar o'zlarining ta'minlovchilari bilan ko'pdan bo'yon sifat tizimlari asosida o'zaro munosabatlarga o'tishgan.

Sifat tizimining birinchi standartlari Buyuk Britaniyada 1970 yillarda ishlab chiqilgan edi, 1987 yilda AQSH, GFR, Kanada va boshqa mamlakatlar ishtirokida standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot ISO tomonidan mahsulot sifatini ta'minlash tizimlariga aniq talablar qo'yadigan 9000 seriyali beshta xalqaro standartlar ishlab chiqildi, tasdiqlandi va joriy etildi. Bu standartlarda sifat tizimini yaratish bo'yicha xalqaro tajribalar umumlashtirilgan.

Ushbu standartlar jahonning ko'plab davlatlari (Avstriya, AQSH, GFR, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Fransiya, SHvesiya, SHveysariya va boshqalar) o'zlarining milliy standartlari sifatida qabul qilib olishgan. 1988 yilda 9000 seriyali xalqaro standartlar sobiq Ittifoqda ham milliy standartlar sifatida qabul qilingan edi va ularni qo'llash bo'yicha tegishli me'yoriy – uslubiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Masalan, GOST 40. 9001 – 88, GOST 40. 9002- 88 va GOST 40. 9003 –88 raqamli standartlar.

Quyidagi sifat tizimi standartlari xalqaro standartlar tarkibiga kiritilgan:

- ISO 9000–87 Sifatni boshqarish bo'yicha umumiy qo'llanma va sifatni tanlash bo'yicha standartlar;

- ISO 9001– 87 Sifat tizimlari. Loyihalash yoki tayyorlashda, ishlab chiqarish, montaj qilishda va xizmat ko'rsatishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9002–87 Sifat tizimlari. Ishlab chiqarish va montaj qilishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9003–87 Sifat tizimlari. Oxirgi nazorat va sinovdan o'tkazishda sifatni ta'minlash modeli;

- ISO 9004 – 87 Sifatni umumiy boshqarish va sifat tizimining elementlari.

ISO 9001, ISO 9002 va ISO 9003 xalqaro standartlari mahsulot hayotiy davrining turli bosqichlari uchun sifat tizimiga bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

- ISO 9004 standarti sifat tizimiga qo'yiladigan talablarni izohlovchi rahbariy ko'rsatmalarni ifoda etadi va tizimni ishlab chiqish va joriy etishda tayyorlovchi – korxonadan qo'llanishga mo'ljallangan.

- ISO 8402–86 (Sifat. Lug'at) xalqaro standarti atamashunoslik standarti

hisoblanadi.

Keyingi yillarda uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiluvchi yana o'ndan ortiq standartlar ishlab chiqilgan. Masalan, ISO ning 10011 standarti auditni o'tkazish bilan bog'liq Bugungi kunda ushbu seriyaning 20 ta standartlari amal qilmoqda. ISOning boshqa standartlari singari ISO ning 9000 seriyali standartlari ham ularni aktallashtirish maqsadida vaqti – vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi. Jumladan, 1994– yilda ISO ning 9001 , 9002 va 9003 standartlari qayta ko'rib chiqildi va ularga aniqliklar kiritildi hamda standartlarni o'zaro bog'lanishini kuzatib borishligi soddalashtirildi.

Hozirgi vaqtda 2000 yil tarixidagi ISO 9001 standarti joriy etilgan va u ISO 9001, 9002 va 9003 standartlarini umumlash tirgan. ISO 9000 seriyali standartlari quyidagi hollarda qo'llanishiga mo'ljallangan:

- a) raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida ma'muriy boshqarish uchun;
- b) birinchi va ikkinchi tomonlar orasidagi kontrakt sharoitlarida sifat tizimining ayrim elementlarini tekshirish uchun;
- v) etkazib beruvchining sifat tizimini ISO standartining barcha elementlari bo'yicha iste'molchi tomonidan baholanishidan iborat bo'lgan kontrakt talablari bo'yicha:
- g) uchinchi tomondan sertifikatlashtirish uchun.

## **5.2. Mahsulot haqidagi ma'lumotlarni standartlashtirish va kodlash**

Agar biz do'kondan yoki boshqa bir savdo korxonalaridan tovar harid qiladigan bo'lsak, albatta tovar etiketkasi yoki uning yonidagi har – xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shaklni ko'ramiz, chunki hozirgi paytda tovarlar ( mahsulotlar ) ning aksariyat qismi shunday belgili shakllar bilan muomalaga chiqarilmoqda. Bunday belgining nomi *shtrixli kod* deb yuritiladi. Ammo bu belgili shakl yoki shtrixli kod haqidagi ma'lumotlar ko'pchilik iste'molchilarga hali to'lig'icha etib borgan emas. Shuning uchun ham biz ushbu savolni yoritish uchun shtrixli kodlash haqida etarlicha ma'lumotlar berishga harakat qilamiz.

Shtrixli kodlash to'g'risida berilgan tariflar ko'p, lekin ularning asl ma'nosi bir

xil. Shulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Shtrixli kod – bu optik usulda, ko‘ndalang skanerlash yo‘li bilan o‘qiladigan har xil qalinlik va qadamlarga (shag) ega bo‘lgan parallel shtrixlar (chiziqlar) to‘plami yordamida tashkil topgan kod.

Shtrixli kodlash – bu maxsus ishlab chiqilgan xalqaro axborotlashtirish tizimi yordamida mahsulotlarning asosiy parametrlarini belgilovchi uslub. Yoki, shtrixli kod – bu belgilar, raqamlar va harflarni shtrix (chiziq) va oraliqlar ketma- ketligi ko‘rinishidagi kodlash yo‘li bo‘lib, axborotni tez va aniq kompyuterga kirgizish uchun xizmat qiladigan shakl yoki, shtrixli kodlash – bu belgilangan shakl, o‘lcham, rang. Boshqa bir talqinda shtrixli kod – bu har xil kenglikdagi qora va yorug‘ (yoki oq) chiziqlarning almashib turishidir deb tushuntiradi.

Haqiqatdan ham yuqorida shtrixli kod haqida keltirilgan talqinlar har xil bo‘lishiga qaramasdan ularning ma‘nosi bir – biriga juda yaqin va o‘xshash.

Shakldagi ma‘lum bir kenglikdagi yo‘l - yo‘l chiziqlar hamda ularning birligi (birga qo‘shilishi) axborot tarqatuvchilar hisoblanadi. Tovarning shtrixli kodi o‘zicha uning sifati haqida ma‘lumot yoki axborot bermaydi, u faqat ushbu tovar to‘g‘rsidagi barcha axborotlarni saqlovchi elektr hisoblash mashinasi xotirasi uyachalarining adresi hisoblanadi holos. Bu ma‘lumotlar to‘plami tovar haqidagi ma‘lumotlar bazasini hosil qiladi.

Shtrixli koddagi «Davlat bayrog‘i» deb ataluvchi yoki tovar kelib chiqqan mamlakatni aniqlash imkoniyati iste‘molchi uchun eng muhim hisoblanadi. Shtrixli kodda joylashgan barcha qolgan axborotlar maxsus optik asbob - skaner orqali hisoblanishi (o‘qilishi) yoki EHM ga berilishi mumkin. Skanerdagi dekoder yordamida shtrixli kodda kodlangan ma‘lumotni olish mumkin . EHM o‘z navbatida olingan axborotlarni hisoblaydi, qayta ishlaydi va olingan natija bo‘yicha tovar harakatini aniqlaydi.

Shtrixli kodni mahsulotlarga nisbatan tadbiq etish (qo‘llash) g‘oyasi ilk bor 1930 yillarda AQSHning Garvard biznes maktabida yaratilgan bo‘lib, undan amalda foydalanish 1960 yildan boshlangan. Shtrixli kodlash ilk bor iste‘mol tovarlarini kodlash uchun ishlatilgan.

Izlanishlar natijasida tovar harakatini jadallashtirish (intensifikatsiyalash) va hujjatlashtirishni seriyalashtirish maqsadida 1960 yillarning oxirlarida tovarlarni tartib

raqami (nomeri) bo'yicha aynan o'xshatishga (identifikatsiyalashga) asoslangan universal tizimlar yaratish haqida birinchi g'oyalar paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1973 yili AQSHda Mahsulotning Universal Kodi (*UPK*) qabul qilindi va 1977 yildan boshlab esa Yevropa Kodlash tizimi (nomerlash assotsiatsiyasi) (*EAN*) ta'sis etildi.

Bu tizim (assotsiatsiya)ga yana boshqa mamlakatlar ham a'zo bo'lib kirganligi sababli, 1981 yildan boshlab nomerlash assotsiatsiyasi Xalqaro nomerlash attestatsiyasi deb atala boshlandi. Bugungi kunda uning tarkibiga 80ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib kirgan. SHu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham 1999 yildan boshlab bu tashkilotning xaqiqiy a'zosi hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida 30 dan ortiq har xil tipdagi shtrixli kodlar qo'llanilmoqda. Shulardan *EAN* kodlash tizimi universal bo'lib, amalda har qanday turdagi tovarga qo'llanishi va har qanday «ishlab chiqaruvchi – ulgurji korxonona – chakana savdo korxonasi» shaklidagi zanjir (*sep*) ning nuqtasida qo'llanishi mumkin. *EAN* tizimi doirasida axborotlarni elektron usulda almashtirish standarti (*EANKOM*) ishlab chiqilgan (yaratilgan) va u jahonning ko'plab davlatlarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shtrixli kodlash o'ziga xos sifat belgisi hisoblanadi, ya'ni tovarga shtrixli kod berishda uni xalqaro standartlarga mos kelishi tekshirib ko'riladi. Shtrixli kodlashning mavjudligi sababli, bu sifat belgisi ko'pdan buyon jahonning aksariyat davlatlarida me'yor (norma) bo'lib qolgan. Jumladan, AQSH, G'arbiy Yevropa va Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tovarning upakovkasi yoki etiketkasiga *SHK* qo'yish majburiy talab bo'lib qolgan va bu mamlakatlarning aksariyat qismida shtrixli kodi bo'lmagan mahsulotlarni chetdan olish va bozorda sotish man etilgan. Masalan, Yevropa ittifoqi tarkibiga kiruvchi davlatlarga 1994 yildan boshlab shtrixli kodi bo'lmagan import mahsulotlarini kiritish man etilgan.

Shtrixli kodning mohiyatlaridan biri shuki, tovar to'g'risidagi barcha axborotlarni (ma'lumotlarni) kompyuterga joylashtirish mumkin. Shtrixli kod juda aniq bo'lib, ular qo'l yordamida ma'lumotlarni kiritishdagi xatoliklarni oldini oladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shtrixli kodlarni o'qishda xatoliklar foizning mingdan bir bo'lagidan kam ekanligini ko'rsatib bergan. O'tkazilgan testlar natijasi esa, shtrixli kod yordamida kodlangan ma'lumotlar 10 mln. belgiga 1 ta xato

to'g'ri kelishini isbotlab berdi. Qo'l yordamida kiritilgan ma'lumotlarda 10 belgiga 1 ta xato to'g'ri keladi. Endi ularni taqqoslab ko'radigan bo'lsak, shtrixli kodlashning ahamiyati juda ham katta va muhim ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Shtrixli kodlash – bu ma'lumotni tez kiritish demakdir. Shtrixli kodlar tez va oson hosil qilinadi va umumiy ishlatiladigan printerlar yordamida bosilishi mumkin. Bu uslub birgina xatoliklarni kamaytiribgina qolmay, balki u axborotni tez va arzon yig'adi, saqlaydi va qidiradi hamda samarali aloqani ta'minlaydi. Bu xususiyatlar unumdorlik va axborot aniqligini oshiradi, etkazib berish jarayonlari jadvali (grafigi)ni yaxshilaydi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan vaqt, kuch, ishchi resurslari, material va mablag'lar harajatini kamaytiradi. Undan tashqari shtrixli kod - ma'lumot yig'ishda sanoat va savdo manfaati uchun xizmat qiladi, xalqaro ahamiyatga ega, boshqa foydalanuvchilarga bog'liq emas, jahon miqyosida ko'p mohiyatli kod yordamida har qanday tovar birligini aynan o'xshatish (indetifikatsiyalash) ishlarini bajaradi va hokazolar.

Shtrixli kod - bu ishlab chiqaruvchisining vizit kartochkasidir, deb ta'kidlanadi yana bir manbada. Haqiqatdan ham ushbu ta'rif aynan unga juda monand. Shtrixli kodlashdan kompyuterga ma'lumotlarni qo'lda kiritiladigan barcha joyda foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo qiluvchilar, moliya xizmati, maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, telefon kompaniyalari, davlat agentliklari, sog'likni saqlash muassasalari, transport kompaniyalari va boshqa tarmoqlarda kampyuterga axborotni qo'lda kiritmaslik uchun shtrixli kodlardan foydalanishadilar. Ayniqsa, shtrixli kodlash xom ashyo va tayyor mahsulotni hisobga olish, tovar ayirboshlash va ishlab chiqarish sohalarida ko'proq qo'llaniladi.

Shtrixli kodlarning elementlari shtrixlar va oraliqlar, kishilar o'qiydigan belgilar va yorug' zonalardan tashkil topgan. Bulardan shtrixlar va oraliqlar ma'lumotlarni kodlash shablonini belgilaydi (aniqlaydi). Inson o'qiydigan belgilar bu - shtrixlar va oraliqlar yordamida kodlangan axborotlar (ma'lumotlar)ni kishilar o'qishi uchun matn sifatida berilishidir. Yorug' zonalar esa shtrixlar va oraliqlargacha va undan keyingi toza maydon bo'lib, bu zonalarning mavjudligi shtrixli kodni o'qish uchun eng zarur hisoblanadi

Do'konlar va haridorlar bilan hisob – kitob qilish nuqtalarida 90 foiz atrofidagi muammolar shtrix kodning ikki tomonidagi (chekkasidagi) yorug' maydonni kichrayishidan kelib chiqadi. Shuning uchun naminal o'lchamda nashr (chop) qilingan shtrixli kod EAN – 13 uchun o'zidan chap tomondan 3, 63 mm va o'ng tomonidan 2,31 mm yorug' maydon qolishi kerak. Shtrixli kod EAN – 8 uchun esa, chap va o'ng maydonlar 2, 31 mm dan kichik bo'lmasligi kerak.

Shtrixli kodning nazorat raqami ma'lumot yoki axborotlarni to'g'ri o'qilayotganligini tekshirib turadi. Nazorat raqami kodlangan raqamlarning oxiriga qo'shiladi (1 – rasm).

Hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan shtrixli kodning ikkita asosiy turi – EAN va Amerika kodi – UPK mavjud bo'lib, bularning ichida eng ko'p ishlatiladigan kod – EAN – 13 va EAN – 8 hisoblanadi. Bu kodlarni biz chakana savdoga kelayotgan barcha tovarlarda uchratamiz. Chunki 70 yillar boshida paydo bo'lgan bu shtrixli kod butun dunyoga yoyilib ketgan va ular bir xilda o'qiladi.

EAN – 13 va EAN –8 kodlari chakana savdoga kelayotgan tovarlar uchun standart shtrixli kod hisoblanadi. Bu kod faqat 13 yoki 8 xonali raqamlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bu atamada EAN (Europkan Artisle Number) so'z to'plamining abbreviaturasi (qisqartma so'z , masalan, kolxoz, pochta, raypo) holos. 13 raqamga ega bo'lgan kod, *EAN-13* deb ataladi. Bunday 1,2 va 3 raqamlar EAN assotsiatsiyasi tomonidan o'rnatilgan tartibda beriladi va ular mamlakat (davlat) kodini bildiradi. Keyingi to'rtta raqam – tovar tayyorlovchisining indeksi. Kodning qolgan beshta raqami ishlab chiqaruvchiga o'zining xohishi bo'yicha mahsulotni kodlash uchun taqdim etiladi. Bunda kodni nuldan boshlab, 99999 gacha davom ettirishi mumkin. Kodning oxirgi 13 – raqami nazorat raqami deyiladi.

EAN kodi 1998 yili O'zbekiston standartlari (O'z DSt 6·17 ·01: 1999, O'z DSt 6·17·04: 2000)ga kiritilgan va bu kodlar xalqaro standartlarga asoslanganligi uchun, ular Yevropa, Osiyo, Markaziy va Janubiy Amerika va Okeaniya davlatlarida qo'llaniladigan EAN kodlari bilan o'zaro almashuvchandir. Har bir davlatda kodning tuzilishi har xil bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda kodning birinchi uch raqami – milliy tashkilotning prefiksi, keyingi oltita raqam – korxonah mahsulot egasining raqami,



undan keyingi uchta raqam – tovarni identifikatsiyalashtirish (aynan o‘xshatish yoki tenglashtirish) bloki va oxirgi raqam nazorat raqami.

EAN – 13 kodining tarkibi quyidagi kodlardan iborat:

- davlat kodi (“davlat bayrog‘i”);
- korxonalar (firma, kompaniya) – tayyorlovchi kodi;
- mahsulot kodi;
- nazorat soni (1- rasm).

EAN assotsiatsiyasi tomonidan har bir davlat (mamlakat) uchun kodlar diapozonlari beriladi. Kodlar ko‘pincha ikki belgidan tuziladi (masalan, Fransiya 30 – 37, AQSH va Kanada 00 – 09, Yaponiya 45 – 49), lekin tayyorlovchi kodni bir belgiga qisqartirish hisobiga uch belgili ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Rossiya 460 – 469, Germaniya 400 – 440 va boshqalar.

### **Shtrixli kodlash haqida axborotlar joylashgan banklar – davlatlar kodi haqidagi ma’lumotlar.**

#### *5.1.-jadval*

Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi	Davlat nomi	Davlat kodi
AQSH va Kanada	00 – 09	SHvesiya	73	Latviya	4605
Fransiya	30 – 37	Meksika	750	Tayvan	471
Bolgariya	380	Venesuela	759	Estoniya	474
Germaniya	400 – 440	SHveysariya	76	Fillipin	480
Rossiya	460 – 469	Argentina	779	Malta	535
Syangan	489	CHili	780	YUAR	600 – 601
Yaponiya	45 – 49	Braziliya	789	Marokko	611
Buyuk Britaniya	50	Italiya	80 – 83	Tunis	619
Gresiya	520	Ispaniya	84	Gvatemala	740– 745
Kipr	529	O‘zbekiston	478	Salvador	740– 745
Irlandiya	539	Kuba	850	Gonduras	740– 745
Belgiya va Lyuksemburg	54	CHexiya	859	Panama	740– 745
Portugaliya	560	YUgoslaviya	860	Nikaragua	740– 745
Islandiya	559	Turkiya	869	Kosta – Rika	740– 745
Daniya	57	Niderlandiya	87	Kolumbiya	770

Polsha	590	Janubiy Koreya	880	Urugvay	773
Vengriya	599	Singapur	889	Peru	775
Finlyandiya	64	Avstriya	90–91	Ekvador	786
Xitoy	690	Avstraliya	93	Tayland	885
YAngi Zelandiya	94	Sloveniya	383	Indoneziya	899
Isroil	729	Xorvatiya	385	Malayziya	955

EAN – 8 kod quyidagi kodlar tarkibidan iborat:

- davlat kodi («davlat bayrog‘i»);
- korxonalar (firma) – tayyorlovchi kod;
- nazorat soni.
- 8 razryadli EAN kodi

EAN – 8 kodida ba‘zan, tayyorlovchi korxonalar kodining o‘rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami (nomeri) ham keltirilishi mumkin. Bu kod (EAN – 8) markalashtirish, joylash yoki uncha katta bo‘lmagan tovarlar uchun ishlatiladi (qo‘llaniladi). Ushbu tipdagi SHK EAN–13 tipdagi SHK dan qisqartirilgan axborotlar va kichik o‘lchamlari (razmerlari) bilan farq qiladi. SHuning uchun ham uning raqamlari to‘liq joylashmaganligi sababli kichik (mayda) gabaritli tovarlarga bosiladi. EAN– 13 har qanday upakovka yoki tovarlarga bosiladi (agar uning maydoniga sig‘sa). EAN – 14 faqat transport (yukli) upakovkalari uchun qo‘llaniladi. Bu SHK nisbatan yirikroq bo‘lganligi sababli uni bosish (chop etish) uchun yuqori sifatli pechat talab etilmaydi. Agar tovar upakovkasi bilan sotilsa, u holda faqat EAN–13 qo‘llaniladi, chunki EAN–14 tovar haqida axborotga ega emas va do‘konda o‘rnatilgan skanerlovchi moslamada hisoblab yoki sanab (o‘qib) bo‘lmaydi.

Koddagi raqamlar qatori skaner uchun emas, balki haridor (iste‘molchi) uchun mo‘ljallangan. Haridor uchun ma‘lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlar va axborotnomalarda bosilib turiladi yoki axborot bazalari va banklarda saqlanishi mumkin. To‘liq SHK esa, tashqi savdo tashkilotlari yoki savdo ob‘ektlariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish va kerak bo‘lgan hollarda mahsulotning shartnoma (kontrakt) talablariga mos

kelmaydigan parametrlari va ko'rsatkichlari haqida aniq bir manzilga (nuqtaga) raddiya yoki norozilik bildirish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda respublikamizda ham shtrixli kodlashni keng miqyosda tadbiiq etish bo'yicha ma'lum darajada ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 1999 yilda O'zstandartqoshidagi O'zbekiston standartlashtirish metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsuot sifatini boshqarish sohasida kadrlar tayyorlash va tadqiqotlar instituti (O'z TMTI)da shtrixli kodlash (kodlar) bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Bu markazning asosiy maqsadi mahsulotni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash (aynan o'xshatish, tenglashtirish yoki birday qilish) bo'yicha muommalarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib qilishdan iborat.

**Tayanch iboralar:** Mahsulot sifati, mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillar, mahsulot sifatini boshqarish, gigienik-toksikologik ekspertiza, gigienik sertifikat, shtrixli-kod, yevropa kodlash tizimi, Mahsulotning Universal Kodi, Yevropa Kodlash tizimi EAN, tovarni identifikatsiyalashtirish bloki, davlat kodi («davlat bayrog'i»), korxonona (firma) – tayyorlovchi kod.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Mahsulot sifati deganda nimani tushunasiz?
2. Mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib bering.
3. Mahsulot sifatini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
4. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati to'g'risida o'z tushunchalaringizni ayting.
5. Gigienik-toksikologik ekspertizaning mohiyatini tushuntiring.
6. Gigienik sertifikat kim tomonidan beriladi?
7. Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligini ta'minlashning davlat boshqaruvini qanday tushunasiz?
8. Shtrixli-kodlarda nimalar ko'rsatiladi?
9. Yevropa Kodlash tizimi (EAN) ning ikki xil kodlash turini tushuntiring.
10. Shtrixli-kodlashdan maqsad nima va u korxonaga qanday imkoniyatlar beradi?

## **VI-BOB. Texnik jihatdan tartibga solish xizmati**

### **6.1. “Texnik jihatdan tartibga solish xizmatining maqsadi va vazifalari**

Texnik jihatdan tartibga solish xizmati - mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilash, qo‘llash, bajarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va ular ustidan nazorat ўrnatishdan iborat. Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi deganda- mahsulotning, uni loyihalash, ishlab chiqarish, ishlatish (undan foydalanish), montaj qilish, sozlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish va utilizatsiya qilish jarayonlarining, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlarning holati bo‘lib, bunda insonning hayotiga, sog‘lig‘iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilmaydigan xavf mavjud bo‘lmaydi;

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari бўлиб қуйдагилар ҳисобланади: - inson hayoti va sog‘lig‘i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulki xavfsizligini ta‘minlash;

- atrof muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta‘minlash;

- savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish;

- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi xususida iste‘molchilarni chalg‘ituvchi harakatlarning oldini olish.

Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari (tamoillari):

- texnik reglamentlarni qo‘llashning majburiyligi;

- texnik reglamentlarni qo‘llashning bir xilligi;

- texnik reglamentlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlarga muvofiqligi;

- texnik reglamentlarning, ularni ishlab chiqish, qabul qilish va e‘lon qilish tartibi to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi.<sup>18</sup>

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni (11.11.2008 y.)

Texnik jihatdan tartibga solish xizmati sohasida ishlarni amalga oshirish uchun quyidagi normativ hujjatlarga amal qiladi - texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa hujjatlar.

Texnik reglament - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Umumiy texnik reglament - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, bir turdagi mahsulotlar va xizmatlar guruhi xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Maxsus texnik reglament - texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, umumiy texnik reglamentda nazarda tutilmagan mahsulotlar va xizmatlar ayrim turining xavfsizligiga doir majburiy talablarni belgilovchi normativ hujjat;

Savdodagi texnik to'rsiqlar - mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda mavjud bo'lgan tafovutlari yoki o'zgarishlari oqibatida savdoda yuzaga keladigan to'rsiqlar.

## **6.2. Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat organlarining vakolatlari.**

Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimini quyidagilar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolatlari doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining texnik jihatdan tartibga*

*solish sohasidagi vakolatlari:*

- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimiga kiruvchi organlarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlaydi;

- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

*O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari:*

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan kiritilgan texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarining loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan takliflar kiritadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishga doir faoliyatini o'z vakolati doirasida muvofiqlashtiradi hamda tashkil etadi;

- umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyasini tuzadi;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni o'z vakolati doirasida ekspertizadan o'tkazadi;

- o'z vakolati doirasida: xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan o'z vakolati doirasida davlat nazoratini amalga oshiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida o'z vakolati doirasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari:* texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning xavfsizligiga doir, ularda inson hayoti va sog'lig'i uchun zararli bo'lgan moddalar, kasallik tug'diruvchi organizmlarning mavjudligi, kasallik tashuvchilarning kirib kelishi yoki tarqalishining oldini olish, tibbiyot uchun mo'ljallangan buyumlar, tibbiy texnika va dori vositalarini ishlab chiqarish hamda qo'llash bo'yicha majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

*O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari:*

- shaharsozlik faoliyatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligiga doir majburiy talablarga taalluqli ishlarning bajarilishini tashkil etadi va ta'minlaydi.

*Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari:*

- texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari loyihalari yuzasidan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligiga takliflar kiritadi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarini tuzadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirishda ishtirok etadi;

- umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

- Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

- Davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi.

*Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari o‘z vakolati doirasida:*

- umumiy va maxsus texnik reglamentlar ishlab chiqilishini amalga oshiradi hamda ularni ekspertizadan o‘tkazadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarini tuzadi;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ekspertizadan o‘tkazadi;

- umumiy texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi, ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritadi, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qiladi umumiy va maxsus texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

*Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari.* Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalari ishlab chiqilgan umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalarni ekspertizadan o‘tkazish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo‘yicha takliflar hamda ular yuzasidan xulosalar tayyorlash uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari huzurida tuziladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komissiyalarining faoliyati



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

*Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari.* Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlari umumiy va maxsus texnik reglamentlarni, texnik reglamentlarga o‘zgartish va qo‘shimchalarni ishlab chiqish, shuningdek mazkur reglamentlarni bekor qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari huzurida tuziladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert kengashlarining faoliyati O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan hamda o‘z vakolatlari doirasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan shakllantiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondi umumiy va maxsus texnik reglamentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o‘zlari tasdiqlagan maxsus texnik reglamentlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar davlat fondini shakllantirish va yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **6.3. Texnik reglamentlarning turlari va mazmuni.**

Texnik reglamentlarning turlari. O‘zbekiston Respublikasida texnik reglamentlarning quyidagi turlari qo‘llaniladi:

- umumiy texnik reglamentlar;
- maxsus texnik reglamentlar.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir talablar quyidagilar bo'yicha belgilanishi mumkin:

- biologik xavfsizlik;
- mexanik xavfsizlik;
- kimyoviy xavfsizlik;
- yadroviy va radiatsiyaviy xavfsizlik;
- yong'in xavfsizligi;
- elektr xavfsizligi;
- mashina va uskunalarni ishlatish (ulardan foydalanish) hamda utilizatsiya qilish xavfsizligi;
- elektromagnit mosligi;
- qurilish ishlari xavfsizligi;
- binolar, inshootlardan va ularga tutash hududdan foydalanish xavfsizligi;
- ekologik xavfsizlik;
- veterinariya xavfsizligi;
- sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi;
- portlash xavfsizligi;
- axborot xavfsizligi;
- o'lchovlarning va sinovlar usullarining bir xilligini ta'minlash.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligini ta'minlashga doir boshqa talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Texnik reglamentlarning mazmuni. Texnik reglamentlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligi tavsiflari; xavfsizlik talablari belgilanayotgan mahsulotlar va xizmatlarning to'liq ro'yxati; atamalarga, o'rov-idishga, tamg'alarga yoki yorliqlarga hamda ularni aks ettirish qoidalariga va mahsulotni identifikatsiya qilishga doir talablar; davlat nazoratini amalga oshirish tartibi; mahsulotlar va xizmatlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan qoidalar.

Zararli mikroorganizmlar va qo'shimchalar, kasalliklar, kasallik tarqatuvchilar, ifloslantiruvchi moddalar, toksinlar, zararkunandalar va begona

o'simliklar kirib kelishi yoki tarqalishi munosabati bilan yuzaga keladigan insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfi darajasi hamda zararni bartaraf etish hisobga olingan holda texnik reglamentlarda sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari ham ko'rsatilishi kerak.

Sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya va fitosanitariya qoidalari va normalarida quyidagilar belgilanadi: mahsulotga, uni sinash, tekshirish tartib-taomiliga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya xulosasini berish tartibiga doir majburiy talablar;

karantin va veterinariya-sanitariya qoidalari, shu jumladan hayvonlar va o'simliklarni tashish bilan bog'liq talablar;

namunalar olish usullari va tartib-taomili, insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfini tadqiq etish hamda baholash usullari, shuningdek texnik reglamentlarda ko'rsatilgan boshqa talablar.

Texnik reglamentlarda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar bo'lmasligi lozim, insonning hayoti va sog'lig'iga zarar etkazilishi xavfi darajasi hisobga olingan holda mahsulotning konstruksiyasiga va bajarilishiga doir talablar yo'qligi sababli mahsulot xavfsizligi ta'minlanmasligi hollari bundan mustasno.

Mahsulotlar va xizmatlardan uzoq muddat foydalanilishi oqibatida va (yoki) yo'l qo'yiladigan xavf darajasini aniqlash imkoniyatini bermaydigan boshqa omillar ta'siri sababli insonning hayoti va sog'lig'iga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga zarar etkazadigan mahsulotlar va xizmatlarga doir talablar texnik reglamentlarda bo'lmasligi kerak. Bunda texnik reglamentlarda ehtimol tutilgan zarar to'g'risida hamda insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga zarar etkazilishi xavfi qaysi omillarga bog'liq bo'lsa, shu omillar haqida iste'molchilarni xabardor qilishga doir talablar bo'lishi mumkin.

Texnik reglamentlarda mahsulotlar va xizmatlar xavfsizligiga doir quyidagi maxsus talablar bo'lishi mumkin: qonun hujjatlarida belgilangan ayrim toifadagi fuqarolarning hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini ta'minlaydigan maxsus talablar; texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda

insonning hayoti va sog'lig'iga, atrof muhitga, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mol-mulkiga tahdid soluvchi transchegaraviy xavfli ishlab chiqarish ob'ektlariga oid maxsus talablar.

Davlat sirlaridan va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan iborat bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan texnik reglamentlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Texnik reglamentlar tugal bo'lib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi hamda ularga faqat belgilangan tartibda o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin.

#### **6.4. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi**

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlarini shakllantirish texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa vakolatli davlat organlarining hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining o'z vakolatlari doirasidagi takliflari inobatga olingan holda O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi. Texnik reglamentlarni ishlab chiqishning tasdiqlanadigan dasturlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar belgilangan tartibda:

- texnik reglamentlar ishlab chiqilishi haqidagi xabarlarni e'lon qiladi;
- texnik jihatdan tartibga solinishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlarning guruhlari hamda turlarini belgilaydi;
- mahsulotlar va xizmatlarning texnik reglamentlarda belgilanadigan talablarga muvofiqligini baholash usullarini belgilaydi;
- ishlab chiqilgan texnik reglamentlarni kelishib oladi; ishlab chiqilgan texnik reglamentlardan foydalanish erkinligini ta'minlaydi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiquvchilar ishlab chiqilgan texnik

reglamentlar rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki oy ichida ularning muhokama qilinishini ta'minlaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan umumiy texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi olinganidan keyin umumiy texnik reglamentlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda yuboradi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus texnik reglamentlar ekspertizadan o'tkazish uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlariga ular faoliyatining yo'nalishi bo'yicha topshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlari, davlat boshqaruvi organlari o'z faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli ekspert komissiyasining xulosasi asosida maxsus texnik reglamentlarni tasdiqlaydi.

Tasdiqlangan umumiy va maxsus texnik reglamentlar rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida olti oy o'tgach amalga kiritiladi.

Umumiy va maxsus texnik reglamentlarni e'lon qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Texnik reglamentlarni ishlab chiqishda mahsulotlar va xizmatlarning xavfsizlik mezonlarini belgilovchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi milliy va xalqaro normativ hujjatlardan foydalaniladi.

Texnik reglamentlarda daliliy baza sifatida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning matnlari to'liq yoki qisman keltiriladi.

Texnik reglamentlarga rioya etish barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Texnik reglamentlar amalga kiritilgach, standartlashtirish bo'yicha ularda

ko'rsatilgan mahsulotlar va xizmatlarga doir ilgari qabul qilingan tegishli normativ hujjatlar majburiylik xususiyatini yo'qotadi hamda belgilangan tartibda qo'llanilishda ixtiyoriylik kasb etadi.

Texnik reglamentlarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatli davlat organlarining va davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Tayanch iboralar:** Texnik jihatdan tartibga solish, savdodagi texnik to'siqlar, texnik jihatdan tartibga solish prinsiplari, texnik reglamentlar, mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, - biologik xavfsizlik, mexanik xavfsizlik, kimyoviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, veterinariya xavfsizligi, sanoat va ishlab chiqarish xavfsizligi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunining maqsadi nimalardan iborat?
2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar.
3. Savdodagi texnik to'siqlar nima?
4. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalari qanday?
5. Texnik jihatdan tartibga solishning qanday asosiy prinsiplari (tamoillari) mavjud?
6. Vazirlar Mahkamasining texnik jihatdan tartibga solish sohasida qanday vakolatlari bor?
7. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qanday vakolatlari bor?
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi vakolatlari.
9. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining texnik jihatdan tartibga solish

sohasidagi vakolatlari.

10. Texnik reglamentlarning qanday turlari mavjud?
11. Texnik reglamentlarning mazmuni aytib bering.
12. Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi qanday?

## Glossariy

**Standartlashtirish** – bu ma’lum sohada, aniq va ma’lum murakkab masalalarga nisbatan, hamma uchun umumiy, ko‘p martalab foydalanish uchun o‘rnatilgan tartiblar yordamida tartiblashtirishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat.

**Milliy standartlashtirish** – bu muayyan bir mamlakat (misol uchun O‘zbekiston Respublikasi yoki sanoati rivojlangan ma’lum bir davlat) doirasida o‘tkaziladigan standartlashtirish.

**Mintaqaviy standartlashtirish** - bu dunyoning faqat jo‘g‘rofiy yoki iqtisodiy hududiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari ishtirok etish uchun ochiq bo‘lgan standartlashtirish.

**Xalqaro standartlashtirish** - bu barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan standartlashtirish.

**Standartlashtirish sohasi** – bu o‘zaro bog‘langan standartlashtirish ob’ektlarining majmuiga aytiladi.<sup>7</sup>

**Xalqaro standart** – bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste’molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo‘lgan standart.

**Mintaqaviy standart** - bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste’molchilarning keng doirasi uchun yaroqli bo‘lgan standart.

**Milliy standart** – bu standartlashtirish bo‘yicha shug‘ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste’molchilarning keng doirasiga yaroqli bo‘lgan standart.

**Standartlar majmui** - bu o‘zaro bog‘langan standartlashtirish ob’ektlariga kelishilgan talablarni belgilovchi va ma’lum ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy muommalarning echimini me’yoriy hujjatlar bilan ta’minlash uchun umumiy maqsad bilan birlashgan o‘zaro bog‘langan standartlar to‘plami.

**Standartlashtirishning maqsadi** - ko‘p qirrali bo‘lib, ularga quyidagi atamalar kiradi: mahsulot, jarayon va xizmatlarning bixilligi, moslashuvchanligi,



almashuvchanligi, odam organizmi va atrof-muhit uchun xavfsizligi, mahsulotni himoya qilish va boshqalar

**Yagona o'lchash birligi** - bu o'lchash natijalari qonunlashtirilgan birliklarda ifodalangan va o'lchashdagi xatoliklar muayyan ehtimollikda bo'lgan o'lchash holatiga aytiladi.

**O'lchash vositasi** - bu o'lchash uchun foydalaniladigan va me'yorlashtirilgan metrologik xususiyatlarga ega bo'lgan texnik vositadir.

**Birlik etoloni** – bu fizik o'lcham birligini boshqa o'lchash vositalariga uzatish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchash vositasi tushuniladi.

**Davlat etoloni** – bu vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O'zbekiston respublikasi hududida o'lchash birligining o'lchash sifatida e'tirof etilgan etoloniga aytiladi.

**Metrologiya xizmati** – bu davlat idoralari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari va o'lchash tarmog'i tomonidan hamda ularning yagona o'lchash birligida bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

**Davlat metrologiya nazorati** - bu metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

**O'lchash vositalarini tekshiruvdan o'tkazish** - bu tushunchaning asosiy ma'nosi o'lchash vositalarining belgilab qo'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati idoralari tomonidan bajariladigan amallar majmuidan iborat.

**O'lchash vositalarini kalibrlash** - bu metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlari va o'lchash birliklarining qo'llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi bajaradigan amallar majmuidir.

**Litsenziya** – bu o'lchash vositalarini ishlab chiqish, yaratish, (ta'mirlash, sotish, ijaraga berish) uchun davlat metrologiya xizmati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

**Kattalik** –bu sifat tomonidan ko‘pgina fizik ob’ektlarga nisbatan umumiy bo‘lib, miqdor tomonidan har bir ob’ekt uchun xususiy bo‘lgan xossadir.

**Amaliy metrologiya** – bu nazariy metrologiya ishlanmalarini va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarini amaliy qo‘llanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi metrologiya bo‘limi.

**Kattalik** – bu sifat jihatidan ajratilishi va miqdor jihatidan aniqlanishi mumkin bo‘lgan hodisalar, moddiy tizim, moddaning xossasidir.

**O‘lchanadigan kattalik** – bu o‘lchash vazifasining asosiy maqsadiga muvofiq o‘lchanishi lozim bo‘lgan, o‘lchanadigan yoki o‘lchangan kattalik.

**Kattalik o‘lchami** – bu muayyan miqdoriy ob’ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo‘lgan kattalikning miqdoriy aniqlanganligi.

**Kattalikning qiymati** – bu kattalik uchun qabul qilingan birliklarning ma’lum bir soni bilan kattalikning o‘lchamini ifodalash.

**Kattalikning sonli qiymati** – bu kattalikning qiymatiga kiruvchi nomsiz son.

**Parametr** – bu berilgan kattalikni o‘lchashda yordamchi sifatida qaraladigan kattalik.

**O‘lchash vositasi** – bu metrologik tavsiflari me’yorlangan (MTM), o‘lchami (belgilangan xatolik chegarasi) ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zgarmas deb qabul qilinadigan, kattalikning o‘lchov birligini qayta tiklaydigan va (yoki) saqlaydigan, o‘lchashlar uchun mo‘ljallangan texnik vosita.

**Kattalik o‘lchovi** – bu o‘lchov qiymatlari belgilangan birliklarda ifodalangan va zarur aniqlikda ma’lum bo‘lgan bir yoki bir nechta berilgan o‘lchamlarning kattaligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositasi.

**Etalon (o‘lchashlar shkalasi yoki birligi etaloni)** – bu kattalikning o‘lchamini qiyoslash sxemasi bo‘yicha quyi vositalarga uzatish maqsadida shkalani yoki kattalik birligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo‘ljallangan va belgilangan tartibda etalon sifatida tasdiqlangan o‘lchashlar vositasi yoki o‘lchash vositalarining majmui.

**Birlamchi etalon** – bu birlikni mamlakatda (shu birlikni boshqa etalonlariga nisbatan) eng yuqori aniqlik bilan qayta tiklanishini ta’minlaydigan etalon.

**Maxsus etalon** – bu birlikning alohida sharoitlarda qayta tiklanishini ta'minlaydigan va bu sharoitlar uchun birlamchi etalon bo'lib xizmat qiladigan etalon.

**Davlat etaloni** – bu davlat hududida ushbu kattalikning boshqa barcha etalonlari bilan qayta tiklanadigan, birliklarning o'lchamlarini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qilishi vakolatli davlat idorasining qarori bilan tan olingan etalon.

**Ikkilamchi etalon** – bu birlikning o'lchamini mazkur birlikning birlamchi etalonidan oladigan etalon.

**Ishchi etalon** – bu birlikning o'lchamini ishchi o'lchash vositalariga uzatish uchun mo'ljallangan etalon.

**Xalqaro etalon** – bu milliy etalonlar bilan qayta tiklanadigan va saqlanadigan birliklar o'lchamlarini muvofiqlashtirish uchun xalqaro kelishuv bo'yicha xalqaro asos sifatida qabul qilingan etalon.

**Milliy etalon** – bu mamlakat uchun boshlang'ich etalon sifatida xizmat qilishi rasmiy qaror bilan tan olingan etalon.

**O'lchashlar birliligi** – bu o'lchash natijalari rasmiylashtirilgan kattaliklar birliklarida ifodalangan va o'lchashlar xatoligi berilgan ehtimollik bilan belgilangan chegaralarda joylashgan o'lchashlar holati.

**O'lchashlar birliligini ta'minlash** – bu O'BT Qonunlar, shuningdek o'lchashlarning birliligini ta'minlashga qaratilgan davlat standartlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq o'lchashlar birliligiga erishish va saqlashga qaratilgan metrologik xizmatlar faoliyati.

**Metrologik xizmat** – bu MX o'lchashlar birliligini ta'minlash ishlarini bajarish va metrologik tekshiruv va nazoratni amalga oshirish uchun qonunga muvofiq tashkil etiladigan xizmat.

**Muvofiqlik** – bu mahsulot, xizmat yoki jarayonga belgilangan barcha talablarga rioya qilish yoki ularni bajarishlikdir.

**Muvofiqlik sertifikat** - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonlarning ma'lum bir standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida nashr etilgan hujjat. Muvofiqlik sertifikat,

uchinchi tomondan mahsulot, xizmat yoki jarayonlarning ularga belgilangan talablar asosida ishlab chiqarilganligini tasdiqlagan holda beriladi.

***Majburiy sertifikatlashtirish*** - bu sertifikatlashtirish vakolatiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot (xizmat)ning standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlashdir.

***Ixtiyoriy sertifikatlashtirish*** – bu ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

***Sifat tizimini sertifikatlashtirish*** – bu tizimning xalqaro yoki milliy standart talablariga muvofiq kelishini tekshirish, baholash va sertifikat berish orqali tasdiqlash haqidagi faoliyat tushuniladi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish ta'minlovchining raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olishiga to'liq ishonch hosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

***Sifatni ta'minlash*** – bu mahsulot yoki xizmat sifatiga belgilangan ma'lum talablarni qondirishga ishonch hosil qilish uchun davriy ravishda rejalashtiriladigan va o'tkaziladigan chora - tadbirlar majmuiga aytiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
STANDARTLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

**I BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR**

**1-modda. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari**

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari:

mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda «mahsulot» deb yuritiladi) aholining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste‘molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

mahsulotlarning o‘zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta‘minlashdan;

fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo‘jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;

barcha turdagi resurslar tejalishiga ko‘maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan;

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;

tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo‘jaligi ob‘ektlarining xavfsizligini ta‘minlashdan;

iste‘molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot bilan ta‘minlashdan;

mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta‘minlashdan;

o‘lchovlarning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlashdan iboratdir.

**2-modda. Standartlashtirish tizimi**

O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko‘rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:  
xalq xo'jaligi tarmoqlarida — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi);

qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda — O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;

tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida — O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, shu jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika sohasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, shu jumladan import bo'yicha etkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar mavjudligini aniqlash masalalarida — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida — O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida standartlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va nashr etadi.

### **3-modda. Standartlashtirish ishlarini o'tkazish**

«O'zstandart» agentligi ushbu Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi.

«O'zstandart» agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi standartlashtirish ishlarini bajarishni o'z vakolatlari doirasida boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidir.

Standartlarni tasdiqlagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot

jamg'armalarini hosil qiladilar va yuritadilar hamda manfaatdor iste'molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O'zbekiston Respublikasi standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifiqatorlari, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalariga oid axborotlar bilan ta'minlaydilar.

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

#### **4-modda. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida standartlashtirish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

#### **5-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnoma yoki bitimda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'riflanganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

## **II BO'LIM. STANDARTLASHTIRISHGA DOIR NORMATIV HUJJATLAR**

### **6-modda. Normativ hujjatlarning toifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar**

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;

O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;

tashkilotning standartlari;

xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Davlat yagona uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek

standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifiqatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalar va normalar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalar va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini «O'zstandart» agentligi va davlat boshqaruvining boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim.

Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar hamda ularga kiritilgan o'zgartishlar «O'zstandart» agentligi organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. «O'zstandart» agentligi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning davlat fondiga kiradi.

Mahsulot, atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki xavfsizligini, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rioya etishi uchun majburiydir.

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va etkazib berish



shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Import mahsulot, basharti u O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan texnik reglamentlarning yoki standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo'lsa, etkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatilishi mumkin emas.

### **7-modda. Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning sertifikatlashtirishda qo'llanilishi**

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rioya etiladigan talablarni, shuningdek ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo'llanilishi lozim.

## **III BO'LIM. STANDARTLAR USTIDAN DAVLAT NAZORATI**

### **8-modda. Davlat nazorati organlari va ob'ektlari**

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari tomonidan standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirishga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini «O'zstandart» agentligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek boshqa maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Idoraviy bo'ysunuvi va mulk shaklidan qat'i nazar, xo'jalik faoliyati sub'ektlarining, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning mahsuloti, shu jumladan sertifikatlashtirilgan mahsulot (ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida) davlat nazorati ob'ekti hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitni yaratishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini:

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori;

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari;

standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat inspektorlari amalga oshiradilar.

### **9-modda. Davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarligi**

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat inspektorlari davlat boshqaruv organlarining vakillari hisoblanadilar.

Davlat inspektori:

xo'jalik faoliyati sub'ektining xizmat va ishlab chiqarish binolariga belgilangan tartibda kirish;

xo'jalik faoliyati sub'ektidan davlat nazoratini o'tkazish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni olish;

davlat nazoratini o'tkazishda xo'jalik faoliyati sub'ektining texnika vositalaridan foydalanish va mutaxassislarni jalb etish;

standartlashtirish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari hamda nusxalarini tanlab olishni o'tkazish, bunda ishlatib yuborilgan nusxalarning qiymati va sinovlarni (tahlillarni, o'lchovlarni) o'tkazish harajatlari tekshirilayotgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining ishlab chiqarish chiqimlariga kiritiladi;

mahsulotni yaratish, ishlab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, realizatsiya qilish (etkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), mahsulotni saqlash,

tashish va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida, standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

xo'jalik faoliyati sub'ekti tekshiruvdan bo'yin tovlagan taqdirda mahsulotni realizatsiya qilishni man etish huquqiga ega.

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori, standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari bundan tashqari:

standartlarni buzganlikda aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining mansabdor shaxslariga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan ma'muriy jazo chorasini qo'llashda;

tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berishda;

standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan import mahsulotni realizatsiya qilishni taqiqlashda mutlaq huquqqa egadir.

Davlat inspektorlarining tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun xo'jalik faoliyati sub'ektlarining mansabdor shaxslari va yakka tartibdagi tadbirkorlar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Davlat inspektorlari zimmlariga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, davlat yoki tijorat sirini oshkor qilgan taqdirlarida qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

**10-modda. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonun qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

#### **IV BO'LIM. DAVLAT YO'LI BILAN STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHGA DOIR ISHLARNING MOLIYAVIY TA'MINOTI. STANDARTLARNI QO'LLASHNI RAG'BATLANTIRISH**

##### **11-modda. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti**

Standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlar, xususan:

xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish;

aniq standartlashtirish ob'ektlari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek standartlarning tarkibiy tashkiliy-texnik va umumtexnik majmuilarini ishlab chiqish va ularning amal qilishini ta'minlash;

texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish, ular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va nashr etish, shuningdek ularni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga yuborish;

standartlashtirish bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni olib borish;

standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini olib borish;

standartlar fondini, texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlarini, xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlarini, shuningdek standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlar Davlat reestrini shakllantirish hamda yuritish;

standartlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aniqlaydigan o'zga ishlar davlat yo'li bilan moliyaviy ta'minlanishi shart.

Nashr qilingan (qayta nashr etilgan) standartlarni, texnik-iqtisodiy axborot

klassifikatorlarini, mahsulot va xizmatlar Davlat reestriga kiritilgan, standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamgʻalangan mahsulot va xizmatlarning nashr qilingan (qayta nashr etilgan) katalogini sotishdan belgilangan tartibda olinadigan mablagʻlar, shuningdek ushbu Qonun qoidalarini buzganlik uchun undiriladigan jarima mablagʻlarining Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat nazorati organlariga yoʻllanadigan qismi ham standartlashtirish, standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir ishlarni moliyaviy taʼminlash manbalari boʻlishi mumkin.

Respublika byudjeti mablagʻlaridan toʻliq yoki qisman taʼminlanadigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini normativ jihatdan taʼminlash boʻlimlari nazarda tutilishi lozim.

### **12-modda. Standartlar qoʻllanilishini ragʻbatlantirish**

Davlat standartlarga, shu jumladan istiqbolga moʻljallangan, anʼanaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablarni oʻz ichiga olgan standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamgʻalangan mahsulotni ishlab chiqaradigan xoʻjalik faoliyati subʼektlari iqtisodiy qoʻllab-quvvatlanishi va ragʻbatlantirilishini kafolatlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamgʻalash huquqini olgan xoʻjalik faoliyati subʼektlarini iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish chora-tadbirlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

**Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

1993 yil 28 dekabr,

1002-XII-son

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**  
**MAHSULOTLAR VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH**  
**TO‘G‘RISIDA**

Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob’ektlarni shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlarini, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash sohasida xodimlar sifatida ishtirok etishga talabgor mutaxassislarni (matnda bundan keyin «mahsulotlar» deb yuritiladi) sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

**I BOB. UMUMIY QOIDALAR**

**1-modda. Asosiy tushunchalar**

Mazkur Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatilmoqda:

«sertifikatlashtirish milliy tizimi» — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o‘tkazishda o‘z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo‘lgan tizim;

«mahsulotlarni sertifikatlashtirish» (matnda bundan keyin «sertifikatlashtirish» deb yuritiladi) — mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

«muvofiqlik sertifikati» — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

«muvofiqlik belgisi» — muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoxud ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi;

«mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» — ayni bir xil standartlar va qoidalar qo‘llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

«sifat bo'yicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassis;

«sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organi» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan sertifikatlashtirish organlarining topshirig'iga ko'ra inspeksiya nazoratini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

«sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati» — sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy takroriy baholash tartib-taomili.

## **2-modda. Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari**

Sertifikatlashtirish:

odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;

mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;

mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;

mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo'ladi.

## **3-modda. Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Sertifikatlashtirish sohasidagi munosabatlar mazkur Qonun va unga muvofiq chiqariladigan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

#### **4-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo'llaniladi.

#### **5-modda. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari**

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda «O'zstandart» agentligi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

«O'zstandart» agentligi mazkur Qonunga muvofiq:

sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o'tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to'g'risida rasmiy axborotlar e'lon qilib boradi;

sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro'yxatini belgilaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga kiritadi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning, attestatsiyadan o'tkazilgan sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning davlat reestrlarini yuritadi;

majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to'xtatib turadi hamda ularni bekor qiladi.

«O'zstandart» agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini



moliyaviy ta'minlash manbai — O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'i, shuningdek «O'zstandart» agentligi ko'rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar:

mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;

sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;

milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;

sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

«O'zstandart» agentligi o'z vazifalarining bir qismini mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o'tkazishga haqlidir.

#### **6-modda. Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari**

Mahsulotlar, shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar sertifikatlashtirish ob'ektidir.

«O'zstandart» agentligi, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, muvofiqlikni baholash faoliyatida ishtirok etadigan xodimlar, shuningdek mahsulotlari sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari — yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari «O'zstandart» agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

## **II BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATIGA DOIR UMUMIY TALABLAR**

### **7-modda. Muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik belgisi**

Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangani taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'ladi.

Sertifikatlashtirish tizimida foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisdan foydalanish huquqini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

### **8-modda. Sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish**

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditatsiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

### **9-modda. Sertifikatlashtirish to'g'risida axborot**

«O'zstandart» agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi

tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to'g'risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo'llash qoidalari to'g'risida xabardor etib boradi.

Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog'liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno.

### **III BOB. MAHSULOTLARNI MAJBURIY VA IXTIYORIY SERTIFIKATLASHTIRISH**

#### **10-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish**

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish «O'zstandart» agentligi zimmasiga yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda, «O'zstandart» agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

#### **11-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari**

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazoratini o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga

oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

### **12-modda. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar**

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

### **13-modda. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majburiyatlari**

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;

sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;

sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor

qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliksiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (haridor, buyurtmachi) e'tiboriga etkazilishini ta'minlashlari shart.

#### **14-modda. CHetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish**

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, «O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning «O'zstandart» agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bojxona yuk deklaratsiyasi bilan birgalikda arizachi (mahsulot etkazib beruvchi) tomonidan bojxona organlariga taqdim etiladi hamda ushbu hujjatlar mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish uchun asos bo'ladi.

Olib kirilayotgan mahsulotning xavfsizligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmagan taqdirda, bojxona organlari uni sertifikatlashtirishdan o'tkazish to'g'risidagi masala hal etilguniga yoki chet el sertifikati milliy sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga muvofiq e'tirof etilmaguniga qadar bunday mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirishga yo'l qo'ymaydi, bundan vaqtincha saqlash va bojxona ombori bojxona rejimlari mustasno.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

**15-modda. Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti**

Quyidagi ishlar:

sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o'tkazish qoidalari va tavsiyalarini ishlab chiqish;

sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o'tkazish;

sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;

sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;

majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish ishlari davlat tomonidan moliyalashtirilishi kerak.

**16-modda. Majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati**

Majburiy sertifikatlashtirish talablariga tayyorlovchilar (tadbirkorlar, sotuvchilar, ijrochilar) tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazoratini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda «O'zstandart» agentligining davlat inspektorlari amalga oshiradi.

**16<sup>1</sup>-modda. Nazorat yo'sinidagi tekshiruv**

Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**17-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish**

Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy

sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

#### **18-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi sub'ektlar**

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni «O'zstandart» agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

#### **19-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari**

Sertifikatlashtirish qoidalari va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditatsiya qilingan organlar «O'zstandart» agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

### **IV BOB. NIZOLARNI QARAB CHIQISH. SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOGBARLIK**

#### **20-modda. Mazkur Qonunni qo'llash bilan bog'liq nizolarni qarab chiqish**

Mazkur Qonunni qo'llash bilan bog'liq nizolar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda qarab chiqiladi.

#### **21-modda. SHikoyatlarni qarab chiqish**

Sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda manfaatdor tomon «O'zstandart» agentligining SHikoyatlarni qarab chiqish kengashiga murojaat etishga haqlidir.

SHikoyatlarni qarab chiqish kengashi to'g'risidagi nizomni «O'zstandart» agentligi ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

«O'zstandart» agentligining SHikoyatlarni qarab chiqish kengashi sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) qarorlari ustidan berilgan shikoyat arizalarini qarab chiqadi.

SHikoyat arizalari ikki hafta ichida qarab chiqiladi.

«O'zstandart» agentligining, SHikoyatlarni qarab chiqish kengashining qarorlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish mumkin.

#### **22-modda. Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining**

### **(markazlarining) javobgarligi**

Sertifikatlashtirish organi:

muvofiglik sertifikatini asossiz va qonunga xilof tarzda berganlik uchun;

arizachiga nisbatan qonunga xilof xatti-harakatlar qilganlik uchun;

arizachining tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgar bo'ladi.

Akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) sertifikatlashtirish organiga sinovlarning natijalari haqida noto'g'ri ma'lumot berganlik uchun javobgar bo'ladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) mazkur moddada aytib o'tilgan xatti-harakatlar natijasida arizachiga etkazilgan zararining o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'la hajmda qoplashlari shart.

### **23-modda. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarligi**

Tayyorlovchilar (tadbirkorlar) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirilmagan mahsulotni realizatsiya qilganlik uchun tayyorlovchining (tadbirkorning) mansabdor shaxslari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor — tayyorlovchilar ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi tayyorlovchilarni (tadbirkorlarni) majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazishdan ozod qilmaydi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

1993 yil 28 dekabr,

1006-XII-son



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI  
METROLOGIYA TO‘G‘RISIDA

**I BO‘LIM. UMUMIY QOIDALAR**

**1-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatilmoqda:

«metrologiya» — o‘lchovlar, ularning yagona birlikda bo‘lishini ta’minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo‘llari haqidagi fan;

«yagona o‘lchov birligi» — o‘lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma’lum bo‘lgan o‘lchov holati;

«o‘lchov vositasi» — o‘lchovlar uchun foydalaniladigan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo‘lgan texnika vositasi;

«birlik etaloni» — o‘lcham birligini boshqa o‘lchov vositalariga o‘tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘lchov vositasi;

«davlat etaloni» — vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘lchov birligining o‘lchami sifatida e’tirof etilgan etalon;

«metrologiya xizmati» — davlat organlari va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog‘i hamda ularning o‘lchovlar yagona birlikda bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan faoliyati;

«davlat metrologiya nazorati» — metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

«o‘lchov vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish» — o‘lchov vositalarining belgilab qo‘yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui;

«o‘lchov vositalarini kalibrlash» — metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va o‘lchov birliklarining qo‘llashga yaroqliligini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriyasi (markazi) bajaradigan operatsiyalar

majmui;

«o'lchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish» — yagona namunalarda ishlab chiqariladigan (yoki O'zbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o'lchov vositalarining xossalarini sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo'llanish uchun haqqoniy ekanligining metrologiya xizmati tomonidan e'tirof etilishi;

«metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish» — metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarining belgilangan akkreditatsiya qilish sohasida o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligining rasmiy jihatdan tasdiqlanishi;

«yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini, o'lchov vositalarini kalibrlash bo'yicha kalibrlash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditatsiya qilish» — yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining, kalibrlash laboratoriyalarining (markazlarining) belgilangan sohada o'lchov vositalarini kalibrlash bo'yicha ishlarni bajarishga vakolatli ekanligining rasmiy jihatdan tasdiqlanishi;

«o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish» — o'lchovlarni bajarish uslubiyotining unga qo'yilgan metrologiya talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o'tkazish;

«o'lchovlarning bajarilish uslubiyoti» — operatsiyalar va qoidalar majmui bo'lib, ularning bajarilishi xatolari ma'lum bo'lgan o'lchov natijalari olishni ta'minlaydi.

«sinov vositalarini metrologik attestatsiya qilish» — sinov vositalarining normalangan texnik tavsiflari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash;

«sinov vositasi» — sinovlar o'tkazish uchun mo'ljallangan, normalangan texnik tavsiflari bo'lgan texnik qurilma, modda va (yoki) material.

## **2-modda. Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining o'zga qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida metrologiya sohasidagi munosabatlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

### **3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnomada yoki bitimda O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llanadi.

### **4-modda. Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarish**

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ — O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart» agentligi) amalga oshiradi.

«O'zstandart» agentligi vakolatiga:

metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirish;

milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash qoidalari belgilash;

o'lchov vositalari, usullari va natijalariga qo'yiladigan umumiy metrologik talablarni aniqlash;

davlat metrologiya tekshiruv va nazoratini amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni qabul qilish, shu jumladan davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan hamkorlikda qabul qilish;

metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

metrologiya masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish;

O'zbekiston Respublikasining o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimi faoliyat olib borishi va rivojlanishini hamda uning xalqaro o'lchov tizimi va boshqa mamlakatlarning o'lchovlar tizimlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

iste'molchilar huquqlarini, fuqarolarning sog'lig'i va xavfsizligini, atrof muhitni hamda davlat manfaatlarini noto'g'ri o'lchov natijalarining salbiy

oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

#### **4<sup>1</sup>-modda. O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid normativ hujjatlar**

O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni «O'zstandart» agentligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining korxonalari, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan, o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlarni aniqlashtiradigan va ularga zid bo'lmagan normativ hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin.

## **II BO'LIM. O'LCHAM BIRLIKLARI, ULARNI QAYTA HOSIL QILISH VA QO'LLASH**

### **5-modda. O'lcham birliklari**

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ning o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. O'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari «O'zstandart» agentligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga ruxsat berishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida kontrakt shartlariga muvofiq o'lchamlarning o'zga birliklari ham ishlatilishi mumkin.

### **6-modda. O'lchamlar birliklarining etalonlari**

O'lchamlarning birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta tayyorlanadi. Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibini «O'zstandart»

agentligi belgilaydi.

#### **7-modda. O'lchov vositalari va sinov vositalari**

Foydalanishda bo'lgan o'lchov vositalari va sinov vositalari o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashi va qo'llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o'lchov vositalari va sinov vositalari jumlasiga kiritish mezonlarini «O'zstandart» agentligi belgilaydi.

#### **8-modda. O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari**

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari o'lchov natijalarining xatoliklarini baholashni o'z ichiga olishi va o'lchov o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan aniqlikni ta'minlashi lozim. O'lchovlar belgilangan tartibda attestatsiya qilingan o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim.

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiya qilish tartibini «O'zstandart» agentligi belgilaydi.

### **III BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING METROLOGIYA XIZMATLARI**

#### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatining tuzilishi**

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi.

#### **10-modda. Davlat metrologiya xizmati**

«O'zstandart» agentligi boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi.

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

#### **11-modda. Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari**

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo'lgan hollarda

o'lovlarining yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish va metrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

Yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining huquq va burchlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlar bilan belgilanadi.

#### **IV BO'LIM. DAVLAT METROLOGIYA TEKSHIRUVI VA NAZORATI**

##### **12-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazoratini o'tkazish tartibi**

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

##### **13-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati ob'ektlari**

Quyidagilar davlat metrologiya tekshiruv va nazoratining ob'ektlari hisoblanadi:

etalonlar;

o'lov vositalari;

sinov vositalari;

moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari;

axborot-o'lov tizimlari;

o'lovlarini bajarish uslubiyotlari;

metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga ob'ektlar.

##### **14-modda. Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati tatbiq etiladigan doiralar**

Davlat metrologiya tekshiruv va nazorati:

sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;

moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish;

savdo-tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;

zaharli, engil alanganuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash,

tashish hamda yo‘q qilib tashlash;

davlat mudofaasini ta‘minlash;

mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta‘minlash;

sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;

geodezik va gidrometeorologik ishlar;

o‘lchov vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrlashdan, ta‘mirlash va metrologik attestatsiyadan o‘tkazish;

foydali qazilmalarni qazib olish;

milliy va xalqaro sport rekordlarini ro‘yxatga olishga nisbatan tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati faoliyatning o‘zga doiralari nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin.

### **15-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati turlari**

Davlat metrologiya tekshiruvi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

o‘lchov vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;

o‘lchov vositalarini, sinov vositalarini va o‘lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish;

o‘lchov vositalarini, shu jumladan etalonlarni tekshiruvdan o‘tkazish, kalibrlash;

o‘lchov vositalarini, sinov vositalarini hamda o‘lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini sinash, tekshiruvdan o‘tkazish, metrologik attestatsiya qilish, o‘lchov vositalarini, sinov vositalarini va metrologiya faoliyatning boshqa muayyan turlarini kalibrlash huquqiga ega bo‘lishi uchun metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish;

o‘lchovlarning, sinovlarning bajarilish sifatini va metrologiya faoliyatining boshqa turlarini baholash.

Davlat metrologiya nazorati:

o‘lchov vositalarini tayyorlash, ta‘mirlash, ularning ijarasi bilan shug‘ullanish, ularni realizatsiya qilish, ularning holati va qo‘llanilishi (o‘lchamlar birliklari etalonlarini, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalari standart

namunalarini, o'lchov tizimlarini qo'shgan holda);

o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarining qo'llanilishi;

belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi hamda akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari faoliyati ustidan amalga oshiriladi.

Zarur hollarda «O'zstandart» agentligi qaroriga binoan metrologiya tekshiruv va nazoratning boshqa turlari va shakllari ham belgilanishi mumkin.

### **16-modda. O'lchov vositalarining turlarini tasdiqlash**

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doiralarda foydalaniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo'yicha chetdan olib kelinishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari davlat sinovlaridan (keyinchalik ularning turini tasdiqlash sharti bilan) yoki metrologik attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

O'lchov vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, turini tasdiqlash va Davlat reestriga kiritishni «O'zstandart» agentligi amalga oshiradi.

Tasdiqlangan o'lchov vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi Davlat reestri belgisini qo'yishi shart.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'tkazilgan o'lchov vositalarini sinash va metrologik attestatsiya qilish natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

### **17-modda. O'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish**

Tekshiruvdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari turkumlarining ro'yxati «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologik xizmatlariga o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish huquqi berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'tkazilgan o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda amalga



oshiriladi.

### **17<sup>1</sup>-modda. O'lchov vositalarini kalibrlash**

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatib o'tilganidan bo'lak sohalarda qo'llaniladigan va majburiy tekshiruvdan o'tkazilmaydigan o'lchov vositalari ularni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ishlatish, ijaraga berish, ta'mirlashda va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda kalibrlashdan o'tkazilishi mumkin.

O'lchov vositalarini kalibrlash huquqi yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlariga, akkreditatsiya qilingan kalibrlash laboratoriyalariga (markazlariga) berilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini, kalibrlash laboratoriyalarini (markazlarini) o'lchov vositalarini kalibrlash bo'yicha ishlarni bajarish uchun akkreditatsiya qilish tartibi va kalibrlashni o'tkazish tartibi «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'tkazilgan o'lchov vositalarini kalibrlash natijalarini O'zbekiston Respublikasida e'tirof etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

### **18-modda. Yuridik shaxslarni metrologiya ishlarini va xizmatlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lish uchun akkreditatsiya qilish**

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning metrologik ekspertizasini, ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan sohada qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarining, sinov vositalarining, o'lchovlar bajarilishi uslubiyotlarining metrologik attestatsiyasini o'tkazish, o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash, sinash huquqiga ega bo'lishi uchun yuridik shaxslarni akkreditatsiya qilish belgilangan tartibda «O'zstandart» agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning metrologik ekspertizasini, ushbu Qonunning 14-moddasida nazarda tutilgan sohada qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarining, sinov vositalarining,

o'lovlar bajarilishi uslubiyotlarining metrologik attestatsiyasini, o'lov vositalarini tekshiruvdan o'tkazishni, kalibrlashni, sinashni amalga oshiruvchi akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari faoliyatining inspeksiya nazorati belgilangan tartibda «O'zstandart» agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

### **19-modda. Metrologiya normalari va qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonunning qoidalari, shuningdek metrologiya normalari va qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, davlat boshqaruv organlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## **V BO'LIM. METROLOGIYA ISHLARINI MOLİYAVIY TA'MINLASH**

### **20-modda. Davlat tomonidan albatta moliyaviy ta'minlash**

Davlat tomonidan quyidagilar:

metrologiyani rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish;

metrologiya sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida qatnashish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishga qatnashish;

metrologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

metrologiya bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni o'tkazish;

o'lovlarning yagona birligini ta'minlashga doir «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadigan normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

o'lcham birliklarining etalonlarini va o'ta aniq namunaviy o'lov vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, sotib olish va asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash;

moddalar va materiallar tarkibi hamda hossalarning standart namunalarini, shuningdek moddalar va materiallarning fizik konstantalari hamda xossalariга oid standart spravka ma'lumotlari ishlab chiqish va joriy etish davlat tizimlarini rivojlantirishga doir ishlar;

davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratiga doir ishlar albatta byudjetdan moliyaviy ta'minlanishi shart.

### **21-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlari uchun haq to'lash**

O'lchov vositalarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, o'lchovlar bajarilishining uslubiyotlarini attestatsiya qilish, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, texnik jihatdan asosliligi hamda belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga muvofiqligini baholash, o'lchovlar va sinovlar bajarilishining sifatini baholashga doir metrologiya ishlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar, shuningdek metrologiya faoliyatining davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan boshqa turlari uchun haq tuziladigan shartnomalar shartlariga muvofiq manfaatdor shaxslar tomonidan to'lanadi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
1993 yil 28 dekabr,  
1004-XII-son

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. 2017 yil 7 fevral
2. O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni (28.12.1993 y.)
3. O'zbekiston Respublikasining «Metrologiya to'g'risida»gi qonuni (28.12.1993 y)
4. O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni (28.12.1993 y. №1004)
5. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni
6. O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi qonun.
7. RST Uz. 1.1-92 Стандартлаштириш миллий тизими. Ўзбекистон давлат стандартларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва жорий этиш тартиблари.
8. O'zRST 8.010093 O'zbekiston Respublikasi o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta'riflar.
9. O'z RST 8.002-92 O'zbekiston Respublikasining o'lchamlar birligini ta'minlash davlat tizimi. Metrologik tekshiruv va nazorat.
10. O'z RH 51-094-98 -O'zbekiston sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatlashtirish bo'yicha yo'riqnoma.
11. O'z RH 51-104: 2000 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion tekshiruvini o'tkazish tartibi .Rahbariy hujjati
12. ISO 9004 – 87 Общее руководство качеством и стандарты по обеспечению качества. Международный стандарт
13. ISO 8402 – Sifat. Lug'at;
14. O'z DSt 1.0: 1998 O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi.

15.GOST 1.0-92 Pravila provedeniya rabot po mejosudarstvennoy standartizatsii. Obshie polojeniya.

16.O‘z RST 8.002-92 O‘zbekiston Respublikasining o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologik tekshiruv va nazorat.

17.O‘zRST 8.010093 O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi. Metrologiya. Atamalar va ta’riflar.

18. Абдувалиев А.А. и др. «Основы Стандартизации, сертификации, метрологии и управления качеством продукции». Ташкент, 2002.

19. Аристов А.И. “Метрология, стандартизация, сертификация”.: Учебное пособие / М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013.-256с

20. Архипов А.В. “Метрология, стандартизация, сертификация”.: Учебник для студентов вузов- М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2013.-495с

21. Димов Ю.В. “Метрология, стандартизация, сертификация”.: Учебник для вузов- СПб.: Питер, 2013.-496с

22. Ismatullaev P.R., Maqsudov A.N., Abdullaev A.X.,ва бошқалар “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish”. Toshkent, «O‘zbekiston», 2001.

23. Лифиц И.М. “Стандартизация, метрология и подтверждение соответствия”.: Учебник для бакалавров-М.: Юрайт,2013.- 411 с

24. Николаева М.А. “Стандартизация, метрология и подтверждение соответствия”.: Учебник -М.: НИЦ ИНФРА-М,2013.- 336 с

25. Радкевич Я.М. “Метрология, стандартизация, сертификация”.: Учебник для бакалавров - М.: Юрайт, 2013.-813с

26. Graeme Knowles. Quality Management. Ventus publishing Aps,2011

[www.pca.uz](http://www.pca.uz)

[www.standart.uz](http://www.standart.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)

## MUNDARIJA

	Kirish.....	4
<b>I-BOB</b>	<b>STANDARTLASHTIRISH XIZMATI.....</b>	<b>6</b>
1.1.	O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi.....	6
1.2.	Standartlashtirishning asosiy maqsadi va vazifalari.....	7
1.3.	O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonunining mazmuni va mohiyati.....	9
1.4.	Standartlashtirish ob‘ektlari va sub‘ektlari.....	10
1.5.	Standartlashtirish tamoyillari (prinsiplari) va ularning ahamiyati	13
1.6.	Standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarning toifalari .....	17
1.7.	Standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarning turlari.....	19
1.8.	O‘zbekiston davlat standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartiblari.....	21
1.9.	Xalqaro standartlashtirish tashkilotlari va ularning vazifalari.....	25
1.9.1.	ISO tashkiloti va uning asosiy vazifalari.....	25
1.9.2.	MEK tashkiloti va uning asosiy vazifalari.....	30
1.9.3.	MOZM tashkiloti va uning asosiy vazifalari.....	31
1.10.	Sifat nazorati bo‘yicha Evropa tashkilotining asosiy vazifalari.....	32
<b>II-BOB</b>	<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING METROLOGIYA XIZMATI.....</b>	<b>37</b>
2.1.	Metrologiyaning rivojlanish bosqichlari va uning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga ta’siri.....	37
2.2.	O‘zbekiston Respublikasining «Metrologiya to‘g‘risida»gi qonunining mazmuni va mohiyati.....	50
2.3.	Metrologiyaning asosiy postulatlarini.....	51
2.4.	O‘lchashlarning sifat mezonlari.....	53
2.5.	Kattaliklar va ularning o‘lchash birliklari.....	54
2.6.	Kattalikning o‘lchamligi.....	58
2.7.	Kattaliklarning birliklari.....	60
2.8.	O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimi...	61
2.9.	O‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimining maqsadi va vazifalari.....	62
2.10.	O‘zbekiston Respublikasi o‘lchamlar birligini ta’minlash davlat tizimining tashkiliy tuzilmasi va uni amalga oshirish shakllari.....	63
2.11.	Metrologiya bo‘yicha xalqaro tashkilotlar.....	64
2.13.	O‘lchash vositalarini qiyoslash, kalibrlash, davlat sinovidan o‘tkazish va ular ustidan davlat metrologik nazorati.....	65
2.13.1.	O‘lchash vositalarini qiyoslash.....	65
2.13.2.	O‘lchash vositalarini kalibrlash va davlat sinovlaridan o‘tkazish.....	67
2.14.	Tekshiruv va nazorat qilish idoralari, ularning vazifalari va ob‘ektlari.....	68
<b>III-BOB</b>	<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SERTIFIKATLASHTIRISH XIZMATI</b>	<b>70</b>
3.1.	O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi	

	haqida tushuncha.....	70
3.2.	Sertifikatlashtirishning qonuniy asoslari va yo‘nalishlari.....	72
3.3.	Sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idoralar va ularning vazifalari.....	73
3.4.	Sinov laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish tartiblari.....	75
3.5.	Mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemalari.....	77
3.6.	Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.....	79
3.6.1.	Mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish tartiblari.....	79
3.6.2.	Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish.....	81
3.7.	Milliy mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiblari va qoidalari.....	82
3.8.	Chet el mamalakatlarining sertifikatlashtirish amaliyoti.....	84
3.9.	Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inespeksion nazorat.....	86
<b>IV-BOB</b>	<b>MAHSULOT SIFATINI TA’MINLASH VA BOSHQARISH.....</b>	<b>93</b>
4.1.	Mahsulot sifatini ta’minlash haqida tushuncha.....	93
4.2.	Mahsulot sifati to‘g‘risida tushuncha.....	95
4.3.	Mahsulot sifatini boshqarish, uning vazmuni va ahamiyati.....	97
4.4.	Sifatni boshqarish tizimlari.....	100
4.5.	Sifat tizimining elementlari.....	103
4.6.	Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishdan o‘tkazish.....	106
4.7.	O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish va sifatni ta’minlash tizimining rivojlanish istiqbollari va takomillashtirish yo‘llari.....	107
4.8.	Mahsulot va xizmatlar sifatini ta’minlashda ISO 9000 xalqaro standartlarining ahamiyati.....	111
<b>V-BOB</b>	<b>SIFATNI BOSHQARISH XALQARO TIZIMLARI VA MAHSULOT TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLARNI STANDARTLASHTIRISH VA KODLASH.....</b>	<b>114</b>
5.1.	Sifatni boshqarish xalqaro tizimlari.....	114
5.2.	Mahsulot haqidagi ma’lumotlarni standartlashtirish va kodlash.....	116
<b>VI-BOB</b>	<b>TEXNIK JIXATDAN TARTIBGA SOLISH HIZMATI...</b>	<b>124</b>
6.1.	Texnik jixatdan tartibga solish xizmatining maqsadi va vazifalari.....	124
6.2.	Texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi va davlat organlarining vakolatlari.....	125
6.4.	Texnik reglamentlarning turlari va mazmuni.....	129
6.5.	Texnik reglamentlarni ishlab chiqish tartibi.....	132
	Glossariy.....	136
	O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni.....	141
	O‘zbekiston respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni.....	150
	O‘zbekiston respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonuni.....	161
	Fanni o‘zlashtirish uchun testlar.....	172
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	184

## ОГЛАВЛЕНИЕ

	Введение.....	4
<b>I-</b>		
<b>Глава</b>	<b>УСЛУГИ В СФЕРЕ СТАНДАРТИЗАЦИИ.....</b>	<b>6</b>
1.1.	Государственная система стандартизации Республики Узбекистан.....	6
1.2.	Цель и задачи стандартизации.....	7
1.3.	Сущность и значение Закона Республики Узбекистан «О стандартизации».....	9
1.4.	Объекты и субъекты стандартизации.....	10
1.5.	Принципы стандартизации.....	13
1.6.	Категории и виды нормативных документов по стандартизации....	17
1.7.	Виды нормативных документов по стандартизации.....	19
1.8.	Разработка, утверждение и внедрение государственных стандартов Республики Узбекистана.....	21
1.9.	Международные организации по стандартизации .....	25
1.9.1.	ИСО и её основные задачи.....	25
1.9.2.	МЭК и её основные задачи.....	30
1.9.3.	МОЗМ и её основные задачи.....	31
1.10.	Цели и задачи Европейской организации.....	32
<b>II-</b>		
<b>Глава</b>	<b>МЕТРОЛОГИЧЕСКАЯ СЛУЖБА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....</b>	<b>37</b>
2.1.	Этапы развития метрологии и её влияние на научно- технический прогрессе.....	37
2.2.	Сущность и значение закона Республики Узбекистан «О метрологии».....	50
2.3.	Основные постулаты метрологии.....	51
2.4.	Критерии качества измерений.....	53
2.5.	Величина и её критерии измерений.....	54
2.6.	Размер величины.....	58
2.7.	Единица величины.....	60
2.8.	Государственная система обеспечения единицы измерений Республики Узбекистан.....	61
2.9.	Цели и задачи государственной системы обеспечения единиц измерения.....	62
2.10.	Организационная структура государственной системы обеспечения единиц измерений и формы ее реализации .....	63
2.11.	Международные организации по метрологии.....	64
2.13.	Калибровка, поверка и государственный надзор средств измерений ....	65
2.13.1.	Поверка средств измерений.....	65
2.13.2.	Калибровка и государственный надзор средств измерений.....	67
2.14.	Задачи и объекты органов метрологического надзора.....	68
<b>III-</b>		
<b>Глава</b>	<b>УСЛУГИ В ОБЛАСТИ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....</b>	<b>70</b>
3.1.	Основные понятия о национальной системы сертификации	



	Республики Узбекистан.....	70
3.2.	Правовые основы и направления в области сертификации.....	72
3.3.	Национальный орган по сертификации и ее задачи.....	73
3.4.	Порядок аккредитации испытательных лабораторий.....	75
3.5.	Схемы сертификации .....	77
3.6.	Обязательная и добровольная сертификация продукции.....	79
3.6.1.	Порядок обязательной сертификации продукции.....	79
3.6.2.	Добровольная сертификация продукции.....	81
3.7.	Порядок и правила сертификации национальной продукции.....	82
3.8.	Практика сертификации зарубежных стран.....	84
3.9.	Инспекционный контроль над сертифицированной продукцией.....	86
<b>IV-</b>		
<b>Глава</b>	<b>ОБЕСПЕЧЕНИЕ И УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ .....</b>	<b>93</b>
4.1.	Понятие об обеспечении качества продукции.....	93
4.2.	Понятие о качестве продукции.....	95
4.3.	Содержания, значения, объекты и элементы управления качеством.....	97
4.4.	Системы управления качеством.....	100
4.5.	Элементы системы качества.....	103
4.6.	Сертификация системы качества.....	106
4.7.	Перспективы и пути совершенствования системы стандартизации и управления качеством Республики Узбекистан.....	107
4.8.	Значение международного стандарта ISO 9000 в обеспечении качества продукции и услуг.....	111
<b>V-</b>		
<b>Глава</b>	<b>МЕЖДУНАРОДНАЯ СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ , СТАНДАРТИЗАЦИЯ И КОДИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИИ О ПРОДУКЦИИ.....</b>	<b>114</b>
5.1.	Международная система управления качеством.....	114
5.2.	Стандартизация и кодирование информации продукции.....	116
<b>VI-</b>		
<b>Глава</b>	<b>УСЛУГИ ТЕХНИЧЕСКОГО УРЕГУЛИРОВАНИЯ.....</b>	<b>124</b>
6.1.	Цели и задачи технического урегулирования.....	124
6.2.	Государственная система о техническом регулировании и полномочия в этой сфере государственных организаций.....	125
6.4.	Содержания и виды технического регламента.....	129
6.5.	Порядок разработки технического регламента.....	132
	Глоссарий.....	136
	Закон Республики Узбекистан «О стандартизации».....	141
	Закон Республики Узбекистан «О сертификации продукции и услуг».....	150
	Закон Республики Узбекистан «О метрологии».....	161
	Тесты для самостоятельной подготовки.....	172
	Список использованной литературы.....	184